O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

IQTISODIY ATAMALAR VA ISH YURITISH

Ma’ruza matni

TOSHKENT-2005

“Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” fani ma’ruza matni

-T.: TMI, 2005. - 106 bet

Annotatsiya: “Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” - iqtisodiyot tili va terminologiyasining muammolarini qamrab olgan. O’zbek iqtisodiy terminologiyasining tarixi, shakllanishi, boyish manbalari, iqtisodiy terminlarni qabul qilish va tartibga solish yo’llari, ish yuritish va hujjatlarni to’g’ri yo’lga qo’yish masalalari o’quv qo’llanmada o’z ifodasini topgan. Shuningdek o’zbek tilining yangi alifbosi - lotin alifbosi hamda imlo qoidalari haqida ham ma’lumot berilgan.

O’quv qo’llanma “O’zbek va rus tillari” kafedrasi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. “28” avgust 2005 y. 1- son majlis bayoni.

“O’zbek va rus tillari”
kafedrasi mudiri: N. Husanov

O’quv qo’llanma Toshkent Moliya instituti qoshidagi Oliy o’quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.
“ ” 2005 y. son majlis bayoni.

Rektorning o’quv ishlar
bo’yicha muovini: A.Vahobov

Mualliflar: filologiya fanlari doktori,
professor N.Husanov
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Z. Mirahmedova

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori,
professor E. Begmatov,
filologiya fanlari nomzodi,
dotsent O’. Lafasov.

TMI, 2005

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYH INSTITUTI

IQTISODIY ATAMALAR VA ISH YURITISH

Ma’ruza matni

Oliy ta’limning 340000 - “Biznes va boshqaruv” hamda 140000 - “O’qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani” bilim va ta’lim sohalaridagi:

5340600 - “Moliya”
5340700 - “Bank ishi”
5340800 - “Soliqlar va soliqqa tortish”
5340900 - “Buxgalteriya hisobi va audit”
5340200 - “Menejment” hamda
5140900 - “Kasb ta’limi” (bakalavr ta’lim yo’nalishlari uchun).

TOSHKENT - 2005

Kirish

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganiga 13 yil bo’ldi. O’tgan davr mobaynida Respublikamizda ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy, huquqiy va iqtisodiy sohalarda qator islohotlar o’tkazildi “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Milliy dasturning qabul qilinishi ta’lim tizimida jiddiy islohotlarni boshlanishiga asos bo’ldi. Toshkent Moliya institutida malakali va bilimdon iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida o’quv dasturlariga bir qator yangi fanlar kiritildi. “Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” ana shunday yangi fanlardan biridir. “Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” iqtisodiyot tili va iqtisodiyot terminologiyasiga bag’ishlangan yangi fandir. Zero, shu kunga qadar bu fan birorta oliy o’quv yurtida o’quv dasturiga kiritilmagan edi. Holbuki, Toshkent Moliya institutida “Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” fanidan 2000 yildan buyon talabalarga saboq beriladi.

Mazkur ma’ruzalar bir-biriga uzviy bog’langan mavzularni qamrab olgan. Ma’ruzalarda yangi o’zbek yozuvi va imlo qoidalari, iqtisodiyot tili va terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasining shakllanish tarixi va boyish manbalari, terminlarni qo’llash mezoni va tartibga solish masalalari, iqtisodiyot tilining uslubi, iqtisodiy terminologiya va ish yuritish muammolari o’z ifodasini topgan. Davr talabidan kelib chiqib qo’llanmada iqtisodiyot terminologiyasiga kengroq o’rin ajratildi.

“Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” ilk bor chop etilayotgani uchun ma’ruza kamchiliklardan xoli emas. Mualliflar ma’ruza yuzasidan bildirilgan fikr va tilaklarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

1-mavzu: Fanning mazmuni va vazifalari

REJA:

1. **Fanning maqsadi va vazifasi**
2. **Yozuv va til**
3. **O'zbek yozuvlari tarixi**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi 1996 yil 14 noyabrda O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida" (yangi tahrirda)gi Qonunni bajarish tadbirlari to'g'risida 267-sonli buyruq chiqardi. Unda o'quv yurtlarida xodimlar va talabalar uchun "Davlat tilida ish yuritish, hujjatchilik va atamashunoslik" kurslarini 1997 yildan e'tiboran doimiy ravishda tashkil etish qat'iy qilib qo'yilgan, TMI rektori yuqorida qayd etilgan ko'rsatmadan kelib chiqib xodimlar va talabalar uchun mutaxassislik tili fanidan 36 soatlik nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tishni tashkil etish to'g'risida buyruq chiqardi.

Yuqorida qayd etilgan buyruqlar asosida o'quv jarayoniga tadbiq etilayotgan mazkur fan "Davlat tili haqida"gi Qonunning quyidagi moddalariga tayanadi:

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilingan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi talab qilinadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat

tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham oshirilishi mumkin.

Ma'lumki, boshlang'ich tashkilotlardan tortib davlatning oliy organlarigacha hujjatlarga tayanib ish yuritadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, yaqin vaqtlargacha hujjatlarning aksariyati rus tilida rasmiylashtirilar edi. O'zbek tilida ayrim hujjatlargina yuritilar, ular ham rus tilidagi hujjatlar andozasiga asoslanar edi. Endilikda respublikamizdagi barcha korxonalarda yuritiladigan hujjatlarni o'zbek tili qonun-qoidalariga mos ravishda rasmiylashtirilishiga erishishdek ulkan vazifa hammamizning oldimizda turibdi.

Korxonalarda ish qog'ozlarini davlat tilida yuritishga o'tish qiyinchilik bilan kechmoqda. Buning sabablaridan biri davlat tilida ish yuritish bo'yicha tegishli qo'llanmalar, uslubiy ishlarning kamligi bo'lsa, ikkinchisi, bu sohada hali mutaxassislar tayyorlashga kirishilmaganligi, ishlab turgan mutaxassis xodimlarning hujjatchilik bo'yicha malakasini oshirish borasida etarlicha ish qilinmayotganidir .

Shu bois, ish qog'ozlari yuritish bo'yicha dastlabki bilimlar maktabda o'rgatilishi lozim. Chunki o'rta maktabni yoki litseyni tugatgan har bir kishi ma'lumoti to'g'risidagi hujjatni qo'liga olgach mustaqil hayotga qadam qo'yadi. Ana shu davrdan boshlab ular ish qog'ozlari bilan har qadamda duch kela boshlaydilar. Ishga kirish uchun, o'quv yurtiga hujjat topshirish uchun, mehnat ta'tili olish uchun, ishdan bo'shash uchun ariza yozish, mehnat ta'tilidan qaytganligi to'g'risida bildirishnoma yozish, yo'l qo'yilgan xato-kamchilik yoki nojo'ya xatti-harakat uchun tushuntirish xati yozish, bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozish, etkazilgan moddiy, ma'naviy yoki jismoniy zarar uchun da'vo arizasi yoki shikoyat xati yozish va hokazo. Ba'zan mana shunday hujjatlarni nafaqat o'rta ma'lumotli mutaxassislar, ba'zan oliy ma'lumotli malakali mutaxassislarimiz ham to'g'ri yoza olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo'lidan borayotgan bugungi kunda dunyo andozalari

darajasidagi bilimdon, zukko, har tomonlama etuk iqtisodchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa ta'lim andozalariga yangi, zamonaviy fanlarni kiritish orqali amalga oshiriladi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonun talablaridan kelib chiqqan holda Toshkent Moliya institutida iqtisodchi-bakalavrlarga "Iqtisodiy atamalar va ish yuritish" ma'ruza matni kiritildi. Bu fanni o'qitishdan maqsad bakalavrda iqtisodiy til, iqtisodiy atamashunoslik, iqtisodiy nutq asoslarini shakllantirishdan iboratdir.

Shunga ko'ra institut talabalari uchun "Iqtisodiy atamalar va ish yuritish" kursining kiritilishi maqsadga muvofiq ish bo'ldi.

Mazkur ma'ruza matni talabalarga hujjatlar, ularning turlari, har bir hujjatda aks etishi lozim bo'lgan ma'lumotlar, axborotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma'naviy hayotimizga oid hamda o'rganayotgan mutaxassisliklariga doir terminlar, ularni tanlashdagi o'ziga xos xususiyatlarni o'rgatish uchun mo'ljallangan.

"Iqtisodiy atamalar va ish yuritish" fani iqtisodiy nazariya va iqtisodiy fanining boshqa sohalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bakalavr o'z mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda iqtisod tili va uslubi, iqtisodiy terminologiya va atamashunoslik, ish yuritish va hujjatchilik to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lmasdan turib, o'z fikrini iqtisod sohasiga qo'yiladigan talablar asosida aniq va ravshan ifoda eta olmaydi. Shunga ko'ra bo'lajak iqtisodchilar iqtisod tilining o'ziga xos xususiyatlaridan puxta xabardor bo'lmog'i lozim. Bakalavrlar o'z ixtisosligidan kelib chiqqan holda O'zbekiston iqtisodini yuksaltirishga, uni jahonda munosib o'rin egallashiga hissa qo'shadi, chet mamlakatlarda va yurtimizda davlatimiz manfaatini himoya qiladi, kuch-qudratini namoyish etadi. Shunga ko'ra bo'lajak iqtisodchilar davlat tili-o'zbek tilini mukammal, aniq va ravshan egallashlari shart. Shuning uchun dasturda iqtisodiy til bilimlariga alohida urg'u berildi.

Mazkur o'quv kursining o'qitilishi muayyan amaliy yo'nalishga ega bo'lib, bakalavr iqtisod tili bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni, o'z oid sohasiga

so’zlarni va hujjatlarni to’g’ri yozish malakasini hosil qilishni ko’zda tutadi. Shundan kelib chiqqan holda “Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” ma’ruza matnini o’qitishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda o’z mutaxassisligining tili bo’yicha tegishli bilimlarni hosil qilish;

- iqtisodiyotga oid tushuncha so’z, atama (termin)lar o’z o’rnida va to’g’ri qo’llash, tallafuzni shakllantirish;

- o’z sohasiga doir hujjatlarni mukammal tuzish malakasini hosil etish.

Dastur ikki bo’limdan iborat bo’lib, 7 mavzuni o’z ichiga oladi. Ularni o’rganish uchun 44 soat ajratilgan bo’lib, shundan 22 soati ma’ruzalarga, 22 soati amaliy mashg’ulotlarga mo’ljallangan. Talabalar joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarni topshiradilar. Maksimall ball-64, saralash ball-34.

Talabalar joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarni og’zaki va yozma shaklda topshiradilar.

Insoniyat tarixi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Yozuv va tilning tarixi ham insoniyat bilan bog’liq ravishda qadimiy davrlardan boshlanadi. Inson ongli hayot kechira boshlagandan so’ng hayotiy zaruriyat sifatida til va yozuv shakllangan. Olimlar til va yozuv o’rtasidagi munosabatni turlicha talqin etishadi: ba’zilari tilni birlamchi deyishsa, boshqalari yozuvni olg’a surishadi. Bu ikki qarashning har birida ham etarlicha isbot va dalillar mavjud. Yozuvni birlamchi deb hisoblovchilar quyidagicha isbot keltirishadi:

Yozuv juda qadimiydir va vaqt jihatidan chegaralanmagan. Zero, Xorazmiyning, Ibn Sinoning, Navoiyning asarlari yozuvda aks etgani uchun ham shu kungacha saqlangan.

Yozuv makon va hudud jihatidan cheksizdir. Masalan, o’zga yurtda yashayotgan tanishimizning hol-ahvoli haqidagi ma’lumotni uning maktubi orqali bilib olamiz.

Yozuv ko’rinib turuvchi daliliy ashyodir.

Tilni birlamchi hisoblovchilar esa quyidagilarni olg’a surishadi:

Til yozuvga nisbatan oldin shakllangan va paydo bo’lgan.

Tilning kishilik jamiyatida ta’sir kuchi nihoyatda katta. Masalan, notiqlarning nutqlarini jamoatchilikka ta’sirini tekshirib ko’raylik.

Til ya’ni nutq uchun zaruriy qurol-aslaha talab qilinmaydi. Holbuki, yozuv uchun qalam, qog’oz, yorug’lik talab etiladi.

Har ikki qarash aslida asoslidek tuyulsa-da, yozuv va til o’rtasidagi uzviy aloqa nazardan soqit qilingan. Chunki, til yozuvning shakllanishiga, yozuv esa tilning rivojlanishiga asos bo’ladi. Bu o’rinda gung-soqovlarning so’zlashish tilini eslatib o’tish kifoyadir.

Yozuv inson tafakkurining eng oliy mevalaridan biri hisoblanadi. Yozuv orqali biz ajdodlarimizning ma’naviy durdonalaridan bahramand bo’lish bilan bir qatorda, o’zimiz yaratayotgan ma’naviy boyliklarimizni kelajak avlodlarga qoldiramiz.

O’zbek xalqi o’zining ko’p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha yozuvlardan foydalanib keldi. Miloddan oldingi asrlardanoq ajdodlarimiz o’z tarixini, badIIy va ilmiy ijodini tarixiy sharoitdan kelib chiqqan holda turli yozuvlarda bitib qoldirganlar.

Markaziy Osiyo eng qadimgi madaniyat va ma’rifat o’choqlaridan biridir. Bu territoriyada yashagan xalqlar juda qadimdan yozuv madaniyatiga ega bo’lganlar. Arxeologik tekshirishlar Xorazmda yashagan xalqlar eramizning boshlaridayoq (III asr) ancha rivojlangan yozuv sistemasiga ega ekanliklarini isbotlab berdi. Tojikiston territoriyasidagi Mug’ tog’ida (Zarafshon daryosining chap qirg’og’ida) qazuv ishlari (1933 yil) VIII asrda sug’d yozuvida bitilgan qimmatli hujjatlarni qo’lga kiritdi. Bundan tashqari, Sibirda, Mo’g’ulistonda, Qozog’iston va Markaziy Osiyoning turli joylarida ikki xil turk yozuvi yodgorliklari topildi. Bu yozuv yodgorliklari, keyin aniqlanishicha, qadimgi turk va qadimgi uyg’ur yozuv yodgorliklari bo’lib chiqdi.

Bu yozuvlarning ahamiyati juda kattadir. Turk xalqlarining tarixi uchun ham, turk tillari tarixi uchun ham bu yodgorliklar g’oyat qimmatlidir. Shu bilan birga bu yozuvlarning etnografik ahamiyati ham bordir. Qadim zamonlarda turk xoqonlarining qabriga o’lgan kishining tarjimai holi, qilgan ishlari, olib borgan

urushlarini aks ettiruvchi bitik toshlar qo'yar ekanlar. Shuningdek, bu yozuvlar qadimgi turk davlatining qurilishi, ijtimoiy tuzumi haqida ham ancha yaxshi tasavvur beradi.

Qadimgi turk yozuvi yodgorliklari dastlab Enasoy va O'rxun (Shimoliy Mo'g'uliston) daryolari bo'ylarida topilganligi uchun ularni O'rxun-Enasoy yozuvlari deb atadilar. Keyinchalik bu yozuvlar §arbiy-Evropa runa yozuvlariga o'xshash bo'lganligi uchun ularni runik yozuvlar nomi bilan ham yurgizdilar.

Runik yozuvlar ("O'rxun-Enasoy" yozuvlari) alfavit (fonetik) yozuvning ancha takomillashgan turidir. Bu yozuvlarda tilda mavjud bo'lgan har bir tovush uchun maxsus belgi qo'llangan. 28 tovushni ifoda etish uchun alohida belgilar olingan. Shu jumladan to'rtta belgi unli tovushlar uchun (a-a¨, i-i, o'-u, o-u) ishlatilgan. Bundan tashqari, til oldi va til orqa (yumshoq-qattiq) d, y, l, n, q, s, t, r tovushlari uchun har biriga alohida-alohida belgilar (16 harf) ishlatilgan; shuningdek, (lt, nt, nch) tovush birikmalari uchun ham alohida belgilar olingan. Bundan tashqari, ko'pgina tovushlarning ifodasi bir necha shaklga ega bo'lgan. Shunday qilib, runik yozuvlarda hammasi bo'lib 72 belgi qo'llangan.

XIX asr oxirlarida, runik yozuvlardan tashqari, Sharqiy Turkistonda uyg'ur yozuvi yodgorliklari ham topilgan, keyinroq uyg'ur yozuvi yodgorliklari ham Markaziy Osiyo territoriyasida topildi. X-XV asrlarda yaratilgan bu yodgorliklarning ko'pchiligi eski o'zbek tilida yozilgan. Qadimgi uyg'ur yozuvida bitilgan yodgorliklarning eng eskisi Yusuf Xos Hojibning "Qudadg'u bilik" asaridir ("Vena nusxasi"). Ahmad Yugnakiyning "Hibatul-haqoyiq" asari, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si, "Me'rojnoma" (XIV asr), Lutfiy va boshqa shoirlarning ayrim she'rlari, To'xtamishxon va Temur Qutlug'ning yorliqlari mana shu uyg'ur alifbosida bitilgan.

VIII asrda arablar Markaziy Osiyoni istilo qildilar. Arablar kelgandan keyin bu erda islom dini tarqala boshladi. Islom dini bilan birga asta-sekin arab yozuvi ham tarqaldi.

Ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra, arab alfaviti Markaziy Osiyo xalqlarining yozuvlarini asta-sekin siqib chiqardi. Lekin bir qancha asrlar davomida arab yozuvi

bilan birga Markaziy Osiyo xalqlarining (turk xalqlari va tojiklarning) yozuvlari ham ishlatilganligi ma'lum. Bizning davrimizgacha etib kelgan "Qutadg'u bilik" (XI asr), "Hibatul-haqoyiq" (XII asr) asarlarigina emas, balki XIV-XV asrlarda yaratilgan ayrim yodgorliklarning ham uyg'ur yozuvida bitilganligi, hatto "Oltun yorug'" yodgorligining XVII asr oxirlarida yozilganligi uyg'ur alfavitining juda uzoq davrlargacha saqlanib kelganidan darak beradi.

Qanday bo'lmasin, arab yozuvi mahalliy xalqlarning tiliga mos kelishi-kelmasligidan qat'i nazar, islom dini kirgan joylarda keng tarqalgan.

Arab yozuvida bitilgan eng eski turk tillari yodgorligi ("Qutag'du bilik"ning uch nusxasidan ikkitasi, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari) XI asrga taalluqlidir. O'zbek xalqi bunyodga kelgandan beri yaratilgan yodgorliklarning deyarli hammasi mana shu arab alfavitidadir.

O'zbek xalqi tarixida yaratilgan juda ko'p yodgorliklarni har tomonlama o'rganish, umuman, xalqimiz madaniyatini, adabiyotini, tarixini o'rganish uchun arab yozuvini bilishimiz zarur bo'ladi.

Arab grafikasi asosidagi yozuv xalqimizning ming yillik tarixi davomida qo'llanib keldi va 1930 yildagina lotin alifbesi bilan almashtirildi. 1940 yilda esa rus alifbosiga o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kirtgandan so'ng o'zbek tilining tovushlar tizimi, ohangdorligi va jilosini to'la ifodalay oladigan yozuvga-alifboga o'tish zaruriyati tug'ildi.

1993 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" Qonun qabul qildi. Bu alifbo 31 harf va I tutuq belgisi (apostrof) dan iborat etib belgilandi. Yangi alifbodagi ba'zi harflar jahon aloqa-aralashuv (komunikatsiya) tizimiga kirishimizda ma'lum qiyinchiliklar tug'dirish mumkinligi hisobga olinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 6 mayda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunga o'zgartirishlar kiritish haqida qaror qabul qildi. Qarorga binoan, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi 26 harf va 3 harflar birikmasidan iborat etib belgilandi. Yangi

alifbo asosida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 24 avgustdagi 339-sonli qaroriga ilova tarzida “O’zbek tilining asosiy imlo qoidalari” tasdiqlanib, unli harflar bilan tovushlar mutanosibligi, asos va qo’shimchalar imlosi, qo’shib yozish, chiziqcha bilan yozish, ajratib yozish, bosh harflar imlosi, ko’chirish qoidalari o’z ifodasini topgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 1996 yil 30 dekabrdagi 302-sonli buyrug’idan kelib chiqib, Toshkent Moliya instituti 1-kurs talabalariga “Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” fani O’zbek alifbosi-Lotin alifbosida olib boriladi.

O’zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan - O’zbek alifbosini joriy etish to’g’risida”gi 1995 yil 24 avgustda 339-sonli qaror bilan “O’zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ni tasdiqladi. Bu imlo qoidalari 1956 yil 4 apreldagi “O’zbek orfografiyasining asosiy qoidalari”dan tubdan farq qiladi. Jumladan, tovush - harf munosabatiga bag’ishlangan qism qayta yozilgan, morfologik tamoyilga asoslanish nisbatan ortgan: -gin, -gina qo’shimchalari uch xil yozilishi qoidalashtirilgan; juft so’z qismlari orasida -u (-yu) bog’lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo’yiladigan bo’lgan; tartib son arab raqamlari bilan yozilga, -nchi qo’shimchasi o’rniga chiziqcha (-) qo’yilishi yil va oylarni ko’rsatuvchi arabcha raqamlarga ham tatbiq etilgan va boshqalar. Ikkinchi qismi turdosh ot bo’lgan geografik nomlar (Qoratog’), sifat va atoqli otlardan tuzilgan geografik nomlar (Shimoliy Kavkaz) yozilishi kabi ayrim qoidalar ancha ixchamlashgan. Parvo, obro, mavqe, mavzu, avzo so’zlariga egalik qo’shimchalari qo’shilishidagi holat alohida izohlangan; men, sen olmoshlariga -ni, ning, -niki qo’shimchalari qo’shilganda qo’shimchadagi n tovushi aytilmasligi va yozilmasligi aniq qilib tushuntirilgan va hokazolar.

“O’zbek tilining asosiy imlo qoidalari” quyidagi bo’limlardan tashkil topgan:

- harflar imlosi (unlilar va undoshlar);
- asos va qo’shimchalar imlosi;
- qo’shib yozish;
- chiziqcha bilan yozish;
- ajratib yozish;

- bosh harflar imlosi;

- ko’chirish qoidalari.

“Lotin yozuviga asoslangan o’zbek alifbosi” 26 harf va 3ta harfiy birikmadan iborat.

1993 yil 2 sentyabrda qabul qilinib, 1995 yil 6 mayda o’zgarishlar kiritilgan o’zbek alifbosi

YaNGI ALIFBO

Bosma	Yozma	Harf nomi	Bosma	Yozma	Harf nomi
Aa	Aa	a	Qq	Qq	qe
Bb	Bb	be	Rr	Rr	er
Dd	Dd	de	Ss	Ss	es
Ee	Ee	e	Tt	Tt	te
Ff	Ff	ef	Uu	Uu	u
Gg	Gg	ge	Vv	Vv	ve
Hh	Hh	he	Xx	Xx	xe
Ii	Ii	i	Yy	Yy	ye
Jj	Jj	je	Zz	Zz	ze
Kk	Kk	ke	O’ o’	O o	o’
Ll	Ll	el	G’g’	Gg	g’e
Mm	Mm	em	Sh sh	Sh sh	she
Nn	Nn	en	Ch ch	Ch ch	che
Oo	Oo	o	Ng ng	Ng ng	nge
Pp	Pp	pe			

Tayanch so’z va iboralar:

1. Yozuv.
2. Til-ijtimoiy hodisa.
3. Hujjatlarning ahamiyati.
4. Hujjat turlari.
5. Davlat tili to’g’risidagi qonunning 2-moddasi.
6. Davlat tili to’g’risidagi qonunning 9-moddasi.
7. Davlat tili to’g’risidagi qonunning 10-moddasi.
8. Iqtisodiyot va mutaxassislik.
9. “Iqtisodiy atamalar va ish yuritish” fani.
10. Alifbo.
11. O’zbek alifbosi va lotin yozuvi.
12. Harf.

13. Tovush.
14. Imlo qoidalari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Yozuvlarning yaratilish sabablari nimada?
2. O’zbek yozuvlari tarixi qachondan boshlangan?
3. Sho’ro davrida yozuv va tilning holati qanday bo’lgan?
4. “Davlat tili to’g’risidagi qonun” ni bilasizmi?
5. Qonunda ish yuritish va hujjatlar nechanchi moddada aks etgan?
6. Fanning maqsadi nima?
7. Fanning vazifasichi?
8. Fan qaysi fanlar bilan uzviy aloqada?

2-mavzu: Iqtisodiyot terminologiyasi

REJA:

1. **Til va terminologiya**
2. **Termin tushunchasi va uning o'zbek tilshunosligida tutgan o'rni**
3. **Iqtisodiyot terminologiyasi va uning o'zbek tiliga kirib kelish manbalari**

Respublikamiz o'z mustaqilligiga, ona tilimiz esa Davlat tili maqomiga erishgan bugungi kunda turli fanlar, jumladan, o'zbek tilshunosligi oldida yangidan-yangi vazifalar ko'ndalang bo'lmoqda.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-texnik tub o'zgarishlar davrida yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni echish vazifasi turibdi.

So'nggi yillarda va bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroflicha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Qayd etish lozimki, o'zbek tilshunosligida U.Tursunov, S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, O.Usmonov, N.Mamatov, X.Jamolxonov, N.Qosimov, A.Madvaliev, N.Mahkamov kabi yuzlab olimlarning monografiya, dissertatsiya va lug'atlari, ko'plab maqolalari yuzaga kelgan. Shunga qaramay, yana qator terminologik tizimlar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda. Ingliz, rus va o'zbek tillari iqtisodiyot terminologiyasi qiyosiy planda o'rganilganligi uchun o'zbek tilining mazkur terminologik tizimi o'zining to'liq ifodasini topa olgani yo'q. Buning ustiga ishning tadqiq ob'ekti ham ancha chegaralangan. Shulardan biri o'zbek

tilining iqtisodiyot terminologiyasidir. To’g’ri, mazkur tizim J.Do’stmuhamedovning nomzodlik dissertatsiyasida ozmi-ko’pmi, tadqiqot ob’ekti qilib olingan.

Hozirgi sharoitda ijtimoiy hayotning hamma jabhalarida yangicha fikr yuritilmoqda. Jumladan, yangicha fikrlash tamoyili ijtimoiy fanlarni to’la qamrab oldi, chunki uning oqibati jamiyatda inson hayotiga, kelajak taraqqiyotiga, uni qamrab olgan olamga tegishlidir. Shuning uchun ham kishilar, millatlar va davlatlar o’rtasidagi munosabatlarda birinchi o’rinda ijtimoiy aloqalar ilgari surilmoqda.

O’zbekiston mustaqil davlat sifatida kelajak ravnaqi uchun, albatta, o’z ichki va tashqi siyosatida va iqtisodiy aloqalarida ham mustaqil bo’lishi lozim.

Respublikamiz mustaqil deb e’lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o’zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko’p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo’l ochildi. Bu omillar o’zbek tilida yangi-yangi terminlarni paydo bo’lishiga sabab bo’ldi. Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o’ziga xos o’rinni egallab kelmoqda. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy terminlarni ham tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy, ayniqsa, nazariy masalalarni hal etish uchun iqtisodiy terminlar tizimini, ularning yasalish qonunlarini, shakllanish manbalarini, umumtilda qo’llanish doirasini, mazkur tizimda ro’y berayotgan kamchiliklarni va ularni bartaraf etish yo’llarini aniqlash kabi qator masalalarini o’rganish zaruriyati paydo bo’ldi.

Fanning yana bir maqsadi hozirgi o’zbek tilida qo’llanib kelinayotgan iqtisodiy terminlarni to’plash va sistemalashtirishdan ham iboratdir.

Hozirgi bosqichda, ya’ni yuqori saviyadagi ilmiy-texnik inqilob davrida ishlab chiqarish, fan va texnikaning barcha sohalarida yangidan-yangi narsa, predmetlar va tushunchalar paydo bo’la boshladi. Bu hol til lug’at tarkibining salmoqli ravishda boyishiga olib kelmoqda. Binobarin, termin muammosi hozirgi leksikologiyaning, asosiy masalalaridan biri bo’lib qoldi. Alohida ta’kidlash

lozimki, termin hamda terminologiyaning u yoki bu masalasini hal etish nafaqat ishlab chiqarish, fan va texnikaning tegishli sohalari uchun emas, balki tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga egadir.

O’zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgunga qadar va u amal qila boshlangandan keyin qator-qator matbuot xodimlari, hatto ayrim tilshunoslar Davlat tili haqidagi qonunni to’liq joriy etish o’rniga, uning ayrim bandlariga deyarli e’tibor bermay, ko’pdan buyon qo’llanib kelinayotgan va omma nutqiga singib ketgan ko’plab terminlarni, ularning ichki mazmunini o’rganmay turib, yangidan noto’g’ri hosil qilingan leksemalar bilan almashtira boshlashdi. Hatto “termin”, “terminologiya” kabilar “atama”, “atamashunoslik” leksemalari bilan almashtirib qo’llanadigan bo’ldi. Binobarin, “atama”, “atamashunoslik” kabi tushunchalar umumxarakterda bo’lganligi e’tiborga olinmadi. Chunki, “atama” deyilganda terminologiyaga mutlaqo aloqasi bo’lmagan onomastika (toponimiya, antroponomiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi.

Shunga ko’ra, ishimizda avvaldan is’temolda bo’lgan baynalmilal “termin” va “terminologiya” leksemalarini qo’llashni lozim deb topdik.

Garchi, chet el va umuman, sho’ro tilshunosligida termin nazariy jihatdan nisbatan to’liqroq o’rganilgan bo’lsa ham uning ta’rifi, termin va termin bo’lmagan so’zlarning bir-biridan farqlanuvchi belgilari, terminning tarkibi (uning nechta elementdan iborat bo’lishi singari masalalar) hali oxirigacha o’rganilgan va hal qilingan, deya olmaymiz. Bu hol to’laligicha o’zbek tilshunosligi va terminologiyasiga ham taalluqlidir.

“Termin” tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste’moldagi so’zdan farqlash uchun etarli, deb o’ylaymiz:

1) termin-umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo’lmish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so’z yoki birikmadir;

2) termin-konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;

3) termin uchun muayyan ta’rif (definitsiya) zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma’lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo’l qo’yuvchi, farqlovchi belgilarini ravshanroq ko’rsatish mumkin.

Demak, terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o’zaro munosabatda bo’lgan terminlar jami sifatida ta’riflanadi. Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to’g’ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste’moldagi so’zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo’llanishi ma’lum darajada nazorat ostida bo’ladi. “Terminlar paydo bo’lib qolmaydi”, aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda “o’ylab topiladi”, “ijod qilinadi”. Shuningdek, oddiy so’zdan farqli ravishda, terminning ma’nosi kontekstga bog’liq bo’lmaydi, muayyan leksema terminologik ma’nosida va o’z terminologik maydonida qo’llanar ekan, ayni ma’no saqlanib qolaveradi. Biroq ko’p ma’noli terminlarning aniq ma’nosini ajratib olish uchun kontekstning zarurligi shubha tug’dirmaydi.

Yuqorida terminshunoslarning terminning asosiy vazifasi va xususiyati haqidagi, ya’ni terminlarning nominativligi yoki definitivligi haqidagi fikrini keltirdik.

Terminologik birikmalarning ko’p leksemaliligi, ya’ni ular komponentlarining soni nechtagacha bo’lishi keyingi yillarda terminshunoslarning diqqat-e’tiborini jalb etib kelmoqda.

Haqiqatan ham keyingi yillarda miqdoran ortib borayotgan ko’p komponentli birikma terminlar tushuncha mazmunini to’laroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qo’llash va esda saqlab qolish ancha noqulaydir. Aslini olganda, bunday terminlar ikki, nari borsa uch, to’rt komponentdan iborat bo’lishi lozimki, natijada, birikma terminlarning komponentlari, tegishli belgilarni to’laroq aks ettirish maqsadida, aniqlovchilar, sifatdoshli o’ramlar qo’shish orqali hosil qilinishi darkordir. Bu tushunchani ifodalashning dastlabki bosqichiga xos holat bo’lib, keyinchalik tushuncha haqida muayyan tasavvur yuzaga kelgach, u qadar

ahamiyatsiz belgilarni ifodalagan komponent (so’z)lar qisqartirilishi, binobarin termin ixchamroq holga keltirilishi mumkin. Biroq bu jarayon boshboshdoqlik, tavakkalchilik asosida emas, balki ma’lum qonun-qoidalar asosida ongli ravishda amalga oshirilishi lozim.

Ta’kidlash joizki, terminlar masalasi bilan shug’ullangan deyarli barcha olimlar mazkur tushunchaning ta’rifini berishga urinib ko’rishgan. Ularning barchasigina emas, ayrimlarini, ham namuna tariqasida keltirib o’tish ko’plab sahifani egallagan bo’lardi. Shuning uchun ularni jamuljam etgan holda “termin” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

Termin kasbiy ma’no bildiruvchi, kasbiy tushunchani ifodalovchi va shakllantiruvchi ayrim ob’ektlar va ular o’rtasidagi aloqalarni muayyan kasblar nuqtai nazaridan bilish hamda o’zlashtirish jarayonida ishlatiladigan so’z yoxud birikmadir.

Haqiqatan ham shunday. Chunki har bir sohaning, tarmoqning termini borki, u o’sha soha, tarmoq doirasida qo’llanadi, aniqroq qilib aytganda, kasb-hunar egasining nutqini shakllantiradi, o’zaro nutqiy muomala uchun shart-sharoit yaratadi.

Bu o’rinda shuni qayd etish lozimki, muayyan kasb-hunar yoxud mutaxassislikka ega bo’lgan kishilar ko’pincha u yoki bu sohaning o’ziga xos spetsifik terminlari bilan ish ko’radi. Masalan, bo’lajak iqtisodchilarning yozma yoki og’zaki nutqida kartel, kliring, tovar oboroti, mayda mulkchilik, mablag’ ajratish, renta kabi tor doiradagina qo’llaniladigan terminlar ishlatilishi tabIIy bir holdir. O’z-o’zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatilaveradi.

Bozor, mol, savdo, savdo-sotiq, pul, haridor, bozorchi, olib-sotar, chayqovchi kabilar shular jumlasidandir.

Ta’kidlash lozimki, nafaqat iqtisodiyot balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya’ni yig’indisi terminologiya

deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar.

Ma’lumki, o’zbek tilshunosligida terminlarni o’rganish, ularni tartibga solish, terminologik lug’atlar tuzish kabi qator chora-tadbirlar XX asrning 20-yillari o’rtalaridan boshlangan. Zero, ayrim leksikografik ishlarni hisoblamaganda, o’zbek tilini ilmiy asosda o’rganish, hozirgi o’zbek tilshunosligining fan sifatida yuzaga kelishi ham shu davrdan boshlangan.

Albatta, terminlarni o’rganish ehtiyoji o’z-o’zidan kelib chiqqan emas, barcha bilim sohalari bo’yicha o’zbek tilida ta’lim berishni yo’lga qo’yish, bilim sohalarining sezilarli darajada rivojlana borishi, ilmiy tafakkur doirasining kengayishi, sobiq ittifoqdagi milliy tillar, jumladan, o’zbek tili lug’at tarkibining boyib borishi, binobarin, tilda terminlarning ko’payib borishi ularni (terminlarni) har tomonlama o’rganish va tartibga keltirishga turtki bo’lgan edi.

Turli fan sohalariga mansub terminlar o’zbek tilshunosligida dastlab, ya’ni 20-30-yillarda, aksar hollarda sof amaliy maqsadlarni ko’zlab o’rganila boshlagan edi. To’g’ri, bu davrda terminning xususiyati, u yoki bu terminni qanday qo’llash ruscha-baynalmilal va arabcha, forscha yoki umumturkiy islohlarning afzalligi haqida qator maqolalar, ayrim risolalar e’lon qilingan.

Biroq bunday ishlar o’sha davrdagi keskin mafkuraviy, siyosiy kurash ruhi bilan hamohang, bog’liq bo’lganligi natijasida terminologiya, umuman, til masalalarining tilshunoslik nuqtai nazaridan hal etilishida qator xatolarni keltirib chiqargan edi. Shunday bo’lsa-da, bu davrda terminlarni ko’proq amaliy jihatdan o’rganishga, fan sohalariga doir ayrim bir tilli, ko’p tilli terminologik lug’atlar yaratishga kirishildi.

O’zbek tilshunosligida turli fan sohalariga oid terminologik tizimlarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o’rganish urushdan keyin, asosan, 50-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag’ishlangan maqolalar ayrim fan sohalari terminlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag’ishlangan nomzodlik

dissertatsiyalari yuzaga keldi, mukammal terminologik lug'atlar yaratishga kirishildi.

Hozirgi davrda o'zbek tilshunosligida turli fan sohalari terminlari jadallik bilan o'rganilmoqdaki, bu fan sohalarining yanada rivojlanishi va ularning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi darajasi bilan, binobarin, terminlarning rivojlanishi va boyib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek tilshunosligida terminlarni atroflicha tadqiq etish bilan ularni tartibga solish va barqarorlashtirish singari amaliy masalalarga bag'ishlangan qirqqa yaqin nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi, ko'plab monografiya va yuzlab ilmiy-nazariy maqolalar nashri e'lon qilindi, yuzga yaqin terminologik lug'atlar chop etildi. Terminshunoslardan S. Ibrohimov, U. Tursunov, O. Usmonov, N.Mamatov, S. Akobirov, R. Doniyorov, H. Jamolhonov, N. Qosimov, D. Bazarova, A.Qosimov, A. Madvaliev va boshqalar o'z ilmiy mahsulotlari amaliy tavsiyalari bilan o'zbek terminologiyasining rivojiga u yoki bu darajada hissa qo'shdilar va qo'shmoqdalar.

So'nggi yillarda va bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish, termin qo'llashni tartibga solish davlat ahamiyatidagi masalaga aylandi. 1984 yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi qoshidagi Respublika Muassasalararo terminologik komissiya (RMTK)ning tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish boshlashi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferentsiyalarning o'tkazilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Muhimi shundaki, RMTK o'z faoliyati davomida "O'zbek tili terminologiyasi" nomli byulleten nashr etishni yo'lga qo'ydi, unda o'zbek tili terminologiyasining dolzarb masalalariga bag'ishlangan qator maqolalari bilan birga, har bir qo'llanuvchi terminlarning ro'yxati ham berib borildi.

Shuni qayd etish lozimki, Atamaqo'm RMTK an'anasini davom ettirib, ko'rsatilgan "Byulleten" ni nashr etishni yo'lga qo'ydi.

Ta’kidlash lozimki, Atamaqo’m keyingi yillarda o’zbek tili terminologiyasi tizimlarini barqarorlashtirish va terminlarni har xilligiga chek qo’yish borasida ancha-muncha ishlarni amalga oshirdi, boshqacha qilib aytganda, respublikamizda terminologiya masalalarini hal etish jonlantirib yuborildi. Xususan, uning tashabbusi bilan terminlarni nomlash printsiplari ishlab chiqildi va e’lon qilindi.

Atamaqo’m mana shu printsiplarga suyanib, ilm-fan, ishlab chiqarishning turli sohalariga oid terminologik lug’atlar seriyasiga chiqara boshladi[1].

70-80 yillarda o’zbek tili terminologik tizimlarini o’rganishga qiziqish ancha jonlandi. Buning boisi bor, albatta. Gap shundaki, ayni shu vaqtga kelib, terminlar borasida xilma-xil fikrlar bir qadar jiddiy tus ola boshladi. Buning ustiga 70-80 yillargacha terminologik masalalarga unchalik e’tibor berilmagan edi. Vaholanki o’zbek tilining terminologik tizimlarini o’rganmasdan turib, terminologiyaning umumnazariy masalalarini echish mumkin emas. Shu boisdan, o’zbek tilining turli soha terminologik tizimlari tadqiqotlar ob’ekti bo’la boshladi. Mana shunday ishlar jumlasiga H.Dadaboev, A. Qosimov, H.Shamsiddinov, A. Madvaliev, N. Ikromova va boshqa olimlarning nomzodlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin.

Muhimi shundaki, keyingi yillarda o’zbek tilining tizimlarini o’rganishga bag’ishlangan doktorlik dissertatsiyalari ham yuzaga keldi.

Yuqorida aytib o’tganimizdek, turli sohalarga doir terminlar lingvistik jihatdan mufassal o’rganilgan, ularni tartibga keltirish yuzasidan muayyan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo’lsa-da, hali o’zbek terminologiyasining umumnazariy masalalari borasida yaxlit bir monografiya yuzaga kelmagan. Buning asosiy sababi, birinchidan, mavjud terminologik tizimlarning o’zbek tilidagi shakllanishi, rivojlanishi va boyib borishi bir xil darajada emasligi bo’lsa ikkinchidan, ba’zi fan sohalari terminologiyalarning haligicha yaxshi yoki umuman o’rganilmaganidadir. O’zbek tilining deyarli o’rganilmagan terminologik tizimlardan iqtisodiyot terminologiyasidir.

[1] V.Rahimov va boshqalar. Konchilik atamalarining ruscha-o’zbekcha qisqacha lug’ati.-Toshkent, 1993; O’.Pratov va boshqalar. Botanika terminlarining ruscha-o’zbekcha qisqacha lug’ati. -Toshkent, 1993. A.P.Hojiev. Tilshunoslik atamalarining ruscha-o’zbekcha qisqacha lug’ati.-Toshkent, 1993; N.Mahkamov va boshqalar. Ish yuritish atamalarining ruscha-o’zbekcha qisqacha lug’ati. - Toshkent, 1994; R.Doniyorov, L.Ramazonova. Ijtimoiy-siyosiy atamalarning ruscha-o’zbekcha qisqacha lug’ati.-Toshkent, 1994 va boshqalar.

Shuni aytish kerakki, tilda an’anaviy tarzda qadimdan saqlanib kelayotgan iqtisodiy atamalar bilan zamonaviy iqtisodiy terminlar o’rtasida juda katta farq bor. Qadimgi iqtisod atamalarning miqdori ancha cheklangan bo’lsa, hozirgi yangi davr, ya’ni bozor iqtisodiga o’tish davrida iqtisod terminlariga ehtiyoj ortishi munosabati bilan iqtisod terminlar beqiyos boyib bormoqda.

O’zbek tilining iqtisodiy terminlarini ham to’plash, sistemalashtirish, ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etish va shu asosda bu terminologik tizimni imkon boricha tartibga solish zarurati tug’ildi.

Tayanch so’z va iboralar:

1. “Davlat tili”ning ma’nosini izohlang.
2. “Iqtisod tili”ning ma’nosini tushuntiring.
3. “Termin” nima?
4. “Atama”ning termindan farqini izohlang.
5. “Atamaqo’m” tashkiloti va uning vazifasi.
6. Terminlarning tildagi boshqa so’zlardan farqi.
7. O’zbek terminologiyasi bo’yicha yaratilgan ilmiy ishlar mualliflari.
8. “Iqtisodiyot”ning ma’nosini izohlang.
9. Iqtisodiyot terminologiyasi nima?
10. So’z va termin haqida tushuntirish bering.

Takrorlash uchun savollar:

1. Terminlar bo’yicha qilingan dastlabki ishlarning mualliflaridan kimlarni bilasiz?
2. Terminlar qanday so’zlar hisoblanadi?
3. Atama va terminning farqi nimada?
4. Iqtisodiy terminologiya nimalardan tashkil topadi?

3-mavzu: Iqtisodiyot terminologiyasining shakllanish tarixi

REJA:

1. Iqtisodiyot terminlarining taraqqiyot bosqichlari.

2. Iqtisodiyot terminologiyasining XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrdagi holati.

3. Iqtisodiyot terminologiyasining XX asrning 20-90 yillaridagi taraqqiyoti.

4. Iqtisodiyot terminologiyasining istiqloldan keyingi davrdagi taraqqiyoti.

Tabiat va jamiyatdagi har bir hodisa o'zining kelib chiqishi va rivojlanish tarixiga egadir. Shu boisdan muayyan tadqiqotda ma'lum bir voqea-hodisa o'rganilar ekan, u o'sha voqea-hodisaning tarixini, uning kelib chiqishini o'rganishdan boshlanadi. Binobarin, mazkur tatqiqotda ham uning asosini tashkil etuvchi iqtisodiyot terminologiyasini tahlil qilishga kirishilar ekan, avvalo uning shakllanish tarixiga nazar tashlab o'tish zarurati tug'iladi.

Ma'lumki, inson fikriy faoliyatining har qanday natijasi lisoniy belgida namoyon bo'ladi va mustahkamlanadi, ya'ni "so'zdan ayri holda mavjud bo'lgan yoki bo'la oladigan hech qanday o'y-fikr, jumladan tushuncha ham yo'q. Har qanday tushuncha so'zda yoki so'zlar guruhida qat'iylashadi, qayd etiladi, o'z moddiy ifodasini topadi, so'zlar topilmaguncha tushunchalar ham bo'lmaydi". Tirik mavjudotlarning oliy, eng yuqori vakili bo'lmish insonning ongli hayot kechira boshlashi qanchalik qadimiy davrga borib taqalsa, uning o'y-fikrlari natijasida yuzaga kelgan dastlabki tushunchalar, uning o'sha davrlardagi turmushda uchragan, unga bevosita aloqador narsa va mazkur tushunchalar, narsa va hodisalarni o'z bilganicha nomlagan, ya'ni ularni ma'lum so'zlar bilan atagan. Shu bilan birga, har bir xalqning tarixi u so'zlashadigan tilning tarixini ham ifodalab, har ikki tarix o'zaro bir-biriga bog'liq bo'ladi. Tilning o'z qatlamiga mansub so'zlar uning shakllanish davrida qanday narsalar muhim o'rin tutganini, tilning lug'at tarkibi esa xalq nima to'g'risida fikr yuritganini ko'rsatib turadi.

Boshqa tillarda bo’lganidek, o’zbek tilida ham xalqning turmushiga, ishlab chiqarish faoliyati, usuli atrof-muhit bilan munosabatiga qarab qadimdanoq xilma-xil lug’aviy qatlamlar tarkib topa boshlagan. Terminologlar, umuman, leksikologiya bilan shug’ullanuvchi olimlarning tadqiqotlaridan ma’lum bo’ladiki, inson turmush, kundalik faoliyati, bilan bevosita bog’liq bunday til birliklari va qadimiyligidan tashqari o’zining barqarorligi, turli lisoniy o’zgarishlarga moyil emasligi bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish qurollari, uy-ro’zg’or buyumlari, qarindosh-urug’chilik nomlari, tabiat hodisalarini ifodalovchi leksemalar shular jumlasidandir.

Iqtisodga oid terminlarni yuqoridagi qatlamlar qatoriga kiritmaslikning iloji yo’q, chunki inson insonligini tanib, birinchi navbatda “iqtisod” tushunchasiga duch kelgan. Aniqroq qilib aytganda, turmushning ertasini o’ylagan har bir kishi birinchi galda nimanidir topishni va uni g’amlashni, undan qay yo’sin bilan foydalanishni, uni tejab-tergashni o’ylagan va shu asosda ish yuritgan. Haqiqatan ham iqtisodni asosini ayni shu masalani hal qilish tashkil etishini yaxshi bilamiz. Shunday oddiy bir haqiqatni olib ko’raylik. Ikki inson, ya’ni erkak va ayol oila qurar ekan, birinchi navbatda, o’z turmushining farovon kechishini o’ylaydigina emas, tinib-tinchimay mehnat bilan shug’ullanadi, kelajakni, farzandlarining paydo bo’lishi, ularni tarbiyalab uy-joyli qilish haqida qayg’uradi, nihoyat, o’zining mehnat natijalarini bozor-o’char bilan bog’laydi va hokazo. Mana shu asnoda kishilar ongida “iqtisod” “iqtisodiyot” kabi tushunchalar shakllana boshlagan ediki, bularning barchasi hozirgi kunda fan sifatida tarkib topgan “iqtisodiyot”ning dastlabki kurtaklari edi.

Bu fan va amaliyotning shunday kurtaklari shakllana boshlagan ekan, demak ularni ifodalovchi til birliklari ham paydo bo’la boshlagan. To’g’ri, ma’lum vaqtgacha ekonomika (grekcha “ho’jalikni boshqarish”) ma’nosini ifodalovchi so’zidan hosil bo’lgan, hozirda esa arabcha iqtisodiyot deb atalayotgan amaliyot va maxsus fan qadimda o’zbek tilida qanday so’z bilan yuritilganligi haqida tegishli yozma manbalarning yo’qligi tufayli, bir narsa deya olmaymiz. Biroq hozirda mavjud bo’lgan ayrim manbalar asosida iqtisodiyotga oid qator terminlar qo’llab

kelinganligini dalillarga suyanib isbotlab berish mumkin (bu haqda quyiroqda batafsil fikr yuritamiz). Asta-sekin jamiyat taraqqiy eta boshlagan sari, boshqa sohalarda bo'lganidek, iqtisodiyotda ham yangidan-yangi qonuniyatlar kashf etila boshladi, iqtisodiyotni o'rgana boshlashga yo'l ochildi, pirovardida, hozirgi davrda hayotimizning, borlig'imizning asosini tashkil etgan tom ma'nodagi iqtisodiyot ro'yobga chiqdi. Bunday ekstralisoniy omillar iqtisodiyotning o'ziga xos terminologik tizimining qaror topishiga sabab bo'ldi. Demak, iqtisodiyot terminologiyasi hozirgi holatiga etib kelgunga qadar bir necha bosqichlarni bosib o'tdi.

1. Ta'kidlash kerakki, o'zbek tilining iqtisodiyot terminologiyasi hozirgi holatiga kelguncha murakkab shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Iqtisodiyot terminologiyasi haqida gap ketganda u asosan, bir-biridan sifat jihatidan farq qiluvchi uchta tarixiy bosqichni boshidan kechirgan, deb qat'iy ayta olamiz. Ular quyidagilardan iborat: 1. Iqtisodiyot terminologiyasining XX asrning boshlarigacha bo'lgan davrdagi holati. 2. Iqtisodiyot terminologiyasining XX asrning 20-90 yillardagi taraqqiyoti. 3. Iqtisodiyot terminologiyasining istiqloldan keyingi davrdagi taraqqiyoti..

Qayd etilganidek, qator terminologik tizimlarning, jumladan, iqtisodiyot terminlarining shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Bunga ishonch hosil qilish tarixiy yozma yodgorliklarga murojaat etishga to'g'ri keladi.

Shu nuqtai nazardan turkiylar lug'atchiligining asoschisi Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" lug'ati, inqilobgacha yaratilgan bir qancha lug'atlar, o'zbek adabiyoti vakillari, xususan Alisher Navoiy, Z. M. Bobur va boshqalarning badIIy, ilmiy-badIIy asarlari o'zbek iqtisodiy terminlarning rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutgan manbalar deb hisoblanishi mumkin.

O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasining rivojlanish tarixi haqida gap ketganda, birinchi galda, nomi jaxonga mashhur Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk"[1] asariga murojaat etish lozim. Chunki tengi yo'q bu lug'at turkiy xalqlar madaniy hayotida, xususan tilshunoslikda alohida ahamiyatga egadir.

[1] Qoshg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk. III tomlik. Toshkent. (bundan keyin qisqartirib "Devon" deb ataymiz).

Muhimi shundaki, muallif o’z asarida, yirik lug’atchi sifatida IX-X asr umumturkiy tilining lug’aviy boyligini to’laligicha namoyon etgan.

“Devon”ni ko’zdan kechirish shuni ko’rsatdiki, unda qo’llangan ba’zi iqtisodiyotga oid terminlar hozirgi o’zbek tilida ham (ayrim juz’iy fonetik o’zgarishlar bilan) qo’llanmoqda. Bularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: oldi-sotdi, savdo-sotiq.

Asarda o’z ifodasini topgan ba’zi leksemalar davr o’tishi bilan is’temoldan tushib, hozirda arxaizmga aylanib qolganligini ham qayd etish lozim bo’ladi. Bular jumlasiga quyidagilarni misol tariqasida keltiramiz:

oto’nch-qarz, III, 450; bergo’-qarz, I, 403;

o’ro’nch-pora, III, 451, og’ur-davlat, I, 87;

yjyz-jo’n, arzon baho, 88;

yomg’a-mollarni saqlovchi va ularni yig’uvchi (amaldor) I, 148;

sart-savdogar, 328;

terchi-muzd, ish haqi oluvchi, III, 394.

Keltirilgan dalillardan ijtimoiy-siyosiy hayotning, bilish jarayonining xilma-xil sohalariga oid ko’pdan-ko’p terminlarning qayd etilganligi va ulardan ayrimlarining ham o’sha davrdagi ma’nolari bilan qo’llanayotganligi ayon. Bundan ularning hozirgi kunlargacha etib kelishida turli davrlarda tuzilgan lug’atlarning ham ahamiyati beqiyos ekan degan xulosaga kelish qiyin emas. Iqtisodiy terminlar o’z ifodasini topgan lug’atlar jumlasiga yana quyidagilarni kiritish mumkin: “Bado’-’l-ul lug’at”, shayx Sulaymon Buxoriyning lug’ati, L. Budagov, V.V. Radlov tomonidan jonli turkiy tillar va lahjalar hamda turkiy yozma yodgorliklar materiallaridan foydalanib tuzilgan lug’atlar va boshqalar.

O’zbek tilida hozirda ham keng ishlatib kelinayotgan qator iqtisodiy terminlar qayd etilgan yana bir muhim manba borki, bu moziyda ijod qilgan shoir va yozuvchilarimizning asarlaridir. Jumladan, Yu.X.Hojib, Alisher Navoiy, Bobur, Muqimiy, Furqat, Ogahiy asarlarida o’z va ko’chma ma’nolarida qo’llangan yuzlab iqtisodiy terminlar o’z ifodasini topgan.

Alohida ta’kidlash lozimki, Alisher Navoyidek buyuk shaxs turmushning, hayotning barcha ikir-chikirlarini juda yaxshi bilgan. Shu boisdan uning asarlarida juda ko’plab iqtisodiyotga oid terminlar ham ishlatilgan. Ularning ko’pi davr taqozosi, hayotni real aks ettirish, boshqalari esa, badIIy maqsadlar taqozosi bilan qo’llangan.

Jumladan, o’zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy ilmiy yoki badIIy asarlarida ko’plab asli o’zbekcha (ko’pi umumturkiy) iqtisodiy terminlar ishlatilganligining guvohi bo’la olamiz.

Shu bilan birga Alisher Navoiy asarlarida faqat umuturkiy iqtisodiy atamalar qo’llanib qolmay, ularni arabcha, fors, tojikcha sinonimlari o’z ifodasini topganki, quyida keltiriladigan misollar shundan shundan dalolat beradi: *savdopisha-savdogar-savdogarchilik* (III,8); *sarmoya-davlat-mablag’* (III,51); *bay’ona-baho, qiymat, bay puli* (1, 198); *manfaat-foyda-daromad* (II,227**);** *boj-xiroj* (I,306); *dastmoya-farmoya-naqd-pul-naqdina* (II,184); *narx-baho* (II,433**);** *nafaqa-maosh-xarajat* (II,438) va boshqalar.

Zero, xalqlarning iqtisodiy va madaniy aloqalari hayotiy zaruriyat bo’lgani tufayli shu jarayonda bir tildan ikkinchi tilga leksemalar o’tib turadi. Har bir tilning lug’aviy tarkibida etimologik jihatdan shu tilning o’ziniki bo’lgan so’zlardan tashqari, o’zga tillarning lug’aviy unsurlari bo’lishi tabIIydir.

Zero, Alisher Navoiy asarlarida arabcha va fors-tojikcha lug’aviy birliklarning ko’plab qo’llanishining qator ob’ektiv sabablar bilan bog’liq ekanligi ayrim tadqiqotlarda ta’kidlangan.

Ulardan ma’lum bo’lishicha, o’zbek tilida o’zlashma qatlamning o’ziga xos xususiyatlari aks eta boshlagan. Bunday qatlamlardan tashkil topgan sinonimiya shular jumlasidandir. Fikrimizni iqtisodiyotga oid quyidagi sinonimik qatorlar tasdiqlay oladi: *ahdnoma-shartnoma, narx-baho, sarmoya-daromat-boylik-mablag’, dastmuzd-maosh, savdogar-tojir, bozurgon-savdogar, ammol-soliqgir, naqd-pul, boylik naqda-naqd, tilla, mablag’-naqd-naqdina.* Dalil tariqasida yana misollarga, ya’ni matnli manbalarga murojaat etamizki, bunday iqtisodiy lug’aviy

birliklar keng qo’llanganligini tasdiqlaydi: Bir qatla Amir Kofur degan bir mablag’ vajh shayx Abdulloh jonporaga yibordi (Nasoyimul-muhabbat, XU-87).

Naqdi jonu xirmai umrumni sarf ettim valek,
Ul sanam qoni’ emas bu mablag’u miqdorg’a
(Xazoyinul-maoniy, IY b-575).

Orzu aylab necha non naqdini,
Tark etasen javhari jon naqdini.
(Hayratul-abror 80-20).

Xudfurush o’ldi ul oy, oyo qayondin topqamen,
Onikim qildi muayyan Yusufi Kan’ong’a narx.
(Xazoyinul maoniy, IY b-116).

Ma’lumki, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o’zbek tiliga rus tilidan va rus tili orqali Evropa tillaridan so’z va terminlar kirib kela boshladi. O’zbek tili leksikasidagi bunday o’zgarish O’rta Osiyoning chor Rossiyasiga qo’shib olinishi natijasida mamlakat hayotida yuz bergan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar bilan bog’liq edi.

Asrlar mobaynida arab-fors-tojik tillari o’zbek tili leksikasining taraqqiyot boyishida o’z o’rnini egallab kelgan bo’lsa, qayd etilgan davrdan boshlab bu rolni rus tili o’ynay boshladi.

TabIIyki, ob’ektiv va sub’ektiv sabablarga ko’ra o’zbek tili leksikasi rus tili orqali qabul qilingan o’zlashmalar hisobiga ko’paya bordi. Rus tilining o’zbek tili leksikasi taraqqiyotiga ta’siri bu tildan faqat so’zlar olishdangina iborat bo’lmay, lug’at boyligining oshishiga, so’z yasashning ayrim jihatlariga va semantik tizimining kengayishiga ham ta’sir ko’rsatdi.

Davr taqozosi bilan o’zbek tiliga iqtisodiyot terminlari ham o’zlashtirila boshlandi.

Chunonchi, o’sha davr matbuotida qo’llangan iqtisodiyotga oid ba’zi terminlar hozirgi o’zbek tilida ham (ba’zi juz’iy fonetik o’zgarishlar bilan) qo’llanmoqda: veksil-veksel; -veksil kag’az- beksil rus. “veksel”-veksel.

Rubao’ beksilu tanzil ichida nangu nam olmas, Shariat, ham tariqat ishlarig’a ixtekom olmas. (Nodim, DN, 50l); O’TLT,50.

-blanka qag’az -bulanka, rus “blank” blank-blank.

Ikki adad veksel bulankasig’a qol qoyo’bdur (TVG, 1902,17); O’TLT, 43, priskurant-preyskurant rus. Presskurant-preyskurant. Ul magazinlar har kun tort marataba priskuraet chiqarur ekanlar (TVG,1913,32); O’TLT, 190; kridit-kredit rus. “kridit”-kridit. Ez nalig’a kridit achsa kerak (TVG, 1894, 42) O’TLT,120; budjet-byudjet; -rus. “byudjet”-byudjet. Budjet kamissiyasi (s.Farg’., 1914,31) O’TLT,45; tavar-tovar, -tavar <rus “tovar”-tovar, mol, gazlama.

Mazkur yarmanka va gazlama tavarning xaridorlari otgan yilg’a qiyas qilg’anda azgina qiyas qilg’anda azgina bolubdur (TVG, 189); O’TLT 225; boxgalter-buxgalter; -buxg’altir rus “buxgalter”-buxgalter. Bu masalani padshahlik bankasining bogaltirlari ham hal qilaalmaslar (s.Turk., 1914,I) Buxg’altir Asuluf (SAD. 36, 67) O’TLT, 45; banka-bank, banka
-turk banik-bank-bankaxona-bankaxona-rus “bank”-bank. Va yainki padshahlik axcha turadurg’an kotta banka degan mahkamaga yubarsa kerak (TVG , 1875, 9). O’TLT, 36: berja-birja-berja rus “birja”-birja. Buxara shahrida berja bina qilinganda bizlarni Buxara savdogarlari, qanday ittifoq birlan qildilar (TVG, 1913, 15). O’TLT: 12.

Ba’zi iqtisodiyotga oid terminlar aynan; (hech o’zgarishsiz) qo’llanmoqda. kassir-kassir; rus “kassir”-kassir-kassir.

Kassirning pamoshnigi g’ayib bolub qachubdur (TVG, 1906, 16,) O’TLT, ... avans-avans.-rus “avans” avans. Yo’q ming publarg’a qadar avans peshaki aqchag’a satub qoyub, vaqtida yetkuralmasdin... (S.Farg’. 1914,22). O’TLT, 18.

Makler-makler. Rus. “makler”-dallol.

Yaman niyatlik makler (dallol)lar Rusiya mamlakatiga tobe musulmaniya fuqaralar arasig’a xavflik xabarlar tarqatadurlar (TVG, 1908,62) O’TLT, 130.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida qo'llangan iqtisodiy birikma terminlar hozirgi o'zbek tilida ham (ba'zi juz'iy o'zgarishlar bilan) qo'llanmoqda ba'zilari esa tarjima qilingan holda qo'llanmoqda: *kommirchiski banka-kommercheskiy bank.*

-rus "kommercheskiy banki tijorat banki. Kommircheski bankadagi... tukushchoy ischodig'a... musulman kamiteti uchun xat va xabar unvani (oyina, 1915,P, 302) O'TLT, 105.

padaxodniy nalug'-daromad solig'i. "Padoxodniy nalog"-daromad solig'i. "Padaxodniy nalug'"... yilda ming somdan artuq madaxili bolsa shu adamg'a maxsus maliyat salinur (Oyina), 1913. O'TLT, 164; bankavay bilat-bank bileti.

Rus. "bankoviy bilet"-bank bileti.

Fayda kelturadurg'an qag'azlar, ya!!ni bankavay bilatlar (TVG, 1885,49). O'TLT,67;

ssudnoy kassa-qarzdor kassa (qarz beruvchi kassa).

... ssudniy kassa degan mazkur uyezdag'i fuqaralarg'a qarzg'a beriladurgan pul turaturg'an xazinadur (TVG, 1889,9) O'TLT, 222;

sbirigatelniy daftarcha-omonat daftarchasi.

Rus. "sberegatelnaya knijka"-omonat kassa daftarchasi.

Mazkur sanduqni achib qarasalar bir adad besh somlik qag'az birlan on bir adad sbirgatelnay daftarcha bar ekan (TVG, 1913,57) O'TLT, 213.

Ba'zi ruscha iqtisodiy terminlarga qo'shimchalar qo'shish orqali ham yangi terminlar yasalgan:

Padratchik-pudratchi

Pudratchik-pudratchik padratchik -rus (esk.).

"Podryadchik"-pudratchi.

Tashkandlik padratchini ayalg'a qilg'an taaruzini yazadur (Oyina, 1913,28);

kassirlik-kassirlik O'TLT, 115;

Kasaxana-kassaxona, O'TLT, III;

boxgaltirlik-buxgalterlik-rus. "professiya

buxgaltera"-buxgalterlik.

Boxgaltirlik hisabi ilmi tijarat bila turkiy boxgalterlik hisobi yuritirgan adam baylarimizga kerak (Sam. 1913,26), O'TLT,45.

Boxgalteriya-buxgalteriya.

Umuman bizning xalq boxgalteriya ilmig'a oshnalikdan uzaqdadurlar (S.Farg'., 1914, 8) O'TLT,45.

XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida qo'llangan terminlar hozirgi o'zbek tilida ham aynan (ba'zi juz'iy o'zgarishlar bilan) qo'llanmoqda:

tijaratxana-tijoratxona.

Tijaratxana va banklar . . . kerak (Oyina, 1613,7,155)

bajxana-bojxona . . . jadda bajxanasida . . . vaqe bolar edi (Oyina, 1913, 485)

hisobnama-hisobnoma

Bir mudarris otgan yilda gimnaziyaning ahvoli xususida hisabnamani oqudi (TVG, 1887, 29).

hissadar- hissachi-hissador.

Daxila va xarijada bazzaklik mallar ila tijarat qilaturg'an hissadorlar shirkatining idarasi (Oyin, 1913).

Taftishchi-taftishchi.

Men bul ishda boshqa taftishchilar yubarmang'a qarshi turaman (Turon, 1917, II).

qiymat-qiymat.

Rus manati (qag'az puli)ning qiymati kundan-kun tushib tanazzul etmaqdadur (Hur., 1913,3).

Sig'urta-sug'urta.

Istiraxavoy (sug'urta) qilmoq masalasi (Sam. 1913, 4).

Keltirilgan dalillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasining XX asr boshlarigacha bo'lgan shakllanish va rivojlanishi bu bosqichida muayyan bir tizim holiga kelgan, biror aniq tartibga tushirilgan terminologiya bo'lmasa-da, xalq nutqida yoki yozma manbalarda qo'llanib kelingan, bunday terminlardan foydalanilgan. Bunday terminlardan ayrimlari hozirgacha yashab kelayotganligi tojiklar, arablar, forslar, o'zbek hamda boshqa turkiy xalqlarning iqtisodiy-madaniy aloqalari vositasida og'zaki hamda yozma

tilning uzoq va murakkab rivojlanish mahsulidir. Xalq tili asosida tarkib topgan bu xildagi leksemalarning qo'llanishi XX asrning 20-yillari o'rtalarigacha, ya'ni O'zbekiston oliy maktablarida iqtisod fani o'qila boshlagunga qadar davom etib keldi.

Asrimizning 20-yillari va 30-yillarining boshlarida hozirgi o'zbek tili leksikasi va terminologiyasi hamda imlosining nazariy asoslarini ishlashga kirishila boshlaganligini uqtirib o'tish lozim bo'ladi. Muhimi shundaki, bu davrda yangi sho'ro maktablariga mo'ljallangan darslik va qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Bu borada prof. Abdurauf Fitrat boshchiligidagi "Chig'atoy gurungi" to'garagi, keyinchalik uning ishtirokchilari asosida O'zmaorifko'm (Uznarkompros) qoshida tuzilgan. O'zbek bilim xay'ati, o'zbek yangi alifbo markaziy qo'mitasi singari tashkilotlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Mazkur uyushma va tashkilotlarda faoliyat ko'rsatgan qator ma'rifatparvarlarning g'ayratu tashabbuslari natijasida asosiy fan sohalari bo'yicha qator darsliklar, o'quv qo'llanmalari, terminologik lug'atlar maydonga kela boshladi.

O'z olimlarimizning o'zbek tiliga o'ziga xos risola va darsliklar yaratishi, boshqa (asosan rus) tillardan tarjima qilishi, turli sohalar bo'yicha terminologik lug'atlarning yaratilishi o'zbek tilida turli fan sohalariga oid terminologik tizimlarning yanada rivojlana boshlashiga sabab bo'ldi. O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasi ham yangi bosqichida ayni shu yo'lni bosib o'tdi. Lekin shuni aytib o'tish kerakki, iqtisod fani bo'yicha o'zbek tilida oliy o'quv yurtlari 60-yillargacha faqatgina tarjima darsliklardan foydalanib kelingan edi.

Asrimizning 30-40-yillari va 50-yillarning birinchi yarmida o'zbek iqtisodiyot terminologiyasi, asosan, rus tilidan tarjima qilingan iqtisod darsliklari va qo'llanmalarining tili asosida tarkib topa boshladi. Shu bilan birga, ushbu soha terminologiyasida yuzaga kelgan ba'zi kamchilik va nuqsonlar ham yuqorida aytib o'tilgan barqarorlikka mos ravishda tuzatila bordi.

50-yillarning ikkinchi yarmidan iqtisodiyot terminologiyasi rivojlanishida yangi davr boshlandi. Bu davr iqtisod fani bilimdonlarining iqtisod fanini tartibga solish borasidagi ishlarini kuchaytirish, o'zbek tili so'z yasash vositalarining

faollashuvi, yangi-yangi terminlar yasalishi va iste'molga kirib kelishi bilan xarakterlanadi.

Albatta, bu rivojlanish jarayonining o'ziga xos sabablari bor.

Xususan, iqtisod sohasida ona tili bazasida mustaqil ravishda darslik, qo'llanma va lug'atlar yarata oladigan, soha terminlarini tartibga solish bilan shug'ullana oladigan mahalliy kadrlarni etishtirish muhim vazifa bo'lib qoldi. Bunday chora-tadbirlar tufayli O'zbekistonda iqtisod fani va iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish, iqtisod fanini o'qitish sifatini oshirish imkoniyati yaratildi. Natijada iqtisod yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari uchun tarjima darsliklari bilan bir qatorda o'z (o'zbek) mualliflari mustaqil ravishda yaratgan iqtisod darsliklari, qo'llanmalari hamda bir qator terminologik lug'atlar yuzaga keldi[1] .

Bu darslik va lug'atlar o'zbek iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish hamda uning yanada ixchamlashuvi uchun katta zamin bo'lib xizmat qildi.

Hozirgi davr, ya'ni 90-yillar bozor iqtisodiyoti va shu munosabat bilan o'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasining muayyan taraqqiyot va takomillashuvi bosqichi bo'lib qoldi.

Xo'sh, bozor iqtisodiyoti nima? Dunyoning aksariyat mamlakatlarida bozor iqtisodiyoti asosida ish yuritiladi. Bozor hamma joyda sotuvchi bilan xaridor o'rtasidagi munosabatlarni yuzaga chiqaruvchi makondir. Bozor hozirgi ma'nosida erkin iqtisodiyot degan tushunchani anglatadi. Darhaqiqat, iqtisodiyot taraqqiyotida ixtiyoriylik bo'lmasa, uning ob'ektivligi yo'qoladi. Ozod iqtisodiyotda esa raqobat hukmronligi mustahkamlanib boradi. Biz bozor iqtisodiyoti tomon ilk qadam qo'ydik. Biz bozor iqtisodiyotiga o'tish davriga endigina kirib borayapmiz.

Bozor iqtisodiyoti katta qiyinchiliklar bilan o'ziga yo'l ochayotir. Hozir jamoatchilik orasida bozor munosabati masalalarini o'rganishga qiziqish kattadir.

[1] Ro'ziev F. - Mustaqillikning iqtisodiy asoslari, T., 1991, Niyozov N.H. Iqtisodiyot va bozor. -T., 1992, To'xliev N., O'lmasov A. - Ishbilarmonlar lug'ati, T., 1993, To'xliev N. - O'zbekiston iqtisodiyoti, - T., 1994, Qodirov A., Turg'unov U., Tursunov A. - Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma, Nukus,1993. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M., Iqtisodiyot nazariyasi, T., 1995. Soliev A., Xo'jaxonov X., - Noishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) sohalari iqtisodi, buxgalteriya hisobi va audit, O'quv qo'llanma, T., 1999. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti, T., 2001.

Ana shularni hisobga olib, turli darsliklar, o’quv qo’llanmalar, lug’atlar yangidan yozildi va yozilmoqda .

Hozirgi davr o’zbek iqtisodiyoti terminologiyasi muayyan taraqqiyot va takomillashuv yo’lini bosib o’tayotgan bo’lishiga qaramay, ynda hamon hal qilinmagan qator masalalar bor.

Terminologiya sohasidagi sinonimiya, ayrim terminlar qo’llanishdagi har xilliklar, ba’zan imloviy qoidaga rioya qilmaslik kabilar ana shu hal etilmayotgan masalalar qatoriga kiradiki, bular xaqida tegishli sahifalarida to’xtab o’tamiz.

Terminologik tizimlarning shakllanishi va qaror topishi sohasidagi kuzatishlardan shunday holat ayon bo’ladiki, o’zbek iqtisodiyot terminologiyasi ham, asosan, ikki manba: o’zbek tilining ichki imkoniyatlari va xorijiy tillar unsurlari (so’z va so’z birikmalari) asosida rivojlanib va boyib borgan. Bu manbaning birinchisi asli o’zbekcha (ba’zilari umumturkiy) tub leksik qatlam, o’zbek tilida qadimda iste’molda bo’lgan yoki iqtisod sohasida yangi tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qilgan lug’aviy birliklar hamda ular asosida ona tilining so’z yasovchi vositalari bilan yangidan hosil qilingan terminlar hisoblanadi. Ikkinchisi, o’zga tillar, aniqrog’i, fors-tojik arab va rus tilidan o’zlashtirilgan qatlamdir.

Iqtisodiyot terminologiyasini, umuman boshqa soha terminologiyalarini ham boyitishda ona tili imkoniyatlaridan foydalanish haqida gap ketganda quyidagi uch holatga e’tibor berish zarur bo’ladi: 1. Muayyan bir tilda, shuningdek, o’zbek tilida ham iqtisodga oid tushunchalarni aniq ifodalovchi qator leksemalar qadim-qadimdan qo’llab kelinmoqda. O’zbek adabiy tili boyligining bir qismi o’laroq, bunday so’zlar keyinroq, konkret terminologik tizim vujudga kela boshlashi bilan iqtisod fanining maxsus tushunchalarini ifodalash uchun jalb qilina boshlangan edi. Masalan, *haq, bitim, pay, garov, dallol, pul, so’m, sug’urta, savdo, omonat, g’amlama* va boshqalar.

2. Iqtisodiyot bilan aloqasi bo’lmagan, boshqa-boshqa sohalarda qo’llanadigan terminlar ham maxsuslashtiriladi, ya’ni iqtisodiy terminlar sifatida ishlatiladi. Masalan, *taklif, soxibkor, o’sim, qoldiq, daraja, palata, kadrli, etakchi,*

yig'im, qonun, qaydnoma, baho, xo'jalik kabi yuzlab leksemalar iqtisodiy terminologik tizimida yakka holida ham, so'z birikmalarining tarkibiy qismlari sifatida ham ushbu soha terminlari sifatida amal qilinaveradi.

3. Iqtisodiyot terminologiyasining boyishidagi yana bir manba, bu iqtisodiy tushunchalarni ifodalash uchun xilma-xil affikslar ishtirokida hosil qilingan yasama lug'aviy birliklar hisoblanadi: *jamg'arma, ijarachi, ishsizlik, uyushma, tejamkor, iqtisodiyot, tadbirkor, bojxona, qarzdor, boylik* kabilar shular jumlasidandir. Bunday terminlarning bir qismi tegishli ruscha-baynalmilal muqobillarining o'zbek tilidagi kalkasi sifatida yuzaga kelgan.

Hozirgi o'zbek tili lug'at tarkibida, uning iqtisodiy terminlar tizimida yuqoridagidek umumturkiy, o'zbek terminlari bilan bir qatorda fors-tojikcha, arabcha, shuningdek, ruscha-baynalmilal leksemalar ham qo'llanib kelinayotir. Masalan, *sarmoya, savdogar, tojir, sarkor, daromad, dastmoya,* kabi fors-tojikcha so'zlar asosiy iqtisodiy terminlar bo'lib qo'llanmoqda.

O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasini ruscha-baynalmilal terminlar hisobiga to'ldirilishi haqida gap ketganda shuni aytish kerakki, rus tili leksikasi imperiya davrida mahalliy tillarga, xususan, o'zbek tiliga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Masalan, *veksel, preyskursant, kredit, tovar, buxgalter, bank, kassir, avans, makler* va boshqalar.

Tayanch so'z va iboralar:

1. Iqtisod
2. Ekonomika
3. Oldi-sotdi
4. Nafaqa-maosh so'zlarining farqi nimada?
5. Narx, savdogar, pul, sarmoya so'zlarining qadimgi sinonimlari
6. Byudjet nima?
7. Kredit nima?
8. Bank nima?
9. Soliq nima?

10. Buxgalter so’zining ma’nosi?
11. Sug’urta nima?
12. Bitim so’zining ma’nosi
13. Dallol kim?
14. Pay so’zini tushuntiring

Takrorlash uchun savollar:

1. Iqtisodning dastlabki ko’rinishi qanday bo’lgan?
2. “Devonu lug’otit turk” dagi iqtisodiy terminlarni bilasizmi?
3. Alisher Navoiyning iqtisodiy terminlarga munosabati qanday bo’lgan?
4. Iqtisodiy terminlarni aks ettiruvchi qanday turkiy manbalar bor?
5. Rus tili orqali o’zlashgan iqtisodiy terminlar hozir ham qo’llaniladimi?
6. 20-80-yillarda o’zbek iqtisodiy terminologiyasini holati qanday bo’lgan?
7. Iqtisodiyot terminologiyasini hozirgi ahvoli qanday baholanayapti?
8. O’zbek iqtisodiy terminologiyasining taraqqiyot bosqichlari nechta?
9. O’zbek allomalari qanday iqtisodiy terminlardan foydalanishgan?

4-mavzu: Iqtisodiyot terminologiyasining boyish manbalari

REJA:

1. **O’zbek tili iqtisodiyot terminologiyasining ikki manba asosida rivojlanishi.**
2. **Iqtisodiy terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.**
3. **Iqtisodiyot terminologiyasining sintaktik usulda yasalishi.**
4. **Iqtisodiy terminlarning semantik usulda yasalishi**

O’zbek tili iqtisodiyot terminologiyasi, boshqa terminologik tizimlar kabi, ikki manba, ya’ni ichki va tashqi manbalar asosida rivojlanadi va takomillashadi.

Alohida qayd etish lozimki, o’zbek tili terminologik tizimlarining rivojlanishida shu tilning ichki imkoniyatlari asosida rol o’ynaydi. Chunki, adabiy til leksikasi boyishining birinchi va eng muhim manbai uning o’z ichki resurslaridir.

Bu fikr bevosita o’zbek tili iqtisodiyot terminologiyasiga ham taaluqlidir.

Terminologik tizimlarning boyish yo’llari har xil bo’lib, uning asosiysi so’z yasashdir. So’z yasash, umuman, qanday usul, qanday vosita orqali amalga oshirilmasin, yangi so’z hosil qilishdan iboratdir.

Umumadabiy tildagidan farqli o’laroq, terminlarning yasalishida, asosan, quyidagi uch xil usuldan foydalaniladi.

1. semantik (semantik-sintaktik);
2. morfologik;
3. sintaktik.

Quyida ularning har biri xususida alohida-alohida so’z yuritiladi.

O’zbek tilshunosligida so’z ma’nosining o’zgarishi, ma’noning ko’chishi, polisemantik so’zlarning ba’zi ma’nolari orasidagi bog’lanish uzilib, ayrimlarining

maxsuslanishi orqali yangi so’zning hosil bo’lishi semantik yoki leksik-semantik yo’l bilan yasash deb yuritiladi.

Mazkur ma’ruzada “semantik-sintaktik” usul bilan yasash terminini qo’llashni lozim, deb topdik.

Ma’lumki, tilda so’zlarning ma’nolari har xil usullar bilan ko’chishi mumkin. Chunonchi, so’z semantikasidagi o’zgarish, asosan, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi semantik transformatsiya asosida ro’y beradi. Tilshunoslarning yakdillik bilan bildirgan fikrlariga qaraganda, semantik usul bilan termin hosil qilishda asosiy rolni metafor o’ynaydi. Chunki umumadabiy yoki jonli tildagi so’zlarning biror xususiyatini, masalan, shaklan o’xshashligini, rang-tusidagi bir xillikni asos qilib olish yo’li bilan yangi-yangi terminlar vujudga keladi.

O’zbek tili iqtisodiy terminlarning semantik yoxud semantik-sintaktik usul bilan yasalishi sof o’zbekcha yoki o’zbek tilida avvaldan ishlatilib kelingan arabcha va fors-tojikcha so’zlarni yangi, iqtisodiy ma’noda qo’llashdan iboratdir.

O’zbek tilida nashr etilgan iqtisodga oid darsliklar, o’quv qo’llanmalar, terminologik hamda izohli lug’atlar va boshqa manbalardan to’plangan misollarni tahlil qilib chiqib, o’zbek tili leksikasining qator qatlamlaridan olingan leksik birliklar iqtisodiy terminlarga aylanganligining guvohi bo’lamiz. Bu o’rinda mazkur so’zlarning ma’nosi o’zgargan yoki ko’chma ma’noda qo’llangan. Masalan: *yig’ma ko’rsatkich, amaliy boylik, qarz o’simi, o’tma so’m, kreditning elastikligi, undirilgan pul, unumsiz mehnat, pul muomalasi, kapital sig’imi, ochiq daromad, o’rmalovchi inflyatsiya, shiddatli inflyatsiya, o’rinbosar tovarlar, ko’lankali iqtisod, bo’g’iq inflyatsiya, pul massasi, bozor muvozanati, pinxoniy bozor, moliyaviy mexanizm, shubhali kredit* va boshqalar.

O’zbek iqtisodiy terminlarning ma’lum qismini tashkil qiluvchi bunday birikma terminlar boshqa sohalarda bo’lganidek, tushunchalarni mantiqan to’g’ri, mazmunan va grammatik jihatdan to’g’ri ifodalashda birikmaning semantik transformatsiyaga uchragan ikkinchi qismining ahamiyati kattadir.

Grammatik nuqtai nazardan yondoshilganda mazkur terminlar qaratqichli konstruktsiyasidan iborat ekanligi sezilib turadi. Bunday “qurilmalarda” butunning bo’lagi ma’nosi anglashilishi D.S.Lotte tomonidan alohida qayd qilingan edi.

To’plangan materiallardan shu narsa ayon bo’ldiki, iqtisodiyot terminologiyasida butun nomini anglatuvchi terminlarga qaraganda, uning qismlarini anglatuvchi terminlar kamroq ekan.

Masalan: *to’g’ri soliqlar, egri soliqlar, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar va boshqalar... agar sotiladigan tovarlarga soliq olinadigan bo’lsa, bunday soliqlar egri soliqlar deb yuritiladi* (SI, 218). *Bilvosita soliqlar-tovar, mol-mulkni narxidan qimmatga ustiga qo’yib sotish yordamida davlat xazinasiga kelib tushadigan daromaddir* (Iq.n. 1993).

Ma’lumki, muayyan terminologik tizim yoxud umumiste’moldagi ma’nosi ko’chirilgan leksemalar boshqa sohaning “mulki”ga aylanar ekan yakka holatda ham, ma’lum so’zlar qurshovida (ya’ni birikma tarkibida) ham shu sohaga doir tushunchalarni ifodalay oladi. Masalan, shunday bir tushunchani olib ko’raylik: *“qimmatbaho qog’ozlar, valyuta, tovar narxining pasayishidan foydalanuvchi birja chayqovchilari”* (IL,6). Bu tushuncha iqtisodchilar tilida ayiqlar deb ataladi

O’zbek tilida etuk so’zidan etuklik yasalgan. Bu “jismoniy jihatdan to’la rivojlanganlik, kamolatga etganlik, bilimli, ilmlilik” ma’nolarini anglatadi. Iqtisodiyotda esa etuklik maxsus termin sifatida quyidagi defirinitsiyaga ega: “Tovarni sotish sur’atlarining asta-sekin pasayish davri” (IL) To’g’ri, bu kabi terminlar kam miqdorni tashkil etadi. Biroq, iqtisodiyot terminologiyasida semantik-sintaktik usul bilan yasalgan, ya’ni birikma terminlar tez-tez qo’llanib turilishi mumkinligini tasdiqlovchi o’nlab dalillarga egamiz. Fikrimizning tasdig’i uchun ayrim misollarga murojaat etamiz.

Biror komponenti boshqa sohaning “mulki” bo’lgan leksema, obrazli qilib aytganda, “etti uxlab tushga kirmaydigan” so’zlardan ham iborat bo’lishi mumkin. “Ona jamiyat nazoratida bo’lgan, bosh aktsionerlik korxonasining shoxobchasi”. “Ishbilarmon lug’ati”dan olingan bu definitsiya *qiz jamiyat* deb atalgan. Ko’rinadiki, iqtisodiyotda, birinchidan *ona jamiyat*, ikkinchidan *qiz jamiyat*

terminlari mavjud bo'lib, uning *ona va qiz* leksemalari bu fanga va amaliyotga mutlaqo aloqador emas. Shu bilan birga, bu birikmalar o'ziga tegishli leksemalar qurshovida, ya'ni birikmalar tarkibida iqtisodiy mazmun kasb etgan. Bunday o'ziga xos "ajib" birikma terminlar jumlasiga yana *tavakkal kapital, suzuvchi protsent, oltin qamal, valyuta qamali, qalqon kredit, iqtisodiy dastak* kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Quyidagi misolga ham e'tibor beraylik: "...Pinxoniy bozor deganda qonunchilik tomonidan taqiqlangan tovar va xizmatlar bilan oldi-sotdi qilish yoki faoliyat bilan shug'ullanish tushuniladi" (BINA. 22-b). "To'yingan bozor" ya'ni tovarlar talabga etarli bo'lgan bozor (BINA,14-b). Shubxali kreditlar deb 3 to'lov davrida foiz yig'indisi to'lanmagan va 1 marta asosiy qarz yig'indisi to'lanmagan kreditlarga aytiladi (Kredit, 101-b).

Shunday qilib, to'plangan materiallarni tahlil qilish natijasida metaforik o'xshatish asosida semantik-sintaktik usulda termin yasashning ko'lami kengroq ekanligi ayon bo'ldi. Bu jarayonda o'zbek tilining quyidagi leksik qatlamlari, aniqroq qilib aytganda, terminologik tizimlarining "boyligi"dan foydalanib kelinmoqda, ya'ni ular boshqa leksemalar qurshovida iqtisodiyot terminologiyasining "mulki"ga aylanib qolmoqda:

1. Matematik terminlar iqtisod termini vazifasini bajarib kelishi mumkin: Masalan: *chorak reja, normativ qiymat, differentsial renta, yig'ma ko'rsatkich, ish haqi darajasi, daromadning qoldig'i, iqtisodiy integratsiya, bozor hajmi, nisbiy daraja, narx darajasi, foyda miqdori, qiymat o'lchovi, bo'linma, qiymat solig'i;*

2. Yana misollar keltiramiz: *Bank va mijoz tomonidan belgilanadigan garov qiymati shu mulkning balans qiymatidan farq qilishi mumkin* (Mulkdor, 26, 1997). *Iqtisodiyot bir maromda, muttasil rivojlanib borishi uchun I bo'linma mahsuloti resurs bozoridagi talabga, II bo'linma mahsuloti tovar bozoridagi talabga mos bo'lishi mumkin* **(**Iq. naz. 396.) *Qoplash koeffitsenti-barcha likvidli mablag'larning qanchalik darajada qisqa muddatli majburiyatlarning jami yig'indisini qoplay olishini ko'rsatadi* (Kredit, 62-b.) *Bank mijozning*

arizasida ko'rsatilgan kredit yig'indisining asoslanganligini tekshirishi shart (Kredit, 67-b.)

3. Texnika vositalari va ularning qismlari hamda atributlarini anglatuvchi terminlar. Masalan: *amortizatsiya fondi, mashinalashgan hisob, kreditning elastikligi, talabning egiluvchanligi, bozor mexanizmi. Moliyaviy mexanizm har bir soha va bo'g'inlar bir butun yaxlitlikning tarkibiy qismi hisoblanadi* (Moliya, 27-b). *Tezkor birjalar ko'pincha birjadagi tovarning bozor baholari o'zgarishi natijasida ko'riladi* (H.II, 91,5-b). *Moliya vositalaridagi yana biri emirilish (amortizatsiya) fondidir* (I.B., 82).

4. Fizikaviy terminlar bilan aloqador so'zlar iqtisod termini vazifasini bajarib kelishi mumkin. Masalan: *bozor muvozanati, mehnat sig'imi, kapital sig'im, nisbiy daraja, pul massasi, tebranuvchi talab, o'zgaruvchan xarajat, doimiy xarajat, o'zgaruvchan narx, mutloq daraja, talabning egiluvchanligi, fond sig'imi.*

5. Yana misollarga murojaat qilamiz: *Talabning miqdor darajasini bahoning o'zgarishiga javoban o'zgarishi talabni egiluvchanligini xarakterlaydi* (Iq. N. 78). *. . . bozordagi talab va taklif nafaqat miqdori, balki o'zining tarkibi jihatidan ham bir-biriga mos kelishi kerak va shundagina bozor muvozanatiga erishiladi* (Iq.N.78). *Iqtisodiyotda narxlar muvozanati yoki nisbat degan xodisa bor* (IN, 312). *Narxlar nisbati unga ta'sir etuvchi omillarning har xil amal qilishidan kelib chiqadi* (IN, 313). *Nisbiy daraja-bu narxning xarid qobiliyatiga nisbati, aniqrog'i undagi hissasidir* (IN,313). *Pul massasi bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozordagi bahosini belgilaydi* (BIA, 220-b).

6. Qishloq ho'jaligi va uning atributlarini anglatuvchi terminlar: *agrar krizis, soxibkorlik, qiymatning o'sishi, tovar x0o'jaligi, o'sim, qarz o'simi, undirilgan pul, pul undirish, unumsiz chiqim, unumsiz xarajat, undiriladigan soliq, iqtisodiy o'sish, talabni o'stirish, agrobiznes, agrosanoat.*

7. Misollar: *Soliq tizimi davlat byudjetiga undiriladigan soliqlar turi majmui, ularni yig'ib olish yo'llari va usullarini tashkil etish tushuniladi.* (Iq.N, 91).

8. . . . *Iqtisodiy o'sish shartlarini konkret tahlil etish kerak* (Iq.N,103). *Iqtisodiy o'sishning intensiv xususiyatlarini hisobga olish bilan birga ishlab chiqarish samardorligini tushunchasini ham aniqlab olish kerak* (Iq.N,113).

9. Ijtimoiy fanlar va ularning atributlarini anglatuvchi terminlar. Masalan: *moliya oligarxiyasi, qadrli mablag', ixtisoslashtirilgan sarmoya, avtonom byudjet, absolyut renta, ta'sischilik aktsiyalar, mutlaq naf, erkin savdo, tovar moddiy qadriyatlar, to'lov qobiliyatsizligi, etakchi valyuta, tovar turkumi, bozor unsurlari, daromad samarasi, ixtiyoriy ishsizlik, shiddatli inflyatsiya, o'rinbosar tovarlar, xayriya fondi, vaqf fondi, iqtisodiy inqiroz, iqtisodiy tanazzul, pulning qadrsizlanishi, muomala fondlari.*

10. Yana misollarga murojat qilamiz: . . . *Iqtisodiyotni tushkunlikka solib turuvchi iqtisodiy inqirozlar ijtimoiy ishlab chiqarishda davriylik xususiyatni kasb eta boshladi* (Iq. N, 105). *Har bir korxona aylanma ishlab chiqarish fondlari bilan bir qatorda muomala fondlariga ham ega* (Iq. N, 140). *Talabning o'zgarishiga o'rinbosar tovarlarning bo'lishi yoki bo'lmasligi muhim ta'sir ko'rsatadi* (In,270). *Moliya siyosati iqtisodiyotga tatbiq etishda bir necha umumiy va alohida tamoyillarga e'tibor berish muhim o'rin tutadi* (Moliya, 20-b). *Oligopolistik bozorda sanoqli, ozchilik firmalar va kompaniyalar hukmron bo'ladi* (BINA, 21-b).

11. Zoologiya terminlari ham iqtisod termini vazifasini bajarib kelishi mumkin. Masalan: *o'rmalovchi inflyatsiya, suzib yuruvchi inflyatsiya, yuguruvchi inflyatsiya.*

Masalan: *O'rmalovchi, evida bo'ladigan inflyatsiya. Bunda narx-navo sekin, o'rmalagan holda orta boshlaydi.* . . . (IN, 254). *Suzib yuruvchi inflyatsiya. Bunda narx-navo tezroq o'sa boshlaydi* (IN,254). *Yuguruvchi inflyatsiya yoki giperinflyatsiya. Bu haddan tashqari inflyatsiya, narx-navoning shiddat bilan o'sishi, pul qadrining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal*

darajaga kelishi bilan xarakterlanadi (IN,254). *Suzib yuruvchi foiz stavkalarini evrodollarli kreditlar misolida ko'rib chiqamiz* (Kredit, 88-b)

Qisqasi, keltirilgan materiallar o'zbek tilining iqtisodiy terminologik tizimida semantik va semantik-sintetik usul, ya'ni leksik birliklarning ma'nosini ko'chirish yo'li bilan ko'plab terminlar hosil qilinganini yaqqol tasdiqlaydi. Bu jarayonda metaforaning o'xshatish printsipi muhim rol o'ynaydi.

Turkiy tillarda leksemalar hosil qilishning keng tarqalgan yo'llaridan biri affikslar orqali so'z yasashdir. Bu usulning terminlar yasash ko'lami keyingi davrlarda yanada kengaydi, terminologik tizimga mansub terminlarning ayni shu usul bilan yasalayotganligi shunday dalolat beradi.

Ma'lumki, terminlar ham adabiy til doirasida mavjud bo'lgan so'z yasash qolip (model)lari asosida, shuningdek, derivatsion affikslar asosida yaratiladi.

Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri adabiy tilda birmuncha kammahsul bo'lgan affiks, terminologiyada yoki uning biror tizimida faol yoki, aksincha, kammahsul bo'lishi mumkinligidir.

Masalan, o'zbek tilining texnika terminologiyasida-*gich* affiksi o'ta mahsuldor bo'lsa, tadiqot ob'ektimiz bo'lgan iqtisodiyot terminologiyasida ushbu affiks ishtirokida termin yasalganligini tasdiqlovchi bironta misolga ega emasmiz.

Shu bilan birga ta'kidlash lozimki, terminologiyaga oid tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, biror terminologik tizimda affiksatsiya usuli bilan terminlar yasash bir qadar faol bo'lsa, boshqasida esa kammahsuldir. Masalan, o'zbek tilining texnika, muzikashunoslik, terminologiyalarida termin yasashda ko'plab affikslar ishtirok etgani holda, kasalliklar, dorishunoslik, ximiya terminologiyalarida termin yasovchi affikslarning miqdori ancha cheklangan.

Shu nuqtai nazardan va dallilardan kelib chiqib yondoshilganda, o'zbek tili iqtisodiy terminlarining ma'lum qismini affikslar ishtirokida yasalgan terminlar tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Bu masalaga oydinlik kiritishdan oldin iqtisodiyot terminologiyasida ishlatilayotgan tub asosli, yana noyasama terminlar ham mavjud ekanligini ko'rsatib o'tish lozim bo'ladi. Chunki ularning aksariyati yasama yoki birikma iqtisodiy terminlar paydo bo'lishining asosi hisoblanadi.

Hozirgi bosqichda iqtisodiyot sohasida qo'llanayotgan tub terminlarning soni yuzdan ortiqdir. Bular jumlasiga asli o'zbekcha (ba'zilari umumturkiy) yoki o'zlashma (ular o'zi doir tilda yasama yoki qo'shma bo'lishidan qat'iy nazar, o'zbek tilida morfematik qismlarga ajratilmasligi tufayli tub maqomini oladi)terminlar kiradi. Mana shunday tub, ya'ni noyasama iqtisodiy terminlar sirasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *garov, ish, buyum, boy, bozor, qiymat, daromad, narx, qarz, raqobat, savdo, tarif, tovar, zayom, veksel, broker, demping, depozit, grant, davlat, fond, poshlina, bank* va b. Keltirilgan dalillardan ko'rinib turibdiki, hozirgi bosqichda o'zbek tilining iqtisodiy terminologik tizimida tuzilishi jihatidan sodda, yaxlit o'zak-negiz sifatida qaraladigan tub terminlar ham ancha o'rinni egallar ekan.

Shu bilan birga iqtisodiyot terminologiyasida sodda terminlar asosida yuzlab yasama terminlar yasalganligini ko'rish mumkin.

Affikslarning so'z yasash sohasida sermahsulligi o'zbek tilining tub mohiyatidan, ya'ni ularning agglyutinativlik xususiyatidan kelib chiqadi. Bunda yangi tushunchalarni ifodalash uchun tilda mutlaqo yangidan paydo bo'lgan leksemalardan emas, balki mavjud lug'aviy birliklarga yasovchi affikslar qo'shishdan hosil bo'lgan leksemalardan ham foydalaniladi.

Leksemalarni hosil qiluvchi affikslar yasama terminlar yasalishida ishtirok etadi. Kezi kelganda ayrim terminologik ishlarda bunday holatga e'tibor berilmasligini qayd etib o'tishni o'rinli, deb bilamiz. Chunki, yasovchi unsur vositasida hosil qilingan yasama mustaqil ma'noli termin hisoblansa, ular yordamida yuzaga keltirilgan birikmalarning birinchi komponenti termin element hisoblanadi. Shu boisdan, quyida birinchi galda yasama terminlarni yuzaga keltirgan yasovchi elementlar xususida so'z yuritiladi.

Lisoniy dalillardan kelib chiqiladigan bo'lsa, iqtisodiyot terminologiyasida quyidagi affikslar ishtirokida ayni shu sohaning terminlari hosil bo'lganligini ko'rish mumkin.

1. -*chi* affiksi ishtirokida.

2. O'zbek tilida juda faol bo'lgan -chi qo'shimchasi birinchi galda, turli kategoriyalarga oid shaxs nomlarini yasab keladi. Iqtisodiy terminologik tizimida ham u iqtisodning biror sohasida ish olib boruvchi shaxs ma'nosidagi ko'plab terminlarni yasab keladi. Masalan, *iqtisodchi, xazinachi, saralovchi, ijarachi, iste'molchi, soliqchi, ta'minlovchi, pudratchi, sanoatchi, hisobchi, nazoratchi, moliyachi, omonatchi, raqobatchi, buyurtmachi, kafolatlovchi* va boshqalar. Fikrimizni yanada quvvatlash uchun ayrim matnli misollar keltiramiz: *Shu jihatdan sudxo'rlik rivoj topadi, ya'ni qarz beruvchi kishi bergan pulini kafolatlovchi va pulini qadrsizlatib ketishdan saqlash yo'lini qidira boshladi* (Mulkdor, 153). *Demak, ta'magir taftishchilarga qarshi qonun yo'li bilan kurash olib borish zarur* (Hurriyat, 1997, 17.12). . . . *ayniqsa hisobchilar ushbu o'zgarishlardan vaqtida boxabar bo'lib ulgurushmayapti* (Hurriyat 1997,17.12). *Bozorchi-bu bozorga savdo-sotiq ehtiyoji bilan kelgan kishi* (BINA, 7-b).

3. -*ma* affiksi ishtirokida.

4. Ma'lumki, -ma affiksi o'zbek tilida xilma-xil ma'noni ifodalovchi leksemalar yasaydi. Uning ayrimlari terminologik tizimlarda birmuncha faol ekanligini qator ilmiy ishlar misolida ko'rish mumkin. Bu affiks yordamida, garchi kam miqdorda bo'lsa ham, har holda ayrim iqtisodiy terminlar yasalganki, quyidagi misollar fikrimizni tasdiqlay oladi: *g'amlama, ustama, uyushma, birlashma, tuzilma, buyurtma, bo'linma, undirma.* Misollar: *Ulgurji-vositachi tuzilma bozor muassasalarning eng muhimlaridan biridir* (Mulkdor, 48,163). *Davlat buyurtmasining ulushi ancha kamaytirildi* (IN, 22). *Oddiy takror ishlab chiqarish vositalari har ikkala bo'linmadagi moddiy sarflarni qoplaydigan hajmlarda ishlab chiqarish kerak* (Iq,N. 102). *Jamg'armalar va iste'moldan voz kechish o'rtasidagi o'zaro bog'lanish unchalik yaqqol ko'rinmaydi* (BINA, 153 b). *Xususan, davrda byudjetga ikki to'lov turi, ya'ni oborot solig'i va foydadan ajratma muvaffaqiyatli ishlar edi* (BINA, 233-b). *Agar xaridor to'lov hujjatlari yozilgandan so'ng,*

shartnomada kelishilgan ma'lum davr ichida to'lovni amalga oshirsa to'lov yig'indisidan chegirma beriladi (Kredit, 15-b).

5. **-*kor*** affiksi ishtirokida:

6. Mazkur affiks asosdan anglashilgan narsa-predmetni etishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxs otini yasasa (paxtakor, g'allakor kabi), iqtisodiy terminologik tizimda mavhum otlarga qo'shilib, ulardan anglashilgan ish-harakat bilan shug'ullanuvchi shaxs oti yasaydi: *chorakor, tadbirkor, tejamkor, sohibkor va b. Qonunchilik qoniqtirilmagan holati tadbirkor tashabbusini susaytiradi.* (Moliya, 27-b).

7. Yana quyidagi misollarga e'tibor beramiz: *O'tgan haftada viloyat markazida "Kichik va o'rta tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash" mavzuida seminar kengashi bo'lib o'tdi* (Mulkdor, 1997,27.04). *Boshqa yurtdan tovar olib keluvchiga baraka va ehtiyotkor deyilgan* (Mulkdor, 1997, 153). *Moliyaviy va tezkor, tez muddatli . . . ishlab chiqilmagan* (BINA, 227-b).

8. *-dor* affiksi ishtirokida.

9. Bu affiks asosdan anglashilgan narsa-predmetga ega bo'lgan shaxs nomini hosil qiladi. Masalan, *mulkdor, xaridor, qarzdor, nasiyador, sarmoyador, xissador* va b. *Ma'lumki, mulkdor topgan mulkining halol bo'lishi uchun zakot bermog'i shart* (Mulkdor, 1997, 153). *Tovarlarni eksport va import qilishda xorijiy sarmoyadorlar tez daromadlaridan foydalanishlarida birmuncha imtiyozli tartibda tartibda qilmoq kerak* (IK,16). *Sotuvchi va xaridorning iqtisodiy ahvoli bozor kon'yukturasiga, bozorning joriy holatiga bog'liq bo'ladi* (Iq.N,76). *Xaridor nuqtai nazaridan o'ta muhim hisoblansa shunchalik shu tovarga bo'lgan elastiklik (o'zgaruvchanlik) koeffitsienti past bo'ladi* (BINA, 62-b).

10. *-noma* affiksi ishtirokida.

11. Bu affiks iqtisodiy terminologik tizimda asosdan anglashilgan narsani ifodalovchi matn, xat va shu kabilarni bildiradi. Masalan, *omonatnoma, shartnoma, ahdnoma, yo'riqnoma, ruxsatnoma, so'rovnoma, topshiriqnoma. Masalan: Shunga muvoviq ravishda amaldagi yo'riqnomalar, qoidalar ham*

tez o'zgarib turibdi (Hur. 17,12.97). *Kafolatnoma kredit oluvchi xorijiy xaridor jismoniy shaxs va xususiy-huquqiy shaxs bo'lgan taqdirda beriladi* (Kredit, 100-b)

12. *-ot (-at, -yot, -yat)* affiksi ishtirokida.

13. Aslida arabiy leksemalar tarkibidagina lug'aviy birliklarni yasab kelgan mazkur so'z yasovchi qator terminologik tizimlarda bir qadar faolligi bilan ishtirok etib kelmoqda. Buni quyidagi iqtisodiy terminlar misolida yaqqol ko'rish mumkin: *taqsimot, hisobot, iqtisodiyot, qadriyat, ta'minot, mahsulot, raqobat* va b.

14. Yana misollarga murojaat etamiz. *Mehnat taqsimoti qanchalik chuqurlashsa, shunchalik mehnat unumi yuqorilashadi* (IN,77). *Bozor munosabatlari iqtisodiyotning hamma jabhalarini, jumladan, qishloq ho'jaligini ham o'z ichiga oladi* (IN, 338). *Raqobat-basma-baslikka bellashuv, kim o'zadi qabilida kurashuv demakdir.* (BIA, 275-b)

15. *-xona* affiksi ishtirokida.

16. *Bojxona, zarbxona.* Masalan, *Bojxona-chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, shu jumladan, bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasi* (Boz. Iqt., 15

i. *-lik* affiksi ishtirokida.

17. O'zbek tilshunosligida mazkur affiksning so'z yasash xususiyatlari xususida qator maqolalar, hatto nomzodlik dissertatsiyasi ham himoya qilingan. Bu ishlarda uning asosiy vazifalaridan biri mavhum otlar yasashdan iborat ekanligi alohida ta'kidlangan. Iqtisodiyot ham ko'proq abstrakt tushunchalar bilan ish ko'rganligi boisidan uning terminologik tizimida -lik affiksi yordamida ko'plab terminlarning yasalganligini quyidagi misollar yaqqol tasdiqlay oladi: *taxchillik, tanqislik, mulkchilik, foydalilik, boqimandalik, manfaatdorlik, mahsuldorlik, rentabellik, xo'jalik, ustuvorlik, samaradorlik, etuklik, alohidalik, mustaqillik.*

18. Misollarga e'tibor bering: *Rentabellik amalda foydalilikni bildirib, korxona va tarmoqlar faoliyatining asosiy mezonlaridan biridir* (Boz. Iq. 84).

Xo'sh, bugungi kunda respublika iqtisodiy dasturining mohiyatini tashkil etuvchi eng asosiy ustuvorlik va yo'nalishlar nimadan iborat? (IK,6). *Agar taqchillik hajmi yalpi ichki mahsulot qiymatining 3-5 foiziga teng bo'lib, undan oshib ketmasa, bu iqtisodiyot uchun normal hol hisoblanadi* (BIA, 223-b).

19. *-be:*

20. *Behisob, bebaho, bepul, befoyda, bevosita.* Masalan: *Xuddi shuning uchun ham mamlakatimizda bolalarning ilm olishlari bepul amalga oshiriladi, negaki vaqt g'animat, uni befoyda o'tkazmaslik kerak* (Mulkdor, 38-son). *Bevosita soliqlar to'g'ridan-to'g'ri, ochiq daromad yoki mulkdorlarga solinadi* (IQ.N,92).

21. *-siz:*

22. *hisobsiz, bahosiz. Naqd pulsiz valyuta to'lovlari hujjatlarning quyidagi turlari . . .* (Bux. h., 86). *Ishsiz deganda aholi iqtisodiy faol qismining o'ziga ish reja olmasdan, mehnat rezerv armiyasiga aylangan qismi hisoblanadi* (BIA, 321-b). *Mamlakatda so'zning inflyatsiya jarayoni milliy valyutaning mos ravishdagi devalvatsiyasiz eksportning dollardagi qiymatining pasayishiga olib keladi* (BINA, 165-b). *Davlat byudjeti defitsitsiz qabul qilinar edi* (BINA, 13-b).

23. Bunda be- affiksi bilan -siz affiksi sinonim holda qo'llangan: behisob-hisobsiz.

24. *-xo'r* affiksi ishtirokida.

25. Aslida fors-tojik tillaridan o'zlashtirilgan yaxlit leksemalar tarkibida mavjud bo'lgan mazkur affiks hozirgi bosqichda ko'plab asosdan anglashilgan narsani doim iste'mol qiluvchi, shuni yaxshi ko'ruvchi. . . ma'nosidagi shaxs nomlarini yasab kelganki, u iqtisodiyot terminologiyasida ham qator terminlar tarkibida o'z "vazifa"sini ado etib kelmoqda. Quyida keltirilgan misollar shundan dalolat beradi: *foydaxo'r, sudxo'r, nafaqaxo'r, merosxo'r. Islom qonuniga ko'ra sudxo'rlik xarom hisoblanadi* (Mulkdor 38, 153). *Buning mazmuni shuki, oxiratga olib ketadigan savdo ish shudir, ya'ni*

o'ziniki, demakdir, chunki o'zidan keyin qoldirgan mol-mulk merosxo'rga qoladi (Mulkdor,38,153).

26. Hozirgi iqtisodiyot terminologiyasida, qayd etilgan affikslardan tashqari, garchi kam miqdorda bo'lsa-da, yana ayrim affikslar ishtirokida terminlar hosil qilingan. Shunday affiksli iqtisodiy terminlar jumlasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

27. a). -m (-im) affiksli terminlar: *boqim, bitim, kirim, chiqim. Naqd valyuta-kirim; naqd valyuta chiqim* (Bux.H. 86). *Davlat yoki boshqa birovga boqim bo'lish yo'qola boshladi* (Mulkdor,38-son).

28. v). -v (-ov) affiksli terminlar: to'lov, o'lchov.

29. Masalan: *Kafolat (kafillik) uchinchi shaxs qarz oluvchining to'lov qobiliyatsizligi yuz bergan* (Mulkdor, 38(153). *To'lov topshiriqnomasi, to'lov talabnomasi, kirish-chiqim orderi, hisob-kitob cheki tashqi hujjatlar hisoblanadi* (Bux.h.87).

30. v). -q (-iq) affiksli terminlar: soliq, sotiq.

31. *Soliqlar ikki vazifani o'taydi* (Iq.N, 91). *Savdo-sotiq yo'li inson hayotidagi yagona tovar almashinuvi yo'li bo'lib qolgan* (Mulkdor, 38).

32. g). -gar affiksli terminlar: savdogar.

33. Masalan: *Savdogar ayollarimizning bola-chaqalarini o'z holiga qo'yib, xorijga tijoratga borishlari-yu, bozorlarda savdo qilib o'tirishlariga qanday qaraysiz* (Mulkdor, 38).

34. -sh (-ish) affikslari ishtirokida.

35. Hozirgi o'zbek tilida, xususan, uning terminologik tizimlarida -sh(-ish) affiksi faollashib ketganligi leksikologiya, terminologiyaga bag'ishlangan qator tadqiqotlarda alohida ta'kidlangan. Ularda bayon etilgan fikrlarning qay darajada to'g'ri va haqli ekanligini faktlar ham yaqqol tasdiqlay oladi. Chunki o'zbek tilining iqtisodiy terminologiyasida mazkur affiks yordamida hosil qilingan yuzlab terminlar o'z vazifasini bajarib kelmoqda.

36. Masalan: . . . *debitor qarzlarni undirish bo'yicha shartnoma asosida konsalting xizmatlari ko'rsatilmoqda* (Hur. q. 12,97). *Savdoni cheklashlarida*

milliy daromad bo'lishi lozim bo'lgan darajadan past (BINA,157). *Xalqaro savdoni erkinlashtirishning uzoq jarayoni davomida ko'pchilik rivojlangan sanoat mamlakatlari o'zlarining ta'rif cheklashlarini pasaytiradilar* (BINA,156-b). A*malda rivojlantirish eng muhim ho'jalik mexanizmining dastagi sifatida asosiy zveno bo'lib hisoblanar edi* (BINA, 124-b).

37. Mazkur affiks yordamida yasalgan terminlarning ko'plab ishlatilayotganligini quyidagi manbada qo'llangan terminlar ham isbotlaydi: *yo'nalishlar* (5), *xususiylashtirish* (6), *shakllantirish, qadrsizlanish, jilovlash, barqarorlashtirish* (7*), sog'lomlashtirish, raqobatlashtirish* (8). *Himoyalash, poklanish* (20), *aktsionerlashtirish* (23) va boshqalar.

38. Keltirilgan misollarning ayrimlari tegishli manbalarda ishlatilgan va "Izohli lug'at"dan o'rin olgan bo'lsa-da, ba'zilari, masalan, *xususiylashtirish, barqarorlashtirish, sog'lomlashtirish, himoyalash, aktsionerlashtirish, tijorat-lashtirish* kabilar yangi leksik birliklar sifatida qaralmog'i kerak.

39. Iqtisodiy terminologik tizimda, qayd etilganlardan tashqari, ayrim murakkab affikslar ishtirokida ham termin yasash ancha faollashganligi kuzatildi. Mana shunday affikslar jumlasiga quyidagilarni keltirish mumkin.

1. Iqtisodiy terminlarning -*chilik* affiksi bilan yasalishi.

2. Iqtisodiyotga oid terminologik tizimda -chilik affiksi biror narsa bilan bog'liq bo'lgan holatni anglatuvchi terminlarni yasaydi: *tijoratchilik, mulkchilik, kasanachilik.* Yana misollarga murojaat etamiz: *tijoratchilik faoliyatining alohida unsurlar, turli ishga oid aloqalar tijorat siri deb belgilash mumkin* (Osiyo bozori, 1996, 201-b). *Mulkchilik munosabatlari-jamiyatdagi boyliklarni o'zlashtirish xususidagi iqtisodiy munosabatlardir* (I.N., 130). *Bular qishloq ho'jalik xom ashyosini qayta ishlaydigan korxonalargina emas, balki sermehnat, shu jumladan, kasanachalikka asoslangan ishlab chiqarishlar, xalq hunarmandchiliklari ham bo'lishi kerak* (I.K.,12). *Bozorchilik-bu bozorga xos muammolar qoidalari, rasm-rusum va sh.k.* (BINA, 7-b).

3. Iqtisodiy terminlarning -*korlik* murakkab affiksi bilan yasalishi. Fors-tojikcha -*kor* affiksiga asli o'zbekcha -lik yasovchisining qo'shilib ketishidan hosil bo'lgan -korlik affiksi ham ko'plab iqtisodiy terminlar yasashda ishtirok etib kelmoqda: *tejamkorlik, tadbirkorlik.* Yana misollarga murojaat etamiz: *Ayni paytda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida ancha-muncha tajriba ham to'plangan* (Mulkdor, 97, 205). *Qonunchilikning qoniqtirmagan holati tadbirkorlik tashabbusini susaytiradi* (Moliya, 27-b).

4. Iqtisodiy terminlarning -*lilik* affiksi bilan yasalishi. Tadqiqot ob'ektimizda ayni shu affiks ishtirokida yasalgan qator terminlar iqtisodiyot sohasida keng qo'llanmoqda. Masalan: *tejamlilik, unumlilik, likvidlilik.* Masalan: *Likvidlilik koeffitsenti quyidagi formula asosida hisoblanadi* (Kred, 63-b).

5. O'zbekcha -lik va forsiy -dor affikslarining birikuvidan tashkil topgan mazkur murakkab affiks iqtisodiy terminlar tarkibida ishtirok etmoqdaki, buni quyidagi misollar tasdiqlay oladi: *mahsuldorlik, mulkdorlik, aktsiyadorlik, samaradorlik, unumdorlik* va b. Yana misollarga murojaat etamiz: *Samaradorlik -ishlab chiqarish natijasining (mahsulotning) harajatlar nisbatiga ko'ra aniqlanadi* (Iq. N. 113). *Mahsulot miqdorining (MM) jonli*

mehnat sarfiga (JM) nisbati mehnat unumdorligini MM: JMni ifodalaydi (Iq. N. 113). *Shu sababli, qishloq ho'jaligida ishlab chiqarishning yuqori samarali industrial uslublari, ilg'or mexanizatsiya va agroximiya usullari nihoyatda sekinlik bilan joriy etilmoqda. Buning natijasida unumdorlik darajasi ham, mahsuldorlik darajasi ham past bo'lmoqda* (IK, 11). *Samaradorlik sintetik va umumlashgan ko'rsatkich bo'lib, integral xarakterga ega, ya'ni o'zida ishchi kuchi, ishlab chiqarish fondlari, moddiy xarajatlardan foydalanish ko'rsatkichlarini yaxlit holda ifodalaydi* (BIA, 104-b).

Xulosa qilib aytganda, hozirgi o'zbek tilining iqtisodiy terminologik tizimida morfologik usul bilan terminlar hosil qilish anchagina faoldir, chunki bu jarayonda xilma-xil affikslardan yoki affiksoidlardan keng foydalanib kelinayapti. Demak, hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida yangi-yangi terminlarning kirib kelishi iqtisodiyot terminologiyasining boyib borishiga sabab bo'lmoqda.

Tushunchalarni ifodalash maqsadida tilning ichki rivojlanish qonunlariga amal qilinishi isbot talab etmaydigan aksiomadir.

Bu borada, birinchi galda, tub, yasama hamda qo'shma leksemalardan foydalanilsa, ikkinchidan, har qanday tilning katta imkoniyatlaridan biri-mustaqil ma'noli ikki va undan ortiq so'zlarni bir-biri bilan grammatik jihatdan birlashtirib ifodalash usulidan ham foydalaniladi. Natijada tushunchalarni u yoki bu tarzda ifodalashning qamrovi yanada kengayadi. Bu esa har qanday soha va tarmoq terminologik tizimlarida ularning barqarorlashuviga olib keladi. Haqiqatan, borliqdagi jamiki tushunchalarni tub, yasama, qo'shma leksemalar vositalari bilangina ifodalab bo'lmaydi. Ayni shunday holatda leksemalar birikmalaridan keng foydalanishga uriniladi. Terminologiya masalalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlar va monografiyalarda ham birikma terminlarning o'rni juda muhim ekanligi qayd etilgan.

O'zbek tilining iqtisodiyot terminologiyasida, boshqa terminologik tizimlarida bo'lganidek, iqtisodiy tushunchalarni birikma vositasida ifodalashning o'ziga xos bir yo'li qaror topdi. Bu hol o'zbek tilida yuzlab iqtisodiy terminlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Misol uchun “Ishbilarmon lug’at” ni olib ko’raylik. Unda bosh lug’at maqolasi qilib olingan jami mingtaga yaqin iqtisodiy termin o’z ifodasini topgan.

Keltirilgan dalildan iqtisodga aloqador birikma terminlarning miqdori anchagina ekanligi ayon bo’lib turibdi. Endi ularning grammatik jihatida yasalishi haqida gap ketar ekan, qator masalalarni ko’rib chiqishga to’g’ri keladi.

Shundan kelib chiqib, avvalo, iqtisodga aloqador birikma terminlarni tuzilishiga ko’ra tahlil qilib chiqamiz.

Barcha terminologiyada ham ikki va undan ortiq komponentli birikma terminlardan foydalanilmoqda.

Yig’ilgan materiallarning ko’rsatishicha, bu sohada ikki komponentli terminlar miqdor jihatdan ko’pligi bilan ajralib turadi. Yana “Ishbilarmon” lug’ati”ga murojaat qilamiz. Lug’atda, yuqorida qayd etilganidek, jami birikma terminga izoh berilgan bo’lib, uning ko’p qismi ikki komponentlari tashkil etadi: *tijorat hisobi, taftish dalolatnomasi oltin qamal, oltin g’amlamasi, omonat guvohnomasi, soliq imtiyozlari, tirikchilik qiymati* va boshqalar.

Shu bilan birga, mazkur lug’atda ozroq qismi uch komponentli *(narxning tashkil topishi, mas’uliyati cheklangan shirkat* kabi) undan kamroq qismi to’rt va undan ortiq komponentli *(vekselni xatlab olish protsenti, o’zaro to’lovlarni hisobga olish, mumkin qadar qulaylik berish tartibi* va boshqalar) termin mavjud ekanligi ayon bo’ldi. Demak, iqtisodiy terminologiyaning ko’p qismini ikki komponentli birikmalar tashkil etar ekan. Shu boisdan quyida bu kabi birikmalarning grammatik jihatdan tarkib topish usullarini ko’rib chiqish lozim, deb topildi (uch va undan ortiq komponentli birikmalarning yasalishi ayni shu omildan kelib chiqishi tufayli ularga alohida to’xtab o’tilmaydi).

Ma’lumki, turkiy tillarda, jumladan, o’zbek tilida ham ikki qismli terminologik birikmalar til materialiga qarab, asosan ot+ot yohud sifat+ot modeli asosida yasalgan bo’ladi. Shunga ko’ra quyida mana shu birikmalarni alohida-alohida qarab chiqamiz.

1 Ot+ot modelida yasalgan birikma terminlar.

Boshqa turkiy tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham ot+ot tipidagi birikmalar izofa orqali birikib keladi.

Bunday izofa 3 xil ko'rinishga egadir.

1) I tip izofa vositasida hosil bo'lgan birikmaning har ikkala qismining o'zaro bog'liqligi so'z tartibi va birlashtiruvchi intonatsiya bilan belgilanadi. Iqtisodiyot olamida bu kabi birikmalarning barmoq bilan sanarli darajada kam. Ular jumlasiga quyidagilar misol bo'ladi: *er renta, bozor narx, uy beka* kabi.

2) II tip izofali birikma biror predmet, narsa, voqea-hodisaga qarashliligini, mansubligini anglatadi.

Bu xildagi birikmalarning qaratqich komponenti-i yoxud -si egalik qo'shimchasi bilan shakllantiriladi, qaralmish komponenti esa grammatik qo'shimchalarga ega bo'lmaydi. Shu xildagi iqtisodiy terminlar jumlasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *sotish ustamasi, bojxona boshqarmasi, savdo vakili, talab ko'lami, qarz tilxati, pul muomalasi, tannarx ko'rsatkichlari, davlat qarzi* va b. *Qarz puli uchun ishlatilganda foiz stavkasi daromadning bir qismi bo'la olmaydi* (Kredit, 81-b). *Moliya intizomiga rioya qilish uchun moliyaviy nazorat, korxona, tashkilot va muassasalar javobgarligi bilan uzviy bog'liqlikda bo'ladi* (Moliya, 49-b). *Agar bo'nak to'lovlari kam to'langan bo'lsa, haqiqiy hisoblangan summaga qaraganda qo'shimcha hisoblangan summaga choraklik hisob besh kun ichida hisobot taqdim etilgan* (BINA, 240-b).

Misollardan shunday xulosaga kelish mumkinki, II tip izofali birikmalar o'z o'rnida ishlatilmoqda, ya'ni tushunchalarni to'g'ri ifodalamoqda.

3) Birikma terminlarning bu xili boshqa terminologik tizimlarga qaraganda izofaning haqiqiy bo'lmish III tipi asosida shakllantirilgan birikmalar o'z o'rnida qo'llanilgan. Masalan: *pulning qadrsizlanishi, daromadning taqsimlanishi, hamkorlikning rivojlanishi, tovarning qiymati, mahsulotning bahosi, fondlarning samaradorligi, kreditning qaytarilishi, so'mning qiymati. Har bir tovarning foydaliligi o'zidan keyingi shu tovarning foydaliligidan yuqori va aksinchadir* (BINA, 70-b). *Sanoatning yuksalishi qishloq ho'jaligini ham shiddat bilan o'sishiga olib keldi.* (BINA, 86-b).

Aniqlanishicha, ob'etimizda III tip izofa ko'proq ishlatilar ekan. Shu boisdan qayd etilgan izofaning uchinchi tipidan keng foydalanilmoqda.

Keltirilgan misollardan o'zbek tilining iqtisodiyot terminologiyasida izofa birikma terminlar o'ziga xos o'rinni egallab kelayotganligi ayon bo'ladi.

Sifat+ot modelida yasalgan birikma terminlar.

O'zbek tilining iqtisodiy terminologik tizimida sifat+ot modeli asosida yasalgan terminlar salmoqli o'rinni egallaydi. Chunki, bunday birikma terminlarning aniqlovchi komponenti aniqlanmish komponentining belgisi, xossasi, xususiyati kabi ma'nolarni ifodalab keladi.

Bunday birikma terminlarni lisoniy materialiga ko'ra ikki xilga ajratish mumkin.

a) aniqlovchi qismi asliy sifatdan iborat birikmalar;

b) aniqlovchi qismi nisbiy sifatdan tashkil topgan birikma terminlar.

Asliy sifat+ot modeli asosida yasalgan birikma terminlar iqtisodiyot terminologiyasida unchalik ko'p emas. Shunday bo'lsa-da, ularni lisoniy dalil tarzda keltirib o'tish lozim bo'ladi. Bunday birikmalar sirasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin: *yalpi mahsulot, mavhum mehnat, sof daromad, muqobil savdo, muxbir bank, ulgurji narx, chakana narx, xufiya iqtisodiyot, erkin bozor, tashqi audit, ustuvor yo'nalish va b. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning turli modellari barcha mamlakatlarni bitta manzilga-erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keldi* (BINA, 97-b). *Tashqi auditning maxsus audit firmasi bo'lib, . . . boshqa xo'jalik sub'ektlari bilan birgalikda shartnoma asosida olib boriladi* (Moliya, 52-b). *Quyidagi eng muhim vazifalar, ya'ni ustuvor yo'nalishlar "O'zbekiston yo'li"ning uchinchi tarkibiy qismiga kiradi* (BINA, 102-b).

Nisbiy sifat+ot modeli asosida yasalgan birikma terminlar esa miqdorning ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Hisob-kitoblarga qaraganda bu kabi birikmalarning soni 200 tadan ham oshib ketadi. Mazkur tipdagi birikma terminlarning aniqlovchi komponenti xilma-xil sifat yasovchi qo'shimchalar bilan ifodalanishini alohida ta'kidlab o'tamiz.

Qayd etish lozimki, o'zbek tilining iqtisodiyot terminologiyasida ham boshqa terminologik tizimlarning mulki bo'lmish aniqlovchili birikmalarni hosil qiluvchi sifat yasovchi qo'shimchalar ishtirok etar ekan.

Biroq bu o'rindagi farq shundan iboratki, ayrim sifat yasovchi affikslar nihoyatda sermahsul bo'lsa, boshqalari bir qadar kammahsuldir.

To'plangan materiallar tahlilidan iqtisodiyot terminologiyasida qayd etilgan modelli birikmalarning aniqlovchi komponenti quyidagi sifat yasovchi affikslardan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi:

1. *-li affiksli birikmalar.* Ma'lumki, o'zbek tilida *-li* affiksining vazifasi nihoyatda keng qamrovlidir. Biroq uning eng asosiy funktsiyasi ot turkumiga oid so'zlarga qo'shilib, "egalik", "mavjudlik" kabi ma'nolarni anglashib kelishi ko'plab ishlarda qayd etilgan.

Iqtisodiyot terminologiyasida ham mazkur affiksli birikmalarning faol termin sifatida ko'p qo'llaniladi. Masalan: *sifatli mahsulot, unumli mehnat, imtiyozli boj, muddatli omonat, qimmatli qog'oz, vaqtinchalik ish, qisqa muddatli kreditlar. Qisqa muddatli kreditlar, odatda aylanma mablag'larni hosil etish uchun yil muddatga beriladi* (IQ. N, 122). *Qimmatli qog'ozlar bu muayyan bir davlat qonunlarida belgilangan tartibda muomalaga chiqarilgan va nominal qiymatga ega bo'lgan pullik hujjatdir* (Moliya, 55-b). *Foizli stavka ma'lum daromad, qiymat va boshqalarga nisbatan foizlarda belgilanadi.*

2. *-ma affiksli birikmalar.* Mazkur yasovchi iqtisodiyot terminologiyasida "biror harakatga moyillik" ma'nosiga ega terminelementlarni hosil qilib keladi. Quyidagi misollar shundan dalolat beradi: *ustama haq, ustama foyda, solishtirma mehnat, o'tma so'm, aylanma fond, qo'shma korxona, qoplama kelishuv, aylanma mablag', jamg'arma vositasi, undirma sanoat.* Masalan: *Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi aylanishning tezligi bilan bog'lanadi* (IQ. N., 140). *Qo'shma korxona jumxuriyat ichkarisida tashqi millatlar ishtirokida o'zaro manfaatdorlik asosida qurib ishga tushirilgan korxonadir* (IQ.N.,132). *Jamg'arma vositasi-bu pulning jamlangan boylik shakliga kirib, o'z egasi uchun kerak bo'lganda xarid etish vositasi bo'lib xizmat qila olishidir* (Pul, 35-b)

3. *-siz affiksli birikmalar.* Bu affiks vositasida o'zakdan anglashilgan ma'noga ega emaslik, ya'ni inkor ma'nosi ifodalanadigan birikmalar yasaladi: *narxsiz raqobat, sifatsiz mahsulot, rejasiz xo'jalik, vorissiz mulk, muddatsiz omonat, bojsiz savdo, unumsiz mehnat, foydasiz kelishuv* va b. Masalan: *Tartibsiz bozor bosqichi. Bu bosqichda bozor aloqalari stixiyali tarzda o'rnatiladi* (IN, 218). *Cheksiz ehtiyojni to'laroq qondirish cheklangan resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi* (BINA, 52-b). *Umidsiz kreditlarni qoplash maqsadida tashkil etiladigan zahira fondini hosil qilish tartibi AQSh va §arbiy Evropada yagona usul bo'yicha amalga oshiriladi* (Kredit, 100-b).

4. -chi affiksli birikmalar. Bu affiks aslida erkalash-kichraytirish ma'nosidagi ot yasovchi hisoblanadi. Biroq terminologik tizimlarda uning mazkur ma'nosi u qadar sezilmaydi, aksincha, muayyan ob'ektning belgisini bildiruvchi sifat hosil qiladi: *qo'shimcha mahsulot, qo'shimcha qiymat, ortiqcha harajat, qo'shimcha foyda* va b. *Biroq resurslar cheklanganidan bir mahsulotni ko'paytirish ikkinchisini kamaytiradi, chunki qo'shimcha mahsulot, qo'shimcha resurs talab qiladi* (BINA, 52-b).

5. -iy (-viy) affiksli birikmalar. Iqtisodiyot terminologiyasida aniqlovchi qismi -iy, -viy affiksi bilan yasalgan birikma terminlar ham tez-tez uchrab turadi: *iqtisodiy inqiroz, mulkiy shakl, ijtimoiy mulk, moliyaviy intizom, xususiy mulk, nisbiy miqdor, mahalliy soliq.* Masalan: *Asosiy fondlar-o'z qiymatlarini ishlab chiqarishning bir bosqichida emas, bir necha bosqichi davomida tayyorlanayotgan mahsulotga qisman-qisman o'tkazib boriladi* (IQ. N, 138). *Demak moliyaviy baquvvat bo'lish raqobatga chidamli bo'lishi demakdir* (IN, 371). *Moliyaviy nazoratning bu shakli amaldagi qonunchilik va normativ aktlar buzilishining oldini olishga xizmat qiladi* (Moliya, 43-b). Binobarin, iqtisodiy erkinlik umumiy erkinlikning bir qismi bo'lib hisoblanadi (BINA,113-b). Tarkibiy ishsizlik turli hududlarda, turli soha va ish turlariga ishchi kuchining talab va taklifning nomuvofiqligi natijasida kelib chiqadi. (BIA, 322-b).

6.-chi affiksli birikmalar. Iqtisodiyot terminologiyasida aniqlovchi qismi -chi affiksi bilan yasalgan birikma terminlardan ham foydalanilayotganligini

quyidagi misollar bilan tasdiqlash mumkin: *yordamchi tarmoq, etakchi iqtisodchi, baholovchi shaxs, vositachi savdo* va b.

Shu bilan birga, iqtisodiyot terminologiyasida sifatdosh+ot tipidagi birikma terminlar ham tez-tez uchrab turadi*: cheklangan harajatlar, kechiktirilgan talab, uyushgan narxlar, cheklangan harajatlar* va b.

Iqtisodiyot terminologiyasida qo'shma affikslar orqali birikma terminlar ham yasaladi. Ular jumlasiga *mulkchilik munosabatlar, sohibkorlik daromadi, qarzdorlik hujjati, tirikchilik qimmati* kabi terminlarni kiritish mumkin. Masalan: *Hissadorlik jamiyatlar muomalaga oddiy aktsiyalar chiqarish bilan birga, imtiyozli aktsiyalar ham chiqarish imkoniyatiga egadirlar* (Moliya, 57-b). *Ishsizlik darajasi deganda jami ishsizlar sonining iqtisodiy faol aholi soniga bo'lgan nisbati tushuniladi* (BIA, 327-b).

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, iqtisodiyotga aloqador birikma terminlar ichida sodda birikma terminlar ko'pligi bilangina emas, balki iqtisodiy tushunchalarni to'g'ri, aniq va ixcham tarzda ifodalab kelishi bilan ham o'ziga xos afzalliklarga egadir.

Tayanch so’z iboralar:

1. Ichki manba
2. Tashqi manba
3. Semantik usul
4. Morfologik usul
5. Sintaktik usul
6. Ko’chma ma’no
7. Kreditning elastikligi
8. O’rmalovchi inflyatsiya
9. Oltin qamal
10. Qalqon kredit
11. Moliyachi
12. Undirma
13. Tadbirkor
14. Sarmoyador
15. Kafolatnoma
16. Merosxo’r
17. Mulkchilik
18. Ikki komponentli termin
19. Er renta
20. Qarz tilxati
21. Kreditning qaytarilishi

Takrorlash uchun savollar:

1. Terminlar qanday ko’payadi?
2. Ichki manbalarga nimalar kiradi?
3. Tashqi manbalar nimalardan iborat?
4. So’z yasalishining qanday usullari mavjud?
5. Semantik so’z yasalishi deganda nimani tushunasiz?
6. Morfologik so’z yasalishi nima?
7. Sintaktik so’z yasalishi nima?
8. Qaysi usul faol hisoblanadi?

5-mavzu: Iqtisodiyot terminlarini qo'llash mezoni va tartibga solish masalalari

REJA:

1. **Terminning qonun-qoidalar asosida yaratilishi va mezon.**
2. **O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasida sinonimiyaning paydo bo'lish sabablari.**
3. **Terminlarni tartibga solish.**

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ijtimoiy taraqqiyotda ro'y berayotgan o'zgarishlar, fan-texnika, madaniyat va san'at, xalq xo'jaligining xilma-xil tarmoqlari tobora rivoj topib borayotganligi kabi ekstralisoniy omillar minglab yangi tushunchalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Binobarin, o'zbek tilida ana shu minglab tushunchalarni ifodalovchi minglab terminlar ham yuzaga keldi.

Pirovardida, ayniqsa, XX asrning 80-yillaridan keyin yangitdan yuzaga kelgan tushunchalarni qay tarzda ifodalash lozimligi masalasi ko'ndalang bo'ldi. Bu muammo esa, ochig'ini aytish kerak, stixiyali ravishda yuz bera boshladi. Natijada har kim o'z bilganicha "termin" topib yoki "yasay" boshladi. Bunday hatti-harakat oqibati o'laroq, o'zbek tilining terminologik tizimlarida xilma-xilliklar paydo bo'la boshladi. Terminologiyada salbiy deb qaraladigan sinonimiya, omonimiya, polisemiya kabi til hodisalariga keng yo'l ochib beriladi. Bunday holat barcha terminologik tizimlarda, shuningdek, iqtisodiyot terminologiyasida ham tez-tez ro'y bera boshladi.

Ma'lumki, terminologiya sohasida yuz bergan bunday salbiy holat informatsiya almashish jarayonini qiyinlashtirib yuborishga olib keladi.

Shu boisdan iqtisodiyot terminologiyasida sodir bo'lgan ayrim tartibsizliklarning oldini olish masalasini maxsus ko'rib chiqish lozimdir.

Ma'lumki, barcha sohalarda bo'lganidek, iqtisodiyot terminologiyasi ham terminlarni tartibga solish masalalari hamisha jamoatchilikning diqqat markazida bo'lib keldi. Ilmiy jamoatchilik yaxshi biladiki, o'tgan asrning 30-yillarida til-imlo

masalalari bilan bog'liq ravishda terminologiya muammolar ham tegishli tashkilotlar tomonidan uyushtirilgan qator tadbirlarda maxsus kun tartibiga qo'yildi. 1929 yilda bo'lib o'tgan Til-imlo konferentsiyasi buning yorqin namunasidir. Natijada S.Ibrohimovning qator maqolalari, U.Tursunning "O'zbek tili terminologiyasi" nomli risolasi, ko'plab terminologik lug'atlar yuzaga keldiki, ular u yoki bu soha terminlarini yanada puxtaroq tartibga solishda muhim rol o'ynadi.

O'zbek tilidagi bunday terminlarni tartibga solish sohasidagi ishlar sho'ro hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlangan.

Turli sohalar bo'yicha terminologiya lug'atlarning nashr etilishi terminologiya sohasida ilmiy-tadqiqot ishlar olib borishning kuchayganligi terminologiya sohasida mavjud bo'lgan ba'zi muammolarni hal etishni taqozo etadi.

Barcha fanlar va texnikaga doir terminologik ishlarning maqsadi o'sha sohalar mutaxassislarininggina emas, balki umuman terminlar vositasida ish ko'radigan har bir shaxsning bir-biri bilan informatsiya almashish jarayonini amalga oshirishdan iboratdir. Bu jarayon esa lug'atlar vositasida yanada jadal tus oladi. Shunisi borki, lug'atda o'z "tasdig'i"ni olgan har bir termin bevosita yozma nutqqa-darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-tadqiqot ishlar, matbuot sahifalariga, qolaversa badIIy adabiyotga ham ko'chadi. Shunday ekan, har qanday termin u yoki bu tushunchani aniq, to'g'ri ifodalashni taqozo etadiki, ular o'zbek tilining qonun-qoidalariga binoan yaratilishi lozim bo'ladi. Iqtisod fani bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar, ilmiy-ommabop asarlar, lug'atlarda o'z ifodasini topgan aksar terminlar o'zbek tilining ichki qonunlari asosida tushunchalarni aniq ifodalayotgani, bu esa o'qish-o'qitish jarayonining hozirgi talablar darajasida bo'lishiga yordam berayotganini ko'rish mumkin.

Qadim-qadimdan ona tilimizda ishlatib kelingan *soliq, bozor, ish, pul, mulk, mulkchilik, mol ("tovar" ma'nosida), foyda, jamg'arish, korxona, xo'jalik, savdo-sotiq, daromad, mehnat, boj, bojxona, sotish, sotib olish, ish haqi, dehqon ho'jaligi* kabi yuzlab terminlar shular jumlasidandir.

Biroq iqtisodiyot fani bo'yicha o'zbek tilida nashr etilgan manbalarni o'rganish va tahlil qilish natijasida o'zbek iqtisodiyot terminologiyasida ham, boshqa sohalar terminologik tizimlarida bo'lgani kabi, qator kamchilik va nuqsonlar mavjud ekanligi ayon bo'ldi. Ayni shunday holat iqtisodiy terminlarni tartibga solish masalalari bilan alohida shug'ullanish vazifasini keltirib chiqaradi.

Terminlarni tartibga solish amaliyotida u yoki bu lug'aviy birlikni termin qatoriga kiritishda odatda quyidagi talablardan kelib chiqiladi: u muayyan tizim tarkibiga kirishi va shu tizim doirasida yagona ma'no bildirishi, tartibga tushish belgilariga ega bo'lishi, sinonim (dublet)larga ega emasligi, qisqa, eslash va talaffuzi qulayligi kabi talablarga javob berishi lozim.[1] Albatta, barcha terminlar mazkur talablarga javob berganda, terminologiyani tartibga solish degan gap ham ko'ndalang bo'lmas edi. Biroq amaliyotda ish hali poyoniga etgan emas. Yuqorida aytganimizdek, o'zbek iqtisodiyot terminologiyasi qator nuqsonlarga ega: lug'aviy va grammatik sinonimiyaning keng tarqalganligi, terminlar imlosidagi har xillik kabilar ana shunday nuqsonlardandir.

Terminologiya masalalariga bag'ishlangan barcha ishlarda sinonimiya terminologiyaning jiddiy nuqsoni deb qaralgan.

Ma'lumki, maktab va oliy o'quv yurtlarida iqtisod fanini o'qitish, o'rganish ishlari XX asrning 20-yillaridangina boshlandi. Albatta, bunda o'zbek tilida ishlab chiqilgan, bir tizimga solingan iqtisodiyot terminologiyaning bo'lishiga ehtiyoj sezilgan edi. Natijada, 20-yillarning oxiri va 30-yillarda rus tilida nashr etilgan iqtisodga oid darslik va qo'llanmalar o'zbek tiliga tarjima qilina boshlandi[1] .

Muhimi shundaki, tarjimonlar o'sha vaqtlardayoq bu jarayonni imkon boricha o'zbek tilida mavjud bo'lgan iqtisodiy tushunchalarni aniq ifoda etilgan umumiste'moldagi so'zlardan foydalanganlar. Shu bilan birga, sharoit taqozosi bilan fors-tojikcha, arabcha leksemalardan hamda ruscha-baynalmilal terminlarni tarjimasiz yoki kalkalab olishga intilish bo'lgan.

[1]O'zbek tili ilmiy-texnikaviy terminologiyasini tartibga solish PrintsiPlari, Toshkent, 1991.
[1]Danilenko V.P. Russkaya terminologiya, M., 1996, s.74.

Ayni shunday holat iqtisodiyot olamida ham ko’plab sinonimik terminlar qatorlarining paydo bo’lishiga olib keldi. Bu har bir tilda, uning leksikasida ro’y berib kelayotgan o’ziga xos bir lisoniy hodisadir.

Ma’lumki, terminologiya sohasida keng tarqalgan sinonimiya terminshunoslar tomonidan uning taraqqiyoti va shakllanishining ilk davriga xos hodisa, deb baholanadi.

Masalan, terminshunos V.P.Danilenko shunday yozadi: “Ayni bir tushunchalarni nomlashdagi lug’aviy variantdorlikning ro’yobga chiqishi fan tilini yaratishning ilk davrida uch asosiy ko’rinishida bo’lib o’tadi: tilda ayni bir tushunchani ifodalash uchun turli tillardan o’zlashtirilgan bir necha so’z qo’llanganda; (o’zlashtiruvchi) tilda o’zlashma so’zga teng keladigan so’z mavjud bo’lganda; o’zlashma so’z paydo bo’lishi bilan ma’no jihatdan unga teng bo’lgan ruscha so’z maxsus hosil qilinganda”.

Ayni shu holatni o’zbek tilining iqtisodiyot terminologiyasida ham kuzatish mumkin. Avvalo, o’tmishdagi ayrim iqtisodiy tushunchalarni ifodalab kelgan leksemalar sinonimiyasiga e’tibor beraylik., Alisher Navoiy asarlarida qator iqtisodiy terminlar qo’llangani va ularning ba’zilari sinonimik xarakterda ekanligi ma’lum bo’ldi. Quyidagi misollar shundan dalolat beradi: *manfaat-foyda-daromad, sarmoya-davlat-boylik-mablag’; dastmuzd-ish haqi-maosh; savdopesha-savdogar-savdogarchilik, nafaqa-maosh-harajat, bozurgon-bozorchi-savdogar, bay’ona-baho-qiymat-bay puli* va boshqalar.

Keyinchalik, ya’ni XX asrning 30-yillaridan keyin o’zbek tilida, xususan, uning iqtisodiyot terminologiyasida ruscha-baynalmilal terminlarning qo’llana boshlashi birinchidan, shu terminologiyaning boyishiga, ikkinchidan, sinonim terminlarning ko’payishiga olib keldi.

O’sha davrda nashr etilgan darslik va lug’atlarda, tarjima asarlarda ruscha-baynalminal terminlarning qo’llanishi natijasida sinonim va variantdor terminlar paydo bo’ldi. Masalan: *rasxod-daromad, kommirchiski banka-tijorat banki, peshaki aqcha-avans-bo’nak, maliyat-nalog-soliq, podshahlik bankaxanasi-davlat banki, boxgaltir-buxg’altir-buxgaltir, blanka-bulanka-blank, banka-bank-bank,*

berja-birja, priskurant-preyskurant, veksil-veksel, patent-patitt, kridit-kredit, budjet-byudjet va b. Aytilganlardan sinonimiya va variantdorlik faqat terminologik tizimlar taraqqiyotining ilk bosqichigagina xos ekanu, hozirgi terminologiyada bu hodisa aytarli yo'q, degan xulosaga kelmaslik kerak, albatta. To'g'ri, vaqt o'tishi bilan o'zbek iqtisodiyot terminologiyasi rivojlana va silliqlana borib, ma'lum darajada sinonim terminlardan xoli bo'ladi.

O'rni kelganda shuni aytish kerakki, sinonimik terminlar bilan umumadabiy tildagi sinonimiya tushunchalari o'rtasida katta farq bor.

Sinonimiya nutqning badIIy, publitsistik uslublari uchun juda qo'l keladi, yozma va og'zaki nutqni bir xil takrorlardan ozod qiladi. Biroq, bunday sinonimiya terminologiya uchun foydasiz bir holdir. Sinonimiya terminlar, birinchidan, kishi xotirasiga ortiqcha yuk bo'lib tushadi, chunki ko'plab tushunchalarni o'zlashtirish bilan birga ularni anglatuvchi yanada ko'p terminlarni eslab qolishga to'g'ri keladi, ikkinchidan, ularning mavjudligi natijasida ma'no jihatdan bir-biridan farqlanish xavfi tug'iladi.

Terminologiyada, jumladan iqtisodiyot terminologiyasida sinonimiya xilma-xil ob'ektiv va sub'ektiv sabablar natijasida yuzaga keladi. Yuqorida terminologik sinonimiyani keltiruvchi uch holat, binobarin, terminologik sinonimiyaning uch ko'rinishi haqida V.P. Danilenkoning fikrini keltirgan edik. Ana shu uch holatni terminologik sinonimiyani, shunda ham lug'aviy (leksik) sinonimiyani vujudga keltiruvchi ob'ektiv holatlar deb ko'rsatish mumkin. Bu jarayonda sub'ektiv holat esa, ko'pincha, ayrim mualliflar va tarjimonlarning termin yaratishda u yoki bu affikslarni o'rinsiz qo'llanishi, birikma terminlar tarkibiy qismlarini tanlashdagi xatolaridan iborat bo'lib, bunday intilishlar natijasida grammatik sinonimlar-variantlar yuzaga keladi.

O'zbek iqtisodiyot terminologiyadagi sinonimiyaning xilma-xil ko'rinishlarini bartaraf etish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim.

Lug'aviy (leksik) sinonimiya.

O'zbek iqtisodiyot terminologiyasida tez-tez uchrab turadigan bu xildagi sinonimiyani, o'z navbatida, yana bir necha guruhlarga bo'lish mumkin: a) asli

o’zbekcha (umumturkiy) so’zlarning o’zaro sinonimiyasi; b) shunday terminlar bilan fors-tojikcha yoki arabcha, yohud ruscha-baynalmilal leksemalarning sinonimiyasi. Biroq, bu o’rinda masalani biroz umumlashtirish maqsadida, asli o’zbekcha, fors-tojikcha hamda arabcha terminlarning o’zaro sinonimiyasini bir guruh deb hisoblab, ana shu guruh bilan ruscha-baynalmilal leksemalar sinonimiyasini ikkinchi guruhga ajratdik.

O’zbek tili lug’aviy tarkibining asosini tashkil etuvchi asli o’zbekcha, fors-tojikcha, arabcha leksemalardan iborat iqtisodiy terminlar sinonimiyasini darslik va qo’llanmalarda, lug’atlarda va boshqa manbalarda bot-bot uchratib turish mumkin. Fikrimizning dalili uchun ayrim misollarni keltiramiz: *foydaxo’r-chayqovchi, nazoratchi-tekshiruvchi, xaridor-buyurtmachi, qarzdor-nasiyador, xaridor-mijoz, pul-aqcha, bitim-shartnoma, chorakor-koranda, daromad-kirim, harajat-chiqim, sarf-harajat-chiqim, sarmoya-mablag’, mezon-o’lchov-belgi, boshqarma-mahkama, uyushma-birlashma, ustama-qo’shimcha.*

Yana quyidagi misollarga e’tibor beraylik:

Bozordagi har bir bitimda bir-biriga bog’liq ikki xil aloqani ko’rish juda muhim-dir (Iq. N,67).	Ishga yollash shartnomasini diqqat bilan kuzatganda bir qator belgilari ko’rinadi (Iq.N.,161).
Daromadlar (foyda) yoki boshqa soliqqa tortish ob’ektlarini yashirin hollari aniqlanganda qonun hujjatlariga muvofiq surishtiruv o’tkazish. (Moliya, 48-b).	Firma ishidagi rejalashtirishda mahsulotning uch turi farqlanadi... -firma uchun yangi, lekin bozor uchun yangi bo’lmagan tovar (Iq.N, 114).
Korxona o’z mahsulotini sotadigan baho bilan uning tannarxi o’rtasidagi farq korxonaning sof daromadini tashkil qiladi. (IN, 144).	
Iste’molchi (xaridor) . . . endi bozor iqtisodiyot sharotida ishlab chiqaruvchi emas, balki iste’molchi (xaridor) o’z izmi-ni o’tkazadi. (BINA, 50-b).	

Aslida o’zbekcha-fors-tojikcha yoki arabcha leksemalar qatoriga bir asosli (tub yoki yasama) terminlar bilan birikma terminlarning ham sinonimik munosabatga ega bo’lishi mumkinligini quyidagi misollar tasdiqlay oladi: *savdogar-ishbilarmon vositachi, daromadlik-daromad keltirish, moliya-pul mablag’i, tushim-savdodan tushgan pul, vakolatnoma-ishonch qog’ozi, omonatchi, omonat pul qo’yuvchi, korchalon-olg’ir sanoatchi, foyda-tekin daromad, nafaqa-yordam puli, iste’molchi-iste’mol qiluvchi, yakanchi-mayda savdogar, xaridor-sotib oluvchi, mulkdor-mulk egasi.*

Mazkur pulga tovarlar va xizmatlar sotib olingach, u firmaning pul tushumiga (daromadiga) aylanadi (IK,295).	Bozor iqtisodiyotidagi daromadlar tengsizligining ikki jihati bor (Iq. N, 437).

Terminlarning bu xildagi sinonimiyasini birinchi navbatda, ularning umumadabiy tilda bab-baravar ishlatilayotganligi bilan izohlash mumkin. Chunki, bunday sinonimik qatorni hosil qiluvchi terminlar asli o'zbekcha, fors-tojikcha yoki arabcha bo'lishidan qat'iy nazar, asrlar davomida umumxalq tilida ishlatilib kelingan. Shuningdek, mazkur terminlar ishlatilgan tillarda so'zlashuvchi xalqlar uzoq yillar davomida yonma-yon, hatto aralash holda yashaganligi yoki yaqin aloqada bo'lganligi tufayli ham ayrim shu turdagi sinonimiyaning turg'unlashuviga olib kelgan, deb hisoblaymiz.

Sinonimik terminlar hosil bo'lishining sabablaridan yana biri o'zbek tilida avvaldan qo'llab kelingan lug'aviy birlikning ruscha-baynalmilal terminlar bilan parallel qo'llanishdadir. Muayyan bir tushunchani ifodalash uchun bir vaqtning o'zida ham milliy, ham baynalmilal terminlardan foydalanish nafaqat o'zbek iqtisodiyot terminologiyasi uchun, balki barcha tillarning terminologik tizimlari uchun ham umumiy holat hisoblanadi. Shuning uchun sinonimiyaning bu turini ham birdaniga bartaraf etib bo'lmaydi.

Milliy (o'zbekcha) va baynalmilal iqtisodiy terminlarning lug'aviy sinonimik qatorida ham yuqoridagiday holatni, ya'ni, birinchidan, bir asosli (tub yoki yasama) terminlar doirasida ham mavjud ekanligini quyidagi misollar bilan dalillash mumkin: *islohot-reforma, soliq-nalog, iqtisodiyot-ekonomika, iqtisodchi-ekonomist, ruxsatnoma-litsenziya, qarzdor-debitor, mablag'-kapital, vositachi-distribiter, foiz-protsent, qarz-kredit, hisobchi-buxgalter. Mazkur tovarlarning o'rinbosari qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik talab o'zgaruvchan (elastik) bo'ladi* (BINA, 51-b). *Ular o'rtasida vakolatga ega bo'lgan brokerlar-maklerlar (dallollar) vositachilik qiladi* (BINA, 16-b). *Korxona ma'lum bir xildagi mahsulotni realizatsiya qildi va natijada, korxonaning hisob-kitob raqamiga*

tushum (viruchka) kelib tushdi (Moliya, 13-b). *Mamlakatdagi klient (mijoz)lardan ajrab qolmaslik uchun bahoni tushirishga (pasayishga) intiladilar* (BINA, 156-b).

Ikkinchidan biror komponenti o'zbekcha terminlar (fors-tojikcha yoki arabcha bo'lishidan qat'iy nazar), boshqa komponenti esa baynalmilal bo'lmish birikma terminlar sinonimiyasi ham keng tarqalganki, buni quyidagi misollar bilan tasdiqlay olamiz: *(aktsiyadorlar shirkati - hissadorlar shirkati, pul kapital - pul sarmoya, inflyatsiya kursi - pulning qadrsizlanish kursi) va b. Tartibsiz bozor, stixiyali bozor. . . . Bir mahsulot ishlab chiqarishga ketadigan resurslarning boshqa mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanishi muqobil (alternativ) xarajatlar deyiladi* (BINA, 53-b). *. . . Bozor iqtisodiyotining ba'zi bir unsurlari eski traditsion (an'anaviy) iqtisod bag'rida unib chiqqan va rivoj topgan bo'ladi* (BINA, 77-b).

Shunindek, ruscha-baynalmilal terminlarni tarjima qilish, ya'ni kalkalashtirish natijasida ham terminologik sinonimiyaning aralash turi yuzaga keladi. Masalan: *kreditor - qarz beruvchi, veksel - qarz berish, biznesmen-usta savdogar- ishbilarmon, brakeraj - mol nazorati, obligatsiya - qimmatli qog'oz, arbitraj - hakamlar sudi, diler-ishbilarmon vositachi savdogar, kredit-ajratma mablag', inflyatsiya-pulning qadrsizlanishi, auktsion - kimoshdi kabi. . . . uning bozor iqtisodiyotiga transformatsiyasi (aylana borishi) orqali yuz bergan* (BINA, 74-b).

Ma'lumki, rus tili XX asrning 60-70 yili mobaynida sobiq ittifoqdagi milliy tillar zamonaviy terminologik tizimlarining shakllanishida o'zining kattagina ta'sirini ko'rsatib keldi.

Bu jarayon ma'lum ma'noda majburiylik tartibi asosida amalga oshgan bo'lsa-da, uning ijobiy tomonlari ham mavjud ekanligidan ko'z yumib bo'lmaydi. Chunki, rus tili va u orqali Evropa tillaridan o'zbek tiliga o'zlashgan ko'plab baynalminal terminlar yangi tushuncha sifatida qo'llanishi natijasida o'zbek ilmiy terminologiyasi ham anchagina boyidi va uning uzviy qismiga aylanib qoldi.

O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasida ba'zi ruscha-baynalminal terminlarni aynan, tarjimasiz qo'llash ayrim holatlarda o'zini oqlab keldi. Biroq

ona tilimizda ularning aniq muqobillari bo'lgani va ular ayni bir iqtisodiy tushunchani aniq ifodalab kelgani holda hadeb baynalmilal terminlarni amaliyotga kiritaverish haqli e'tirozlarni keltirab chiqardi. Boy yozma adabiyotga ega bo'lgan tillarda qo'llab kelingan va ko'p tillarda baynalmilal tillarning muqobili sifatida ishlatilishi mumkinligi ayonlashganda tilning ichki imkoniyatlaridan to'la foydalanish va tegishli terminlarni tarjima qilish to'g'ri yo'l ekanligi ilmiy adabiyotlarda alohida ta'kidlab o'tilgan.

Aniqroq qilib aytilganda, qator baynalmilal terminlarning qo'llanishini ma'qullaganda, o'zbek tilining tarixiy an'analarini hisobga olganda, o'zbek tilining tarixiy an'analarini hisobga olgan holda, terminologiyani tartibga solish ishlarini yo'lga qo'yish lozim bo'ladi, ya'ni ma'lum tushunchani ifodalashda milliy va baynalmilal atamalarning har ikkalasi ham terminologik talablarga teng javob bergan hollarda milliy terminning o'zini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Aksincha, sinonimik qatordagi o'zbekcha termin ko'p asosli, ya'ni birikmalardan iborat bo'lsa yoki tushuncha to'g'risida chalkash, noto'g'ri fikr tug'dirsa, bunday hollarda, albatta, baynalmilal termin-afzallikka ega bo'ladi va uni ilmiy termin sifatida tan olish kerak.

Yuqoridagi kabi o'zbekcha va baynalmilal terminlar o'zaro sinonimiyasiga bir qancha misollar keltirish mumkin: *hisobchi-buxgalter, qarzdor-debitor, so'rovnoma-anketa, ijara-arenda, taqchil-defitsit, soliq-nalog* va b. kabi sinonimlarning birini tanlab olib boshqasidan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Ayni shunday holatlarda, bizningcha, bu sinonimlardan birinchilarini iqtisodiy termin sifatida bemalol qo'llayverish mumkin. Ulardan ko'pining tegishli manbalarda iqtisodiy ma'noda qo'llanayotganligi ham shundan dalolat beradi. Fikrimizning dalili uchun ayrim matnli misollar keltiramiz: *Soliqlar-davlatning korxona va tashkilotlardan hamda aholidan undiradigan pul mablag'idir. Soliq ikki vazifani o'taydi* (Iq,N, 90). *Ijara shartnomasi ijaraga beruvchi bilan ijaraga oluvchining munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanadi* (HA, 61).

Lug'aviy sinonimiyaning yana bir ko'rinishi bitta asosli (tub yoki yasama) leksemalardan iborat terminlar bilan birikma terminlarning parallel ravishda

qo’llanishidir. Bunday sinonimiya, birinchidan, o’zbek tilida avvaldan qo’llanib kelgan iqtisodiy termin yoki shu ma’noda qo’llanayotgan leksemaning mazmunini konkretlashtirish uchun foydalanish oqibatida kelib chiqqan. Masalan: *mahsulot-savdo mahsuloti, tanga-mayda pul, harajatlar-qo’shimcha chiqimlar, nafaqa-yordam puli, yakancha-mayda savdogar, xaridor-sotib oluvchi.*

Ikkinchidan, o’zbek iqtisodiyot terminologiyasiga kirgan va kirib kelayotgan ruscha-baynalmilal terminlarni izohlash yoki, aksincha, ularning o’zbek tilidagi kalkalarini tushuntirishga intilishdan ham o’ziga xos sinonimlar paydo bo’ladi. Masalan: *menedjer-uddaburon ish boshqaruvchi, biznesmen-usta savdogar, brakeraj-mol nazorati* va b. Bunday holatlarda ruscha-baynalmilal terminlarning o’zi qo’llanishini ma’qul deb bilamiz.

O’zbek tilidagi iqtisodiy terminlar sinonimiyasinnig yuqorida ko’rib o’tilgan turlari bevosita yoki bilvosita lug’aviy (leksik) sinonimiyaga aloqador.

Yana bir masala, morfologik, ya’ni so’z yasovchi qo’shimchalarning qo’llanishi bilan bog’liq sinonimlarning ayrim ko’rinishlari va ularni bartaraf qilish yo’llari haqida fikr yuritamiz.

Grammatik (morfologik) variantlar. O’zbek iqtisodiy terminlarining lug’aviy uslubiy sinonimlardan tashqari so’z yasovchi qo’shimchalarning o’rinli yoki o’rinsiz ishlatilishi natijasida variantdor terminlar paydo bo’ladi. Bunday variantdorlik sodda, yasama hamda qo’shma terminlarning yoki birikma terminlar aniqlovchi qismining teng ma’noli xilma-xil affikslar bilan shakllantirilishi tufayli yuzaga keladi.

Ma’lumki, XX asrning 20-30 yillarida rus tili milliy tillar zamonaviy terminologik tizimlarining shakllanishida etakchi o’rin tutib keldi. Biroq leksema o’zlashtirishning ma’lum qonun-qoidalari etarli darajada ishlab chiqilmaganligi boisdan o’sha davrlarda o’zbek tili iqtisodiyot terminologiyasida ham ruscha-baynalmilal terminlarni xilma-xil tarzda shakllantirishga majbur bo’lingan edi. Bunday holat esa bir tushunchani ifodalovchi terminlarning har xil ko’rinishlarga ega bo’lib qolishiga olib keldi. Misollar keltiramiz: *boxg’altir-boxgaltir, boxgalteriya-buxgalteriya, bankavay belat-bank bileti, priskurant-preyskurant,*

bedjet-byudjet, rasxot-rasxod, qurs-kurs, banka-bank, berja-birja, blanka-bulanka-blank va boshqalar.

Qayd etish lozimki, hozirgi bosqichda bu xildagi variantdorlikka chek qo'yilgan, ya'ni ruscha-baynalmilal terminlar ayni qator tildagiday yozib kelinmoqda .

Ba'zi hollarda morfologik usulda, ya'ni affikslarning qo'shilishidan hosil bo'lgan bir asosli leksemalar yonida shu asos ishtirokida hosil qilingan birikmalar paydo bo'lib qoladiki, bu ham o'ziga xos sinonimiyani yuzaga keltiradi. Fikrimizning dalili uchun ayrim misollar keltiramiz: *mulkdor-mulk egasi, iste'molchi-iste'mol qiluvchi, arzonlashtirish-arzon narxda sotish, savdogar-savdo qiluvchi, bozorgir-bozori chaqqon, naqdina-naqd pul, bankchi-bank egasi, daromadlilik-daromad keltirish* va b.

O'zbek tili iqtisodiyot terminologiyasida so'z yasovchi affikslarni o'rinli yoki ayrim hollarda o'rinsiz qo'llash natijasida ham ko'plab variantdor terminlar bo'ladiki, bu xildagi variantdor terminlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: *savdogar-savdo pesha, ishchan-ishbilarmon, daromadlilik-serdaromadlik, chegirish-chegirma* va boshqalar.

Ba'zi hollarda ruscha-baynalmilal affikslar bilan o'zbekcha affikslar teng qo'llanishi natijasida ham variantdorlar hosil bo'ladi: *bankchi-bankir, bizneschi-biznesmen, aktsiyador-aktsioner.*

Yuqorida iqtisodiyot terminologiyasida birikma terminlarning o'rni haqida batafsil so'z yuritilgan edi. Shunisi ham borki, bu kabi terminlar aniqlovchi komponentining asosi bir xil bo'lsa-da, hilma-xil qo'shimchalar bilan shakllanishi mumkin. Pirovardida ayni bitta tushunchani ifodalovchi ikki yoki undan ortiq variantdor birikma terminlar yuzaga keladi. Masalan: *narxsiz raqobat-benarx raqobat, notarif to'siqlar-tarifsiz to'siqlar, aktsionerlik sertifikati-aktsiyadorlik sertifikati, meros huquqi-merosxo'rlik huquqi, birjaviy kurs-birja kursi, ishbay ish-ishbayli ish* va b.

Ba’zi iqtisodiy terminlarni qo’llashda ham ortiqchalikka (pleonazm) yo’l qo’yish natijasida sinonimlar paydo bo’ladi: *isloh-islohot, qarz-qarzdorlik, barter-barter kelishuvi, boj-boj puli, integratsiya-iqtisodiy integratsiya* va b.

Shuningdek, birikma terminlar variantdorligining yana bir ko’rinishi borki, bunda birikma tarkibidagi leksemalarni, birinchidan ot+ot modeli asosida, ikkinchidan sifat+ot modeliga binoan shakllantiradi. “Ishbilarmon lug’ati”dan olingan quyidagi misollar shundan dalolat beradi: *birja firmasi-birjali firma, daromadlarni indekslash-daromadlar indeksatsiyasi* kabilar.

O’zbek tili iqtisodiyot terminologiyasida yuqorida ko’rib o’tilgan lug’aviy sinonimiya, grammatik (morflogik) va variantdorlik, imloviy chalkashliklarning mavjudligini, umuman terminologik tizimlar bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlarning kamligi, tegishli fan mutaxassislari bilan tilshunoslar o’rtasida aloqaning yo’qligi, terminologik lug’atlar nashr etishning qoniqarli emasligi, va eng muhimi, terminlarning yasalishi, qo’llanish ustidan nazoratning sustligi bilan izohlash mumkin, deb hisoblaymiz.

Qisqasi, iqtisod fani aniq va tartibli tushunchalarning ifoda vositasi-terminlarning ham shu tarzda aniq va tartibli bo’lishini talab qiladi. Lekin amalda iqtisodiy terminlarni qo’llashda muayyan chalkashliklarning borligi kuzatiladi. O’zbek tilining iqtisodiyot terminologiyasida sinonimiya, terminlarni to’g’ri yozish singari bir qator hal qilinmagan masalalar shular jumlasidandir.

Ba’zi muallif va tarjimonlarning iqtisodiy terminlarning yasalish va qo’llanish tartibiga rioya etmasligi tufayli qayd etilgan qator chalkashliklar yuzaga kelgan deb o’ylaymiz.

Chunki, sinonimiya, variantdorlik, terminlar imlosining xilma-xilligi terminologiyadagi asosiy yo’nalishlar-tizim va me’yorga solish kabilar zid keladi. Terminologiyani me’yorlashtirish ishida fan mutaxassislari bilan tilshunoslarning hamkorligi yaxshi natijalar berishi mumkin.

Tayanch so’z va iboralar:

1. Sinonimiya
2. Omonimiya
3. Polisemiya
4. Terminologik tizim
5. Tartibga solish
6. Terminga qo’yilgan talab
7. Yagona ma’no
8. Sinonimi yo’q
9. Lug’aviy sinonimiya
10. Grammatik sinonimiya
11. Variantdor terminlar
12. Ruscha-baynalmilal terminlar
13. Tub termin
14. Yasama termin
15. Bir asosli leksema
16. Birikma terminlar

Takrorlash uchun savollar:

1 Terminlar qanday qoidalar asosida yuzaga keladi?
2 Terminlarni tartibga solishga kimlar rahnamolik qilishi kerak?
3 Terminlarning sinonimiyasi deganda nimani tushunasiz?
4 Terminlar sinonimiyasining zarari nimalardan iborat?
5 Tub va yasama terminlarning qabul qilinishida farq bormi?
6 Terminlarni tartibga solishga to’sqinlik qilayotgan sabablarni bilasizmi?

6-mavzu: Iqtisodiyot tilining xususiyatlari va tarjima muammolari

REJA:

1. **Ta’lim va iqtisodiyot.**
2. **Iqtisodiyot tilining asosiy xususiyatlari**
3. **Iqtisodiyot leksikasi va tarjima**

O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng mamlakatimizda chuqur ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar boshlab yuborildi. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida xususiy mulk hamda tadbirkorlar manfaatini himoya qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Islohotlar taqdiri esa yuqori malakali mutaxassislarga bog’liqdir.

Etuk mutaxassislar tayyorlash tizimini shakllantirishda O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” muhim ahamiyat kasb etmoqdi.

Ma’lumki, bakalavr-iqtisodchi mutaxassisligi uchun talaba 4 yil ta’lim oladi. U 4 yil davomida 45-50 ta fandan reyting natijasi bo’yicha yakuniy nazorat topshirishi, 4-5 ta kurs ishi, diplom ishi yozishi lozim.

Toshkent Moliya institutida bakalavr-iqtisodchi quyidagi yo’nalishlar bo’yicha tayyorlanadi: kasb-ta’limi (5140900), menejment (5340200), moliya (5340600), bank ishi (5340700), soliqlar va soliqqa tortish (5340800), buxgalteriya hisobi va audit (5340900).

Yuqori malakali bakalavr-iqtisodchilarni tayyorlash esa ta’lim tizimiga bog’liq. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida kadrlar tayyorlash muammosining hal qiluvchi masalasi barcha bosqich o’quv yurtlarida o’quv adabiyoti bilan ta’minlash ekanligini ta’kidlab o’tdilar: “ta’lim darslikdan boshlananadi . . . deyarli barcha sohada darsliklarimiz ahvoli bugungi va ertangi kun talablari darajasida emas”. Shu sababli davr ruhiga mos tushuvchi bozor iqtisodiyoti g’oyalarini aks ettiruvchi yangi o’quv qo’llanmalarni,

darsliklar hamda ommabop risolalarni yaratish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir.

Toshkent Moliya institutida bu sohada katta ishlar amalga oshirildi. 1997 yildan boshlab “Mehnat” nashriyoti iqtisod fanlari fanlari doktori, professor Yorqin Abdullaev rahbarligida tayyorlanayotgan “Iqtisod, islohot va moliya-kredit tizimi” turkumini chop etmoqda. Turkumni tayyorlashda moliya, kredit, pul, bank, soliq, sug’urta, investitsiya, qimmatli qog’ozlar, audit, statistika, makro va mikroiqtisodiyot, buxgalteriya hisobi sohasida ko’p yillik nazariy tajribaga ega bo’lgan etakchi olimlar, mutaxassislar ishtirok etishmoqda. 30 ta kitobdan iborat bo’lgan mazkur turkum savol-javob asosida tuzilgan, bo’lib, ularda iqtisodiy islohotlarni rivojlantirish tamoyillari, bu borada qabul qilingan farmon va qarorlar, banklar bilan bo’ladigan munosabatlar, soliqlar va ularning ijrosi xususida so’z yuritiladi.

Shuningdek, har bir kitobdan o’rin olgan test savollariga javob berish bilan egallangan iqtisodiy bilimlar darajasini sinab ko’rish mumkin.

Iqtisodiyotga oid bu qo’llanmalarga I.Karimovning “Istiqlol yo’li: muammo va rejalar”, “O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li”, “O’zbekiston-bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li”, “Iqtisodiy islohot: mas’uliyatli bosqich”, “O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida” va boshqa asarlari asos qilib olingan.

Akademik M.Sharifxo’jaev va professor A.O’lmasovning “Iqtisodiyot nazariyasi”, M.Sharifxo’jaev va Yo.Abdullaevning “Menejment” darsliklari, Yo.Abdullaevning “Stastika nazariyasi”, A.Vohobov, A.Ibrohimovlarning “Moliyaviy tahlil” dasrliklari, professorlar A.O’lmasov va N.To’xlievlarning “Bozor iqtisodiyoti” hamda “Ishbilarmonlar lug’ati” kitoblari va boshqa adabiyotlarda iqtisodiyotga tegishi ko’plab muammolar aks etgan. Bu adabiyotlar faqatgina iqtisodiy bilimlar manbai bo’lib qolmasdan, iqtisodchi bakalavrlarni ma’naviy, madaniy, ijtimoiy, insoniy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi iqtisodiy islohotlar iqtisodiyot tilida jiddiy o'zgarishlar bo'lishiga asos bo'layapti. Vujudga kelayotgan iqtisodiy tushunchalar yangi iqtisodiy so'z va terminlarni talab qilayapti. Demak, iqtisodiyot tilining lug'at tarkibi to'xtovsiz ravishda boyib borayapti. Iqtisodiyot tili haqida so'z yuritar ekanmiz tushuncha, so'z, termin, birikma va gap haqida qisqacha ma'lumot berishni lozim deb topamiz.

Tushuncha moddiy borliq, predmet yoki uning xossasi, hodisa yoki voqeaning kishi miyasidagi in'ikosi, umumlashgan aksidir. Tushunchaning umumlashtirish xususiyati nihoyatda muhim belgidir, chunki inson tajribalarining umumlashtirilgan natijasigina tushunchada aks etadi. Tushunchaning umumlashtirish xususiyatlari so'zda ham o'z ifodasini topadi, chunki tushuncha so'z ma'nosining yadrosini tashkil qiladi. So'z tilining asosiy birligidir, chunki u birinchidan, konkret predmetlarni yoki abstrakt tushunchalarni (voqea-hodisalar, harakat, belgi, holat) ataydi, ikkinchidan grammatik qoida-qonuniyatlarga tayangan holda gap tuzish va fikr ifodalash imkonini beradi, uchinchidan, kishi emotsiyasini, ruhiy holatini ifodalaydi.

Tushuncha va so'z munosabatini "bozor" leksemasi misolida ko'rib chiqamiz. Ma'lumki, tovar ayiraboshlash bozorning dastlabki shakli bo'lgan. Bozor bu alohida savdo-sotiq qilinadigan joy. Bozor-bu oluvchi bilan sotuvchi uchrashadigan joy.

Ba'zilar terminni so'zga qarama-qarshi qo'yishadi, holbuki terminni ham leksikologiya va grammatika kategoriyalari orqali o'rganish terminning imkoniyatlari kengligini tasdiqlaydi. Termin so'z singari ba'zi xususiyatlarga ega:

1) Polisemantik, xususan sinekdoxa va metanimiya terminlarda ham bo'ladi: *kreditning elastikligi, o'rinbosar tovarlar, o'rmalovchi inflyatsiya.*

2) Iqtisodiy terminlarning ba'zilarida omonimiya mavjud: *chek, muomala.*

3) Iqtisodiyot terminologiyasida sinonimiya mavjud: *sarmoya-mablag', mezon-o'lchov, ustama-qo'shimcha, qarzdor-debitor, qarz-kredit.*

4) So’z yasovchi affikslar, terminlar yasashda ishtirok etadi: *xazinachi, hisobchi, undirma, tadbirkor, mulkdor, qarzdor, shartnoma, ta’minot, bojxona, mulkchilik, sudxo’r, merosxo’r.*

So’z birikmasi ikki yoki undan ortiq so’zning birikishidan hosil bo’ladi. So’z birikmasi ma’no xususiyatiga ko’ra ikkiga bo’linadi: 1) erkin birikma, 2) turg’un birikma.

Erkin birikmada iqtisodiy so’zlar ma’no va grammatik jihatdan birikadi: *qog’oz pullar, pul tizimi, kredit kartochkasi.*

Turg’un birikmada esa so’z yoki terminga ko’chma ma’noda qo’llaniladi: *o’rmalovchi, inflyatsiya, suzib yuruvchi inflyatsiya, yuguruvchi inflyatsiya.*

Iqtisodiyot leksikasi xalq tilining boyishiga, rivojlanishiga katta ta’sir etadi. O’zbek iqtisodiyot leksikasini shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Umumiste’mol iqtisodiy so’zlar.
2. Iqtisodiy terminlar.

Umumiste’mol iqtisodiy so’zlarga bozor, pul, qarz, boylik, savdo, soliq, pul va shu kabi hammaga tushunarli bo’lgan so’zlar kiradi.

Iqtisodiy terminlar esa umumiste’moldagi so’zlardan bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Iqtisodiy termin o’z-o’zidan paydo bo’lmaydi, balki xususiyatiga va vazifasiga ko’ra kashf etiladi. Iqtisodiy terminning ma’nosi bitta bo’ladi. So’z esa bir necha ma’nolarda qo’llanilishi mumkin. O’zbek tilining iqtisodiy terminlari iqtisodiyotning turli sohalariga bog’liqdir.

Ularni ixtisosliklardan kelib chiqqan holda quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1. Bank ishi: *milliy valyuta, so’m, qiymat, narx, talon, kupon, jamg’arma, xazina, qog’oz pul, banknot, veksel, chek, kredit kartochkalari, pul oboroti, pul massasi, pul agregati, bank, pul tizimi, metallik nazariyasi, miqdoriylik nazariyasi, pul muomalasi, inflyatsiya, kredit, tijorat krediti, bank krediti, davlat krediti, xalqaro kredit, kreditning chegaralari, lizing, hisobli kredit, lamsbardli kredit, lizing operatsiyalari, lizing shartnomasi, kredit mexanizmi, kredit yig’indisi, foiz*

stavkasi, kredit xavf-xatari, aktiv, passiv, foiz marjasi, eksportli kredit, muammoli ssuda.

2. Soliq va soliqqa tortish: *soliq ob'ekti, soliq sub'ekti, soliq manbalari, soliq normasi, soliq birligi, soliq stavkasi, soliq dekloratsiyasi, soliq siyosati, soliq mexanizmi, soliq tizimi, to'g'ri soliq, egri soliq, bojxona boji, davlat boji, ijara xaqqi, to'lov, yig'im, daromad solig'i, foyda solig'i, avans to'lovlari, foyda, yalpi foyda, korxonalar daromadi, soliq to'lovchi, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz, aktsiz solig'i, er solig'i, mol-mulk solig'i, aholi solig'i, soliq idorasi, soliq qo'mitasi, soliq qonunchiligi*.

3. Moliya: *moliya funktsiyasi, moliya siyosati, moliya nazariyasi, moliyaviy nazorat, moliyaviy resurs, moliyaviy munosabat, iqtisodiy munosabat, mulkiy munosabat, davlat byudjeti, amortizatsiya ajratmalari, amortizatsiya fondi, ish haqi fondi, rag'batlantirish fondi, taqsimlash, tartibga solish, pensiya fondi, bandlik fondi, moliya rejasi, daromad va xarajat balansi, biznes reja, rejalashtirish, xo'jalik sub'ekti, xayriya fondi, yalpi ichki mahsulot* va boshqalar.

Umuman iqtisodiy so'z va terminlar uzoq davrlar mobaynida yaratilgan leksemalardir. Ma'lumki har qanday jamiyatda iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Shu sababli iqtisodiyotga tegishli so'z va terminlar aniq, lo'nda va mantiqan asoslangan bo'lmog'i lozim.

O'zbek iqtisodiy terminologiyasida milliylik va baynalmilallik masalasi murakkab masaladir, chunki u nafaqat o'zbek tilida balki boshqa tillarda ham etarlicha hal qilinmagan.

Ma'lumki, terminni tilga qabul qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki o'zbek tilining tovush tizimi va grammatik qurilishi termin qo'llanilayotgan tilnikidan keskin farq qiladi. Shu bilan birga kirib kelayotgan so'z yoki termin aynan o'z ma'nosida boshqa tilda qo'llanilmasligi mumkin. Ba'zan esa terminning kirib kelish jarayonida ma'no o'zgarishlar ro'y beradi. Ma'lumki, terminlar bir tildan ikkinchi tilga o'tayotganida bir qator xususiyatga ko'ra farq qiladi.

Xususan fonetik yoki tovush jihatidan qabul qilinayotgan iqtisodiy so'z yoki termin o'zbek tilining tovushlariga mos bo'lishi lozim. Mos kelmaydigan tovushlar

esa tushib qoladi yoki almashinadi. O'zbek tiliga kirib kelgan va kelayotgan iqtisodiy so'zlarning asosiy qismini rus va evropa tillarning leksikasi tashkil etadi.

Rus tilidan kirib kelayotgan so'z va terminlar og'zaki va yozma nutq orqali o'zlashtirilmoqda. Oldingi mashg'ulotlarda rus tilidan o'zbek tiliga o'tgan iqtisodiy so'zlarni ikki guruhga ajratgan edik:

1. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrgacha.
2. XX asrning boshidan 90-yillargacha.

Mustaqillikdan so'ng rus tilidan iqtisodiy so'zlarni o'zlashtirishda qonuniy va ongli yo'l tanlandi. Mustaqillikka qadar ko'pgina iqtisodiy so'zlarning rus tilidagi va o'zbek tilidagi variantlari parallel qo'llanilgan edi:

Soliq - nalog

Iqtisodiyot - ekonomika

Foiz - protsent

Mustaqillikdan so'ng o'zbek iqtisodiy terminologiyasida o'ziga xos yo'l tutildi.

Bu quyidagilardan iborat:

1. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlar o'zbek tilida aynan tarjimasiz qo'llanilmoqda: *valyuta, dollar, kredit, banknot, akkreditiv, lizing, forfeting, libor* va boshqalar.

2. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlarning ba'zilari tarjima qilindi yoki uning o'zbek tilidagi muqobillari qo'llanila boshlandi: *anketa-so'rovnoma, defitsit-taqchil, biznesmen-bizneschi, litsenziya-ruhsatnoma, kapital-mablag', reforma - islohot.*

Umuman baynalmilal iqtisodiy so'zlarni o'zbek tiliga qabul qilishda ko'p jihatlarni e'tiborga olmoq lozim. Iqtisodiy termin o'zbek tiliga kirib kelayotganda uning quyidagi jihatlariga e'tibor berish kerak bo'ladi: terminning o'zbek tilini tovush tizimiga mosligiga; uning o'zbekcha muqobili bor-yo'qligiga; kalka yoki tarjima qilish zaruriyatiga; iqtisodiy terminning mazmuniga; uning sodda va ravonligiga; mohiyatiga va o'ng'ayligiga.

Boshqa tillardan o’zbek tiliga kirib kelayotgan iqtisodiy terminlar dastlab mutaxassislar va atamaqo’m muhokamasidan o’tmog’i, so’ngra Oliy Majlisning tegishli qo’mitasidan tasdiqlanmog’i lozim. Ana shundagina bunday iqtisodiy terminlar qonuniy kuchga kiradi va ularni bemalol qo’llash mumkin.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o’tish jarayonida tilimizga ko’pdan-ko’p terminlar (atamalar) kirib kelmoqda. Bularning muayyan qismi ona tilimiz imkoniyatlari asosida o’zbekchalashtirib berilmoqda, ma’lum qismi esa baynalmilal o’zlashma sifatida ishlatilmoqda.

Iqtisodiyot terminlarining o’zbek tilida qo’llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin: ko’plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o’zbekchalashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o’zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan berilmoqda, ma’lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o’zbek tili qonun-qoidalari asosida yasalmoqda. Masalan: *auktsion-kimoshdi, makler-dallol, kommersant-tijoratchi, komissionnie voznagrajdeniya-vositachilik haqi, ekonomika-iqtisodiyot, chek na pred’yavitelya-oq chek, shaxssiz chek, aktsioner-aktsiyador, biznesmen-bizneschi* va hokazolar.

2. Yana bir usul dunyoning ko’pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o’zbek tiliga ham o’z holicha o’zlashtirilishidir. Bu o’rinda shuni ta’kidlamoq zarurki, yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o’zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko’pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o’z asl holicha ishlatiladi va bu qo’llanish dunyo bizneschilari axborot almashinuvi uchun qulay. Masalan: *auditor, avizo, valyuta, lizing, menedjer.*

3. Terminlarning ma’lum qismi turli muqobillarda har xil qo’llanildi. Chunonchi, rus tilidagi “aktsionernoe obshchestvo” termini o’zbek tilida *aktsionerlik jamiyati, hissadorlik jamiyati, aktsioner jamiyat* kabi variantlarda, “*barter” termini mol ayraboshlash, tovar ayriboshlash, muvozanat, barter* variantlarida, “broker” termini *broker, dallol, kelishtiruvchi, bitishtiruvchi, vositachi variantlarida, “demping” termini esa demping, arzonga sotish, narxni tanlash, molni chetga juda past narxda sotish* kabi variantlari ishlatilyapti. Albatta,

bunday har xilliklar soha mutaxassislarini chalkashtiradi, axborot almashinuvini qiyinlashtiradi. Shuning uchun terminologiyadagi asosiy printsip-“bir tushunchaga bitta termin” ishlatilishiga erishish eng dolzarb masala bo’lib qolmoqda. Yuqorida aytilganlardan ma’lumki, iqtisodiyot terminologiyasida bir yo’la bir necha muammolar kelib chiqdi. Uning echimini iqtisodchi va tilshunos olimlar, mutaxassislar, atamashunoslar bilan birgalikdagina topish mumkin. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo’mitasi buni hisobga olib, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti hamda O’zFA Tilshunoslik instituti bilan hamkorlikda 1996 yil 30 oktyabrda “Iqtisodiyot terminlarini tartibga solish masalalari”ga bag’ishlangan ilmiy-amaliy konferentsiya o’tkazdi. Unda oliy o’quv yurtlari iqtisodiyot kafedralari va iqtisodiyot ilmiy mutaxassislari xodimlari, tilshunoslar, atamashunoslar ishtirok etdilar. Atamashunoslik qo’mitasi xodimlari iqtisodiyot terminologiyasidagi variantlilik-bir tushunchani o’zbekchada turli muqobillarda ifoda etish holatlarini to’plab chiqish va ularni “Bozor iqtisodiyotiga oid ayrim terminlarning qo’llanishi” jadvali holiga keltirdi. Unga o’zbek tilida turli shakllarda qo’llanayotgan baynalmilal terminlargina kiritildi. Mazkur jadval ko’paytirilib, konferentsiyadan ancha oldin iqtisodiyotga oid oliy o’quv yurtlari, ilmiy muassasalar mutaxassislariga tarqatildi. Jadvalda qo’llanayotgan muqobillardan qay birini tanlash mumkinligi haqida Atamaqo’mning dastlabki tavsiyasi berilgan bo’lib, olimlar va mutaxassislar takliflari uchun maxsus ustun ochiq qoldirilgan edi. Ilmiy-amaliy konferentsiyada oldindan takliflar olinib, o’rganildi va oxirgi tavsiya shakllandi. Konferentsiya davomida bu tavsiyalar asosan ma’qullandi, bildirilgan fikr-mulohazalar asosida yanada takomillashtirildi. Ma’lumki, yangi tahrirdagi “Davlat tili haqidagi” Qonunning (1995 yil 21 dekabr) 7-moddasida “Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo’mitasining roziligi bilan o’zbek tiliga joriy etiladi” deyilgan. Atamaqo’m ana shu qoidaga amal qilib, ilmiy-amaliy konferentsiyada ma’qullangan iqtisodiyotga oid bir gurux terminlarni amalga joriy etishga ijozat so’rab Oliy Majlisning Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo’mitasiga

murojaat etdi. Oliy Majlis Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo’mitasining “O’zbek tiliga yangi atamalarni joriy etish xaqida” 1996 yil 24 dekabrdagi qarorida shunday deyiladi: “O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Atamashunoslik qo’mitasi tomonidan kiritilgan “Bozor iqtisodiyotiga oid ayrim terminlarni qo’llanish jadvali” qo’mita a’zolari va qo’mita qoshidagi o’zbek tiliga yangi atamalarni joriy etish bo’yicha ekspert guruxi a’zolari tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni (ilovaga muvofiq) inobatga olgan holda ma’qullansin va uni amaliyotga joriy etishga rozilik berilsin”. Davlat tili haqidagi Qonunga asosan Oliy Majlis qo’mitasi tomonidan ma’qullanib joriy etilayotgan ushbu atamalarga matbuotda, ommaviy axborot vositalarida, turli vazirlik, qo’mita va idoralarda ish yuritishda amal qilinishi shart.

O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Fan, ta’lim, madaniyat va sport masalalari qo’mitasi tomonidan amalga joriy etishga rozilik berilgan iqtisodiyotga oid terminlar ruyxatidan namunalar:

Ruscha qo’llanishi	**O’zbekcha qo’llanishi**
avans	avans, bo’nak
avizo	avizo
agent	agent
agenstvo	agentlik
aktiv	aktiv (buxg.)
aktsiz	aktsiz
aktsionernoe obshchestvo	aktsiyadorlik jamiyati hissadorlik jamiyati
aktsept	aktsept
aktseptant	aktseptant
assiginovanie	mablag’ ajratish
auditor	auditor
auktsion	kimoshdi savdosi
auktsionist	auktsionchi

balans	balans
bankrostvo	bankrotlik
barter	ayriboshlash
biznes	biznes
biznesmen	bizneschi
birja truda	mehnat birjasi
bonus	bonus
brakeraj	saralash
broker	broker
buxgalter	buxgalter
buxgalteriya	buxgalteriya
byudjet	byudjet
valyuta	valyuta
valyutniy auktsion	valyuta kimoshdi savdosi
veksel	veksel
garant	kafil
garantirovanniy	kafolatli
generalnaya litsenziya	bosh litsenziya
giperinflyatsiya	giperinflyatsiya
“goryachie dengi”	“qaynoq”pullar
grant-element	grant-element
gratifikatsiya	rag’batlantirish
debet	debet
debitor	debitor
debitorskaya zadoljennost	debitorlik qarzi
devalvatsiya	devalvatsiya
deklaratsiya	deklaratsiya
demping	demping
depozit	depozit
defitsit	taqchillik

defitsit byudjetniy	byudjet taqchilligi
dolya	hissa
dotatsiya	dotatsiya
diler	diler
denejnie znaki	pul belgilari
zayom 1	qarz
zayom 2	zayom
zakladnaya	garov hujjat
inkasso	inkasso
inostrannaya valyuta	chet el valyutasi
intellektualnaya sobstvennost	intellektual mulk
kapital	sarmoya
kapitalovlojenie	kapital qo’yilmasi
kommersant	tijoratchi
kotirovka	narxlash
lizing	lizing
litsenziya	litsenziya
makler	dallol
neustroyka	tovon
obligatsiya	obligatsiya
oborot	aylanma
operatsii valyutnie	valyuta operatsiyalari
privatizatsiya	xususiylashtirish
saldo	saldo
ssuda	qarz
schet	hisob
tarif	tarif
tekushchiy schet	joriy hisob

Tayanch so’z va iboralar:

1. Iqtisodiyot
2. Ta’lim
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi
4. Termin qabul qilish
5. Termin yasash
6. Termin tarjimasi
7. Kalka
8. Hissadorlik jamiyati
9. Auktsion
10. Dotatsiya
11. Joriy hisob
12. Kommersant

Takrorlash uchun savollar:

1. Iqtisodiyotning tilga ta’siri nimada?
2. Terminlar qanday qabul qilinadi?
3. Kalka nima?
4. Iqtisodiy so’z va termin o’rtasidagi farq nimada?
5. Atamaqo’mning vazifasi nimalardan iborat?
6. Terminlarning tarjima qilish usullarini ayting?
7. Qachon termin qonuniy kuchga kiradi?

7-mavzu: Iqtisodiyot va o’zbek hujjatchiligi

REJA:

1. **Iqtisodiyot va hujjatchilik tarixi.**
2. **Hujjatlarning turlari**

O’zbekiston mustaqillikka erishgach iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda jiddiy islohotlar boshlandi. Bularning hammasi yozma va og’zaki nutqda o’z in’ikosini topayapti. Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni jadal amalga oshirishda yozma manbalarning, hujjatlarning roli beqiyosdir.

O’zbek hujjatchiligi qadimiy tarixga ega. Turli davrlardagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar o’zbek hujjatchiligiga o’z ta’sirini ko’rsatgan. Hozirgi kunda eski turkiy (o’rxun-enasoy), so’g’d, uyg’ur, arab, fors, kirill (rus) yozuvlar bitilgan hujjatlar mavjud.

Qadimgi turkiy (o’rxun-enasoy) yozuvida bitilgan hujjatlar yo’q qilingani uchun ham ba’zilarigina saqlab qolingan. Ular ham toshlarda yozilgan.

V III asrdan boshlab arab yozuvidagi hujjatlarga o’tish boshlangan. V III-XIX asrlarda arznoma, bitim, yorliq, noma, tilxat, farmon kabi o’nlab hujjatlar qo’llanilgan. Bu hujjatlar o’zbek, arab, fors-tojik tillarida yaratilgan. Ish yuritish bilan bog’liq hujjatlar hukmdorlarning saroy va mahkamalarida yaratilgan. O’zbek xonliklarida ish yuritish hujjatlari devonxonada amalga oshirilgan. Hujjatlarni yaratuvchi (yozuvchi) lar munshiy yoki mirza deb yuritilgan.

XX asrga qadar yaratilgan manbalarda arabcha, forscha-tojikcha turg’un birikma va qoliplar bilan birga o’zbek tiliga xos tartibdagi va nutqiy qolipdagi hujjatlar ham anchaginani tashkil etadi. XX asrning 90 yillariga qadar hujjatchiligimiz rus tilining to’liq ta’sirida bo’ldi.

Mustaqillikdan so’ng o’zbek hujjatchiligini davr talablari asosida shakllantirish bo’yicha bir qator ishlar qilindi. O’zbek tilining rasmiy ish yuritish uslubini shakllantirish va rivojlantirishda N.Mahmudov, N.Mahkamov,

A.Madvalievlarning xizmati beqiyosdir. Ular tomonidan nashr etilgan “O’zbek tilida ish yuritish” kitobi o’zbek hujjatchiligida muhim voqea bo’ldi.

O’zbek tilida hujjatlarning turlari ko’p va xilma-xildir. Mavjud adabiyotlarda hujjatlar quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Yaratilish o’rniga ko’ra:

a) ichki hujjatlar;

b) tashqi hujjatlar.

2. Mazmuniga ko’ra:

a) sodda hujjatlar;

b) murakkab hujjatlar.

3. Mazmun bayonining matniga ko’ra:

a) xususiy hujjatlar;

b) namunali hujjatlar;

v) qolipli hujjatlar.

4. Tegishliligiga ko’ra:

a) xizmat hujjatlari;

b) shaxsiy hujjatlar.

5. Xizmat mavqeiga ko’ra:

a) tashkiliy hujjatlar;

b) farmoyish hujjatlar;

v) ma’lumotsimon axborot hujjatlari;

g) xizmat yozishmalari.

Hujjatlarni yaratishda ma’lum qonun va qoidalarga rioya etiladi. Quyida iqtisodiyot sohasida ko’p qo’llaniladigan ba’zi hujjatlar haqida ma’lumotlar va namunalar berilmoqda.

Tarjimai hol: tarjimai holning qo’lyozma holida tayyorlanishi, unda qamrab olinadigan ma’lumotlar: muallifning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug’ilgan yili, kuni, oyi va joyi, ota-onasi, aka-ukasi, opa-singillari, ma’lumoti, mutaxassisligi, o’qigan, ishlagan joylari, jamoat ishlari, oilaviy ahvoli (turmush o’rtog’i, farzandlari) haqidagi ma’lumotlar, yashash manzili, yozilgan sana va imzo bilan rasmiylashtiriladi.

TARJIMAI HOL

Tarjimai hol o'z qo'li bilan o'zgartirish kiritmasdan quyidagi savollar asosida yoritiladi:

1. Tug'ilgan joyi, va yili, ijtimoiy chiqishi;
2. Qachon va qaysi o'quv yurtlarini tugatgan va ma'lumoti, mutaxassisligi;
3. Qachondan mustaqil ish boshlagan, boshqa ishlarga o'tib ishlaganligi va sabablari;
4. Partiyaviyligi;
5. Qachon, qaerda va qanday jamoat ishlarida ishlagan va kim bo'lib;
6. Yaqinqarindoshlaringizdan sudlangan bormi?
7. Chetelda qarindoshlaringiz bormi(yokichet eldagilar bilan aloqangiz)

Tavsifnoma: tavsifnomaning korxona yoki o'quv yurti ma'muriyati tomonidan beriladigan rasmiy hujjatdir. Unda tavsiflanuvchining ish, o'qish, jamoatchilik faoliyati, ma'naviy-axloqiy fazilatlarining aks etiladi. Unda qayd etiladigan zaruriy ma'lumotlar: familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, kuni, oyi va joyi, ma'lumoti, ishlagan lavozimlari, ish yoki o'qish faoliyati davridagi yutuqlari, tashabbuskor va ijodkorligi, atrofdagilarga munosabati, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, hujjatni tasdiqlovchilarning imzolari, familiyalari va lavozimlari, muhr va tasdiqlangan sana keltiriladi.

Toshkent Moliya instituti kredit-iqtisod fakultetining talabasi, 1982 yilda tug'ilgan, o'zbek, "Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati" a'zosi A. Obidovga

TAVSIFNOMA

A. Obidov 1999 yilda Toshkent Moliya institutining kredit-iqtisod fakultetiga I-kursga o'qishga kirdi.

Institutda tahsil olish davrida u intizomli, ziyrak va zukko talaba sifatida o'zini ko'rsatdi. O'quv mashg'ulotlariga jiddiy yondashadi va ularni qunt bilan o'rganishga harakat qiladi.

A. Obidov "Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati" a'zosi sifatida jamoat ishlarida ham faol qatnashadi va ilmiy anjumanlarda ishtirok etadi. A. Obidov aql-zakovat, bilimdonlik talab etiladigan har qanday ishda o'zini ko'rsata oladi va dadillik bilan harakat qiladi.

U kamtarin va to'g'ri so'z, do'stlariga nisbatan doim g'amxo'r, mehribon bo'lganligi uchun ham hamkurslari unga hurmat va ehtirom bilan qaraydilar.

Tavsifnoma Toshkent Moliya instituti "O'zbek va rus tillari" kafedrasi tomonidan O'zbekiston Milliy Bankiga taqdim qilish uchun berildi.

Dekan **(imzo)** **M.Erkaboev**

“KYoIH”ning raisi **(imzo)** **O’. Norboev**

“O’zbek va rus tillari”
kafedrasi mudiri **(imzo)** **N. Husanov**

2004. 10.05. **(muhr)**

Ariza va uning turlari: ishga kirish, ishdan bo’shash, mehnat ta’tiliga chiqish, o’z hisobidan ta’til so’rash, moddiy yordam, davolanish yoki dam olish uchun yo’llanma, farzandini bog’chaga, maktabga berish uchun yoki shikoyat mazmunida yoziladigan arizalardir. Arizaning zaruriy qismlari: ariza yo’llanayotgan tashkilot, rahbar familiyasi, ismi, otasining ismi, ariza matni, ilova hujjatlar ro’yxati, ariza yozgan shaxsning imzosi, familiyasi va sanasi yozib ko’rsatiladi.

Toshkent Moliya instituti rektori,
akademik M. Sh. Sharifxo’jaevga
Toshkent shahar Sag’bon ko’chasidagi
55 uyda yashovchi O.R.Rahimovadan

Ariza

Meni shu institutning kadrlar bo’limiga kotiba vazifasiga ishga qabul qilishingizni so’rayman. Arizamga o’rta ma’lumot haqidagi va operatorlik kursini tugatganlik to’g’risidagi guvohnomalarni ilova qilaman.

2004. 09. 10. **(imzo)** **O. Rahimova**

Dalolatnoma: dalolatnoma tasdiqlovchi yoki ayblovchi hujjatdir. Uning zaruriy qismlari: uni tuzishga vakolatli tashkilot nomi, tuzilgan sana, joy, asos bo'lgan hujjat, tuzuvchilar tarkibi, guvohlar, hujjat matni, ilova hujjatlar miqdori, tuzuvchilarning imzo va familiyalar ko'rsatilishi kerak. Qabul qilib-topshirish, buyumlarni hisobdan o'tkazish va hisobdan chiqarish, baxtsiz hodisalar, tabIIy ofatlar oqibatini tekshirish, yashash sharoitini o'ranish, pul kamomadida va buyumlarning etishmasligi, savdo va boshqa xizmat qoidalarining buzilganda dalolatnoma tuziladi.

O'z.R. Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent shahar sog'liqni saqlash bo'limi

"TASDIQLAYMAN"
Toshkent 2 - kasalxonaning bosh shifokori
(imzo) E. A. Sodiqov

Dalolatnoma

2004 yil 20 oktyabr **Toshkent shahri**

Toshkent shahar 2-kasalxonasidagi yumshoq jihozlarni taftish qilish haqida

Men, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining hisobchi taftishchisi Akmal Abdug'anievich Abdurahmonov, Vazirlikning 2002 yil 5 oktyabrdagi 403-raqamli buyrug'i asosida ish ko'rgan holda kasalxonaning bosh hisobchisi Mohira Ikromovna Burxonova ishtirokida mazkur kasalxonaga qarashli va Xamid Qobilovich Islomov mas'ul bo'lgan yumshoq jihozlarni taftish qildim.

Tekshirishda quyidagilar aniqlandi: barcha yumshoq jihoz shuningdek jun yoping'ichlar, to'shaklar miqdori hisob ma'lumotlariga mos keladi.

O'tkazilgan tekshirish asosida quyidagilarni taklif etadi:

1. Moddiy boyliklarni saqlash va hisobga olish ishiga loqayd munosabatda bo'lganligi mas'ul shaxsga ko'rsatib o'tilsin.

Vazirlik hisobchi taftishchisi	**(imzo)**	**A.A.Abdurahmonov**
Kasalxona bosh hisobchisi	**(imzo)**	**M.I. Burxonova**
Moddiy javobgar	**(imzo)**	**X.Q. Islomov**

Ma'lumotnoma: ma'lumotnomaning rahbarlar ko'rsatmasi yoki ikki fuqarolar talabiga ko'ra beriladi. Shaxsiy ma'lumotnomaning zaruriy qismlari: tashkilot nomi, berilgan sana, tartib raqami, ma'lumotnoma berilayotgan kishining familiyasi, ismi, otasining ismi, uning mazmunini tashkil etuvchi qisqa matn, qaerga taqdim etilayotganligi, tashkilot rahbarining imzosi, familiyasi va tashkilot muhri bo'lishi kerak.

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOShKENT MOLIYa INSTITUTI

"___" _____ 200 y
№ _____

Toshkent shahri X.Asomov 7-uy

MA'LUMOTNOMA

Berildi_____haqiqatdan ham Toshkent Moliya institutida _____ lavozimida ishlaydi
Ma'lumotnoma berildi_____
_____
_____
_____

TMI Xodimlar bo'limi boshlig'i _____

Bildirishnoma: bildirishnomaning zaruriy qismlari: tashkilot rahbari familiyasi, hujjat yozayotgan kishining lavozimi, familiyasi va hujjat matni, ilova hujjat hajmi va nusxasi ro'yxati, tuzuvchilarning imzo va familiyasi va sanasi keltiriladi. Bildirishnoma tashabbus, axborot, hisobot xususiyatiga ega, korxona doirasida va yuqori tashkilot, mansabdor shaxslar nomiga yoziladi.

ToshkentMoliya nstituti
rektor v.b. professor
A. A. Vahobovga
«O'zbek va rus tillari"
kafedrasi m u d i r i
N. H u s a n o v d a n

BILDIRISHNOMA

Davlat tili to'g'risidagi qonun hamda "Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonun talablaridan kelib chiqib, Toshkent Moliya instituti 4-kurs talabalari uchun yangi o'zbek alifbosidan 36 soatlik amaliy mashg'ulotni 2003-2004 o'quv yilida o'quv rejasiga kiritishingizni so'rayman.

"O'zbek va rus tillari"
kafedrasi mudiri (imzo) N.Husanov

2005. 25.08.

Tavsiyanoma: tavsiyanomaning zaruriy qismlari: tavsiyanoma berilayotgan shaxsning fazilatlari, malakasi, oilaviy ahvoli, ma'naviy-axloqiy jihatlariga doir tavsifiy matn, tavsiyanoma beruvchining lavozimi, ismi, familiyasi va imzosi, hujjat berilgan sanasi ko'rsatiladi. Bu hujjat korxona ma'muriyati, ijodiy uyushmalar, alohida shaxslar tomonidan beriladi.

TAVSIYANOMA

Men Toshkent Moliya instituti "Mikroiqtisodiyot" kafedrasi mudiri I.Igamberdiev instituti "Mikroiqtisodiyot" kafedrasi dotsenti M. Tojievni 1991 yildan beri yaqindan taniyman, bu davr ichida dotsent Tojiev iqtisodiyot sohasida etuk mutaxassis sifatida tanildi. Uning bir qancha maqolalari, ilmiy ishlari puxtaligi bilan ajralib turadi.

M.Tojiev nafaqat ilmiy sohada, balki oilaviy - axloqiy jihatdan va ijtimoiy faoliyat sohasida ham namunali insondir. U o'ziga topshirilgan ishni halol va maromiga etkazib bajaradi. Intizomi va printsipialligi bilan jamoatda obro' qozongan, totuv oilaning boshlig'i, institut ijtimoiy hayotda ham M.Tojiev faol ishtirok etib kelmoqda.

M.Tojievni yuqoridagi singari fazilatlari uning har qanday mas’ul ishni bajara olishiga ishonch bildirishga asos bo’ladi. Shu sababli men i.f.n. M.Tojievni iqtisodiyot fanlari doktori nomzodini yoqlash uchun tavsiya qilaman.

(imzo) i.f.d. I.Igamberdiev

2004 yil 10 sentyabr.

Tilxat: tilxat korxona, muassasa, tashkilot yoki biror shaxsdan pul, hujjat yoki qimmatbaho narsa olinganligini tasdiqlovchi hujjatdir. Tilxatning zaruriy qismlari: tilxat beruvchi kishining ish yoki yashash joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi, mulk egasining ish yoki yashash joyi, lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi, tilxat evaziga olinayotgan narsaning nomi, qiymati yoki miqdori, hujjat yozilgan sana, tilxat yozuvchining imzosi va familiyasi ko’rsatiladi.

Tilxat

Men, Toshkent Moliya institutining xo’jalik ishlari bo’limining mudiri Turdiali Dexqonov Toshkent mebel korxonasining tayyor buyumlar ombori mudiri Elshod §iyosovdan institut buyurtmasi asosida tayyorlangan, umumiy bahosi 300000 (uch yuz ming) so’m bo’lgan 15 dona stolni qabul qilib oldim.

2004. 18. 09. (imzo) T.Dehqonov

Ishonchnoma (vakolatnoma): ishonchnoma korxonalararo faoliyat ko’rsatish uchun beriladigan rasmiy hamda shaxsiy tarzda yoziladi. Rasmiy ishonchnomalar bosma ish qog’ozida moddiy, qimmatdor buyumlar olish huquqini beruvchi hujjatdir. Shaxsiy ishonchnomaning zaruriy qismlari: vakolat beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, vakilning familiyasi, ismi, otasining ismi, ishonchnoma mazmuni, ishonch bildiruvchining imzosi, familiyasi, berilgan sanasi, ishonch bildiruvchining imzosini tasdiqlovchi idora, mansabdorning familiyasi, imzosi, muhr va tasdiqlangan sana ko’rsatiladi.

ISHONCHNOMA

Men, G. Muslimova, kursdoshim Z. Muhiddinovaga shaharning 3-aloha bo'limidan mening nomimga kelgan 30.000 (o'ttiz ming) so'm miqdoridagi pul jo'natmasini olish uchun ishonch bildiraman.

2004 yil 20 sentyabr (imzo) G. Muslimova

Tushuntirish xati: tushuntirish xati xizmat sohasiga, ish va vazifalarning bajarilishiga aloqador, ish bilan bog'liq holda bo'lib o'tgan voqea-hodisalar, rahbar yoki xodimning xatti-harakatlari, ishda yuz bergan ko'ngilsiz holatlarni yozma izohlovchi hujjat. Tushuntirish xati tashqi va ichki xususiyatga ega. Ichki tushuntirish xatining zaruriy qismlari: hujjat yo'llanayotgan tashkilot nomi, rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi, hujjatni tayyorlagan tashkilot nomi, rahbar yoki uni yozuvchi shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi, tushuntiri xatining mazmuni, uni yozuvchi shaxsning imzosi, familiyasi hamda yozilgan sananing qayd etilishi bilan tugallanadi.

Toshkent Moliya institutining
rektor v.b. A.A.Vahobovga
"Statistika" kafedrasining
katta o'qituvchisi S.Nodirovdan

Tushuntirish xati

Institutning ichki komissiyasi tekshirgan paytda (soat 14^{00}ga yaqin) men institutda yo'q edim. Chunki gazeta redaktsiyasi meni bosilajak maqolam tahriri munosabati bilan chaqirtirgan edi. Tushlik vaqtidan foydalanib, soat 12^{30}dan 14^{00}gacha redaktsiyaga bordim va maqolamni o'qib, to'g'rilab qaytdim. Bu haqda kafedra a'zolarini xabardor qilib ketgan edim.

(imzo) **S. Nodirov**

2004 yil 18 sentyabr

Hisobot va uning turlari: hisobotning rejalashtirilgan ish yoki topshirilgan vazifa-topshiriqlar, xizmat yohud ilmiy safarlarning yakuni, natijalari haqida mufassal ma'lumot beruvchi hujjatdir. Hisobotlar uchun umumiy va zaruriy bo'lgan qismlari: sarlavha, hisobot matni, muallifning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi, yozilgan sana, hisobotni tasdiqlovchi rahbarning imzosi, familiyasi ko'rsatiladi. Xizmat safari uchun mo'ljallangan maxsus shaklli hisobot qog'ozi, unda qayd etiladigan ma'lumotlar, bayoni hamda buxgalteriya hisobotlardir.

Shartnoma va kontraktlar: shartnoma va kontraktlar tuzilishidan ko'zda tutiladigan maqsad mahsulot etkazib berish, mulkiy javobgarlik, uy-joy, transport vositalari kabilarning oldi-sotdi, hadya qilish, almashtirish, ijaraga olish, qarz berishda shartnoma va kontrakt tuziladi. Kontrakt va shartnomalarning tomonlar kelushuviga ko'ra rasmiylashtirilishidir. Shartnoma imzolangandan so'ng tashkilot, notarial idora tomonidan muhrlanib, tasdiqlanishi kerak.

MEHNAT ShARTNOMASI (KONTRAKT)

1.Tashkilot (muassasa) _____
(to'liq nomi)
bundan keyin "Ish beruvchi" deb nomlangan _____shaxsi orqali
(Familiyasi, ismi, otasining ismi to'liq holda)
va_____
bundan keyin "Xizmatchi" deb nomlangan fuqaro _____ushbu Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

2. Xizmatchi

_____
(familiyasi, initsiallari)

_____
tashkilotga qarashli idoraning tashkiliy bo'linmaning
_____ga_____ vazifasiga ishga qabul qilinadi.

nomi (shtat jadvali bo'yicha vazifaning to'liq nomi)

3. Shartnoma
_____dir.
(shartnomalar asosiy ish, o'rindoshlik bo'yicha)

4. Shartnoma turi_____
(belgilanmagan muddatga, besh yildan ortiq bo'lmagan muddatga, aniq bir ishni)

5. Shartnomaning kuchini saqlash muddati:
boshi_____
oxiri_____

6. Sinov muddati_____
(sinovsiz, sinovning davomiyligi)

7. Xizmatchining vazifasi:
a) ichki mehat tartibi qoidalariga rioya qilish;
b) vazifaviy yo'riqnomalarga rioya qilish;

8. Ish beruvchining vazifasi:
a) ish haqini o'z vaqtida to'lash;
b) samarali mehnat uchun sharoit yaratish:

9. Ish kuni tartibi:
(to'liq bo'lmagan ish kuni, to'liq bo'lgan)_____
(ish xaftasi, ish kunining boshi va oxiri va boshqalar)

10. Xizmatchi mehnatiga haq to'lash:_____ga belgilanadi:
(xizmatchining familiyasi, ismi, otasining ismi)
a) _____so'm_____miqdorida
(yozuv bilan)

Tomonlar manzili va imzolari

Xizmatchi	**Ish beruvchi**
_____	**_____**
(F.I.O.I.-imzo)	**(F.I.O.I. - imzo)**
Manzilgoh_____	**Manzilgoh_____**
_____	**_____**
_____	**_____**
200___ yil_____	**muhr 200____yil_____**

Buyruq va farmoyish: buyruq va farmoyishlar mulkchilik shaklidan qat'iy nazar korxona, tashkilot, muassasalarning kundalik faoliyati bilan bog'liq hujjatdir. Buyruqning asosiy faoliyatga hamda kadrlar shaxsiy tarkibiga oid turlari bor. Buyruqlarning maxsus bosma ish qog'ozlariga yoziladi. Ularda oldindan chop etilgan doimiy yozuv va belgilar (gerb, vazirlik, korxona nomi, manzili)ning mavjud bo'ladi. Har bir yangi buyruqning rasmiylashtirilishi: buyruq chiqarilgan sana, tartib raqami, sarlavhasi, buyruq matni, ilovalar qaydi, rahbar va mas'ul kishilar imzosi (bosh rahbar, huquqshunos, hisobchi) ko'rsatiladi. Farmoyishning buyruqdan farqli tomoni uning buyuruvchi emas, tavsiya etuvchi, ma'qullovchi, ruxsat beruvchi xarakterga ekanligidir. Unda bajariladigan vazifalarning muddat jihatdan cheklanganligidir.

Farmon, qonun, qaror: Respublika Prezidenti, Respublika Oliy Majlisi, Respublika Vazirlar Mahkamasi va xokimliklar qabul qiladigan hujjatdir.

Ustav, nizom va yo'riqnomalar: ustavning korxona, tashkilot, muassasalarning tuzilishi, faoliyat ko'rsatishi, vazifa va maqsadlari, huquqiy holatlarni qamrab oluvchi hujjatlar kiradi. Mustaqillik va bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi tashkil etilayotgan turli mulk shaklidagi korxonalarning ustavlari va ularda aks etadigan qoidalardir. Muassasa, korxona, tashkilotlarning ichki mehnat tartib-qoidalari, jamg'armalari, boshqaruv va boshqa organlari, haq to'lash,

ishga qabul qilish, rag’batlantirish va boshqa sohalarga doir nizomlar kiradi. Qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni tushuntirishga yo’naltirilgan, ish bilan bog’liq lavozim yo’riqnomalari, asbob-uskuna va boshqa shu kabilardan foydalanish qoidalarini aks ettiruvchi yo’riqnomalardir.

Majlis bayoni va undan ko’chirma olish: majlis bayonining boshlang’ich tashkilotlardan tortib oliy darajadagi yig’ilishlarda yuritiladigan hujjat. Uning zaruriy qismlari: yig’ilish o’tkazilayotgan tashkilot, sana, tartib raqami, yig’ilish joyi, rais va kotib familiyasi, ishtirokchilar soni, kun tartibi, masala muhokamasi, so’zga chiqqanlar, qabul qilingan qarorlar, ilova hujjatlar, rais va kotib imzolari, familiyasi, ayrim masalalar bo’yicha majlis bayonidan ko’chirma olish tartib qoidalari yoziladi.

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“O’zbek va rus tillari” kafedrasi umumiy majlisining

№ 12-sonli bayonnomasidan

K O’ CH I R M A

7 may 2005 yil **Toshkent shahri.**

Qatnashdilar: Kafedra mudiri prof. N. Husanov, f.f.d. E.Begmatov. dotsent: A.Saparov, katta o’qituvchilar S. Shokirova, G.Aliyeva, M. Qilicheva, K. Akbarova, A. Kaipova, E.Xusnutdinova, G.Mambetova, o’qituvchilar: R.Xo’jaqulova, N.Diyorova, G.Axmedova.

K U N T A R T I B I:

5. prof. N.Husanov va dots. Z.Miraxmedovalarning “Mutaxassislik tili” o’quv qo’llanmasining muhokamasi.

5.1. Eshitildi: prof. N.Husanov va dotsent Z.Miraxmedovalar “Mutaxassislik tili” fani bo’yicha qo’llanma tayyorlanganligi qayd etildi. Taqrizchilar f.f.d. E.Begmatov, f.f.n. O’. Lafasov qo’llanma talabga to’la javob berishi va muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlashdi.

5.2. So’zga chiqdilar: Mazkur qo’llanma yuzasidan kafedra professor-o’qituvchilaridan dotsent S.Ro’zieva, katta o’qituvchilar: A.Kaipova, M.Qilicheva, E.Xusnutdinova, R.Xo’jaqulovalar bir ovozdan prof. N.Husanov va Z.Mirahmedovalarning “Mutaxassislik tili” fani bo’yicha o’quv qo’llanmasini ijobiy baholashdi.

5.3. Qaror qilindi: Prof. N.Husanov va dotsent Z.Mirahmedovalarning “Mutaxassislik tili” bo’yicha o’quv qo’llanmasi yakunlangan deb hisoblansin va Toshkent Moliya instituti qoshidagi nashriyotga chop etish uchun topshirilsin..

Kafedra mudiri **(imzo)** **prof. N.Husanov**

Kotiba **(imzo)** **Z. Rasulova**

Hujjatlarning ahamiyati: O’zbek tilida iqtisodiyotga oid mukammal hujjatlarni yaratish dolzarb masaladir. Mukammal hujjatni yaratish uchun o’zbek tilining qonun va qoidalaridan to’g’ri foydalanish zarur. Demak, har bir mutaxassis o’zbek tilining imlo qoidalarini, tinish belgilarini, uslubiy qoidalarini yaxshi bilishi shart.

Hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalagani uchun ham xolis bo'lishi lozim. Demak, hujjatlar tilida emotsional tushunchalarni ifodalovchi so'zlar va vositalar qo'llanilmaydi.

Hujjat aniq, ixcham, lo'nda hamda mazmunan to'liq bo'lishi lozim.

Hujjatlar o'ziga xos uslubga ega. Hujjatda ot va fe'lga tegishli so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Sintaktik xususiyatidan kelib chiqib asosan, darak va buyruq gaplar ishlatiladi.

Hujjatlar tilida turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan ko'proq foydalaniladi. Masalan, buyruqda quyidagicha qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin:.

1) ". . . so'm maosh bilan . . . lavozimiga tayinlansin";

2) ". . . o'z xohishiga ko'ra . . . lavozimidan bo'shatilsin";

3) ". . . boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan . . . lavozimidan bo'shatilsin";

4) ". . . ga . . . dagi faol va samarali ishtiroki uchun tashakkur e'lon qilinsin";

5) ". . . ga o'z bo'limida intizomni bo'shashtirib yuborganligi uchun hayfsan e'lon qilinsin" va h.k.

Yoki xizmat yozishmalarida mana bunday qoliplashgan so'zlardan foydalanish mumkin:.

1) "Sizga . . .ni ma'lum qilamiz";
   "Sizga . . .ni bildiramiz";
   "Sizga . . .ni eslatamiz";
2) ". . . yordam tariqasida . . ."
   ". . . munosabat bilan . . . "
   ". . . qaroriga muvofiq ravishda . . ."
3) ". . . ga zavod ma'muriyati qarshi emas";
   ". . . ga zavod kafolat beradi" va h.k.

Umuman, hujjatlar ahamiyati beqiyosdir. Iqtisodiy islohotlarni izchil va aniq amalga oshirishda, iqtisodiyotni yuksaltirishda, malakali iqtisodchilarni tayyorlashda ish yuritishning va hujjatchilikning o'rni beqiyosdir.

Tayanch so'z va iboralar:

1. Ta'lim
2. Iqtisodiy ta'lim
3. Hujjat
4. Ichki hujjat
5. Tashqi hujjat
6. Hujjatlarning turlari
7. Hujjatlarning tuzilishi
8. Shakl

Takrorlash uchun savollar:

1. Hujjatchilik tarixi.
2. Hujjatlarning iqtisodiyotda tutgan o'rni.
3. Hujjatlarning qismlari.
4. Hujjatlarning ahamiyati.
5. Iqtisodiyotga oid hujjatlar.

SHARTLI QISQARTMALAR

1. BIA - Yo. Abdullaev. Bozor iqtisodiyoti asoslari. Toshkent, “Mehnat”, 1997.
2. BOI - V.A.Chjen. Bozor va ochiq iqtisodiyot. Toshkent, “Iqtisodiyot va huquq dunyosi”, 1996.
3. Marketing - A.Soliev, A.Usmonov. Marketing. Toshkent, “O’qituvchi”, 1997.
4. MA - S.S.§ulomov. Marketing asoslari. Toshkent, “Sharq”, 2002.
5. STNA - Q. Yahyoev. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Toshkent, “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003.
6. Iq. N. - M.Sharifxo’jaev, A. O’lmasov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent, “Mehnat”, 1995.
7. Kredit - Yo.Abdullaev, T.Boboqulov. Kredit. Toshkent, “Mehnat”, 1996.
8. Pul - Yo. Abdullaev, T. Qoraliev. Pul. Toshkent, “Mehnat”, 1996.
9. Soliq - Yo. Abdullaev, Q. Yahyoev. Soliq. Toshkent, “Mehnat”, 1997.
10. Moliya - N. Haydarov. Moliya. Toshkent, “Akademiya”, 2001.
11. “Hurriyat”, “Hamkor” gazetalari, “Pul, bozor, kredit” “Mulkdor” jurnallari.

Adabiyotlar ro’yxati:

Asosiy adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O’zbekiston. 1992.
2. O’zbekiston Respublikasining “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari” to’g’risidagi Konstitutsiyaviy qonuni. - T.: O’zbekiston, 2002.
3. Karimov I.A. O’zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1.-T.: O’zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2-T.: O’zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3-T.: O’zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo’lidan. T.4.-T.: O’zbekiston, 1996.
7. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash-davr talabi. T.5.-T.: O’zbekiston, 1997.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida. T.6. -T.: O’zbekiston, 1998.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. T.7.-T.: O’zbekiston, 1999.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: O’zbekiston, 2000.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.9. - T.: O’zbekiston, 2001.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. -T.: O’zbekiston, 2002.
13. Yahyoev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. -T.: “Fan va texnologiyalar markazi”, 2003.
14. Imomova T.Z., Tuxvatulina L. Ish qog’ozlari qanday yoziladi, -T.: O’qituvchi, 1992.

15. Saidov A., Ko'chimov Sh. Qonun va til, -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi" 1997.
16. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari, -T.: O'qituvchi, 1994.
17. Abdullaev Yo.,Qoraliev T. Pul - T.:. "Mehnat",1996.
18. Abdullaev Yo. Bozor iqtisodiyoti asoslari -T.: "Mehnat", 1997.
19. Malikov T.S. Moliyaviy qaror qabul qilish asoslari, -T.: O'zbekiston, 1996.
20. Sharifxo'jaev M., O'lmasov A. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: "Mehnat", 1995.
21. Abdullaev Yo., Boboqulov T. Kredit -T.: "Mehnat", 1996.
22. Husanov N. "Mutaxassislik tili" fanidan ma'ruza matnlari. -T.: TMI, 2001.
23. Chjen V.A. Bozor va ochiq iqtisodiyot -T.: "Iqtisodiyot va huquq dunyosi", 1996.
24. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. -T.: O'qituvchi, 1992.
25. Mahkamov N. Adabiy norma va plionazm. -T.: Fan, 1990.
26. Mahmudov N. Nurmonov A. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -T.: Fan,1992.
27. Xo'jaev A., Nurmonov A., Zaynobitdinov S. va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. -T.: "Sard", 2001.
28. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. -T.: 2002.
29. Soliev A., Usmonov A. Marketing -T.: "O'qituvchi", 1997.
30. Raxmatullaev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. -T.: 2000.
31. Abdullaev Yo., Yahyoev Q.. Soliq -T.: "Mehnat", 1997.
32. Haydarov N. Moliya - T.: "Akademiya", 2001.
33. Mahmudov N., Mahkamov N., Madvaliev A. O'zbek tilida ish yuritish. -T.: Fan, 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar:

34. Qur'oni karim. - T.: Cho'lpon, 1993.
35. Al-Buxoriy Abdulloh... Al-Jomi' as-Sahih. Hadislar. 1-4-jildlar. - T.: Qomus, 1992.
36. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. - T.: Adabiyot va san'at, 1993.
37. Beruniy Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. - T.: Fan, 1968.
38. Temur tuzuklari. - T.: Adabiyot va san'at, 1994.
39. Ulug'bek Mirzo. To'rt ulus tarixi. - T.: Cho'lpon, 1996.
40. Navoiy Alisher. Mahbub-ul qulub. -T.: Fan, 1987.
41. Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma. - T.: O'zbekiston, 1996.
42. Bobur Z.M. Boburnoma. - T.: Cho'lpon, 1998.
43. Avloniy A. Turkiy guliston yohud ahloq.- T.: Sharq, 1994.
44. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. - T.: Ma'naviyat, 2000.
45. Boboev H., Hasanov S. Avesto-ma'naviyatimiz sarchashmasi. -T.: Adolat, 2001.
46. Ma'naviyat yulduzlari. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi nashriyot, 1999.
47. Alpomish. - T.: Sharq, 1998.
48. Xalq, milliy mafkura va ziyoli mas'uliyati. // Tafakkur, 1999, 2-son.
49. O'zbek tilining imlo lug'ati. -T.: O'qituvchi, 2000.
50. Begmatov E. Notiqning nodir boyligi. -T.: Fan, 1990.
51. Tursunov U, O'rinboev B. O'zbek adabiy tili tarixi. -T.: O'qituvchi, 1999.
52. Komilov N. Tasavvuf. -T.: Fan, 1996.
53. Shomahmudov Sh. Shorahmedov Sh. Hikmatnoma -T.: O'zbek entsiklopediyasi bosh redaktsiyasi, 1990.
54. Mirzaev T. Dostonlar gultoji. -T.: Fan, 1998.
55. Normatov U. Qodiriy bog'i. -T.: Fan, 1994.
56. Farzand-aziz, ona mo''tabar. -T 2001.